


YzD. 2
54
u - 92

G.A.IXTIYAROVA, A.A.YULCHIBAYEV

MODDA TUZILISHI



JO
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

G.A.IXTIYAROVA, A.A.YULCHIBAYEV

MODDA TUZILISHI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Oliy
o'quv yurtlarining 5140500 - kimyo yo'nalishi talabalari uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan*

Toshkent
“Turon zamin ziyo”
2015

UO'K:546.79

KBK 34.33

I-34

Ixtiyarova, G.A.

I-34 Modda tuzilishi: o'quv qo'llanma / G.A. Ixtiyarova, A.A. Yulchibayev.
– Toshkent: "Turon zamin ziyo", 2015. – 168 б.

ISBN 978-9943-4476-6-0

UO'K: 546.79

KBK 34.33

Kimyo fanini hozirgi zamон talabi darajasida o'qitishni atom-molekulalarning hamda kimyoviy bog'larning tabiatini haqidagi tasavvurlardan keng foydalanmay turib amalga oshirib bo'lmaydi. Ma'lumki, hozirgi zamон kimyoviy fanlarning asosiy vazifasi, moddalarning ichki tuzilishini va ular asosida yaratilayotgan yangidan-yangi materiallarning oldindan aytib berilgan xossalarga ega bo'lishini ta'minlash, xohish-istiklarimizga javob bera oladigan modda va materiallar yaratishdan iboratdir.

Moddalarni tuzilishi haqidagi ma'lumot hozirgi zamон tabiatshunosligining ehtimol, eng qiyin xossasi bo'lsa kerak, chunki u fizika, matematika kristollografiya, kristollokimyo, kvant mexanika va kvant kimyo fanlarining qariyb barcha yutuqlaridan foydalanadi.

Qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligini tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tayyorlangan. Bu qo'llanma 5140500 – kimyo ta'limi yo'naliishi talabalariga mo'ljallangan.

Qo'llanma modda tuzilishi bo'yicha 12 ta bobdan iborat bo'lib, unda modda tuzilishi fanining maqsad va vazifalari, atom va molekulalarning tuzilishi, ular tuzilishini o'rganishning fizikaviy usullari, atom va molekulalarning o'zaro ta'sir kuchlari, moddalarning elektr xususiyatlari, magnitlanuvchanligi, qutblanuvchanligi, molekulalarning optik xususiyatlari: aylanma, tebranma va elektron spektrlari haqida chuqur tahsil qilingan va to'liq ma'lumotlar berilgan.

Qo'llanmaning ilova qismida test topshiriqlar: hamda eng muhim sanalar ro'yxati keltirilgan.

TAQRIZCHILAR:

M.G.Muxamediyev, O'zbekiston Milliy universiteti "Polimerlar kimyosi" kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori

O.M.Yoriyev, Buxoro davlat tibbiyot instituti "Bioorganik, bioanorganik va biologik kimyo" kafedrasi mudiri, kimyo fanlari doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2014 yil 3 martdagи 79 – sonli qaroriga asosan nashrga tavsija etildi.

Annotation

At present at development of the conditions and intellect in high educational institutions broadly not knowing structure of the atom and molecules, nature chemical relationship impossible to teach the science a chemistry.

The known that primary task to chemistries this creation new and the most latest substance and material, which can voice onward our requirements and desires.

At present science of the construction material possible consider the most difficult subject amongst естествознания since it uses all achievements a subject such as physics, mathematics, crystallography, quantizing mechanics and quantizing chemistry.

The scholastic allowance is intended for bachelor on professions 5140500-chemistry and it is prepared on scholastic program ministry High and average special forming the Republic Uzbekistan.

In scholastic allowance are analyzed and are completely discussed 12 chapters, which contains the purpose and tasks of the subject of the properties substance, construction of the atom and molecules, physical methods at study of their construction, interaction atom and molecules between itself, magnetic moment of the molecules, multiplets, spin-spin interaction, nucleus magnetic and electronic resonance, electric, magnetic properties substance, optical characteristic such as vibration, electronic and oscillatory spectrums of the molecules.

In this scholastic allowance tests as well as important dates of the event.

KIRISH

Modda tuzilishi haqidagi ma'lumot hozirgi zamonda tabiatshunosligining, ehtimol, eng qiyin sohasi, yo'nalishi bo'lsa kerak, chunki u fizika, matematika kristollografiya, kristollokimyo, kvant mexanika va kvant kimyo fanlarining qariyb barcha yutuqlaridan foydalanadi.

Kimyo fanining bizga ma'lum bo'lgan ikki yarim ming yillik tarixiga nazar solsak, uning bir qancha muhim davrlardan iborat ekanligini ko'tramiz. Lekin ularni tarixan ikki katta bosqichga bo'lish mumkin: birinchi bosqich – kimyoning ratsional yo'lga o'tishigacha va ikkinchisi – uning ratsional yo'lga o'tishidan boshlangan bosqich. Ikki ming yildan ortiq davom etgan birinchi bosqich davomida kishilar tabiatda minerallar, rudalardan o'z kundalik ehtiyojlari uchun unumli ravishda foydalandilar. Alximiklar faoliyati tufayli turli tuzlar, kislotalar, ishqorlar ochildi. Ularni ajratib olish, tozalash uchun kimyoviy texnologiya asoslarini tashkil qiluvchi bug'latish, haydash kabi jarayonlar ishlab chiqildi va ulardan foydalanildi. Lekin moddalar asosan sifat jihatidan tariflanar, ularga xos bo'lgan tavsiflar juda kam hollarda ma'lum edi.

Kimyoviy element (*R.Boyl, M.Lomonosov*), atom (*Dalton*), molekula (*A.Avagadro, Gassendi, N.Butlerov, Kanisaro*) kabi tushunchalarning kimyo faniga kiritilishi tufayli, undan tarkib masalasi mustahkam o'rinn egalladi. Moddalarning individualligi, ya'ni o'ziga xos xususiyat va tarkibga ega ekanligi to'g'risida ma'lumotlarning to'planishi, kimyoviy tuzilish to'g'risidagi fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ularning tarkibi, tuzilishi va xossalardan tashkil topgan teng tomonli uchburchak shaklida o'zaro bog'langanligini ko'rsatdi. Bu yutuqlar tufayli kimyo tarixining ikkinchi ulkan bosqichi – uning ratsional izga burilib olishidan keyin o'tgan va o'tayotgan bosqich boshlandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida amalga oshirilgan ayrim tajribalar to'plami (fotoeffekt, yorug'likning dualistik tabiatni, Kompton effekti, difraksiya, interferensiya) *moddalar tuzilishi* fanning yaratilishiga sababchi bo'ldi. Hozirgi zamonda atom va molekulalar

tuzilishi nazariyasi juda kichik massali mikroobyektlar harakatini ifodalovchi qonunlarga asoslanadi. Bu qonunlar 1925-1926-yillarda to'la shakllandi. Ular shakllanishi bilan bir vaqtida ilm-fan dunyosiga moddalar tuzilishi fani ham kirib keldi. Bu fan moddalarning ichki energetik maydoni bilan tashqi elektromagnit maydoni, nurlanish va oqimlar o'rtasida o'zaro ta'sirlashuv, energiya almashinuv yo'llari, moddalarning ichki va fazoviy tuzilishini belgilovchi kimyoviy va molekulalararo ta'sir, moddalarning elektr, magnit va optik xususiyatlarini chuqur tahlil qiladi. Bu fanning paydo bo'lishi molekulyar fizika va kvant kimyosi fanlarining paydo bo'lishi bilan deyarli bir vaqtga to'g'ri keldi. Turli izomerlarning, shu jumladan, optik izomerlarning kashf qilinishi moddalarning kimyoviy tuzilishi va uni o'rganish masalasini tarkibni o'rganish (analiz) bilan bir qatorga qo'ydi. Kimyoviy tarkibi bir xil bo'lishiga qaramay har xil xossaga ega bo'lan oddiy moddalarning alotropik shakl o'zgarishlarning mavjudligi faqat ular tuzilishning har xilligi bilan tushuntirilishi ayon bo'lib qoldi. Shu sababdan moddalarning kimyoviy tarkibini anglash bilan bir qatorda ularning kimyoviy tuzilishini o'rganish muhim ekanligi aniq bo'ldi.

Modda tuzilishini o'rganish bir vaqting o'zida ham kimyoviy va ham fizikaviy usullar yordamida bajarilishi mumkin. Barcha kimyoviy usullar mazkur modda tarkibidagi kimyoviy bog'lar, funksional guruhlar, ayrim elementlar atomlariga xos bo'lgan reaksiylardan foydalanishga asoslanadi. Bu reaksiyalarni o'tkazish ko'p vaqti va mehnatni talab qiladi. Shuning uchun, olimlar modda tuzilishini aniqlashning fizikaviy usullarini ham ishlab chiqishga e'tibor qaratdilar. Fizikaviy usullar aksariyat hollarda, juda kam miqdordagi modda va mehnatni talab qiladi. Bu usullar modda bilan tashqi maydon kuchlarining ta'sirlashuvini oqibatida modda tuzilishi qonuniyatlarini o'rganish va tarkibiy qismalarini aniqlashga asoslangandir.

Modda tuzilishini o'rganish va uning natijasida to'plangan ma'lumotlar kimyoning barcha sohalarini o'rganish va bu sohalarda tegishli ilmiy izlanishlar olib borishga imkoniyat

yaratdi. Kimyoviy ishlab chiqarish va texnologiyaning samaradorligi modda tuzilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalanishga asoslangan. Moddalarning tarkibi, tuzilishi va xossalari o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rganish hozirgi zamon texnikasi hamda sanoatning oldindan ko‘zda tutilgan xususiyatlarga ega bo‘lgan turli-tuman materiallarni tayyorlash uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilish hech shubhasizdir.

Atomning murakkabligi kashf qilinishi kimyoda yangi davr ochdi. Turli zaryadlarga va masalalarga ega bo‘lgan zarrachalarning mavjudligi, ularning atom tarkibini tashkil qilishi, materianing ana shunday zarrachalarning turli xifdagi majmualardan iborat ekanligining aniqlanishi bu majmualarning mavjud bo‘la olish shart-sharoitlari, tarkibi va xossalarni o‘rganishni taqozo etdi. Bu o‘rinda elektromagnit maydonning modda bilan ta’sirlashuvini o‘rganish va bu yo‘lda olingan natijalar hayratlanarlidir. Bu ma‘lumotlar juda ham xilma-xil bo‘lib, ularga tayangan holda moddalarning ichki tuzilishi, kimyoviy bog‘lanishining turlari, energetikasi, molekulaning qutbli yoki qutbsizligi va shunga o‘xshash qator xususiyatlar to‘grisida aniq va bir qiymatli xulosalarga kelish mumkin.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada ushbu ma‘lumotlar bilan izchil tanishish, ularning nazariy asoslarini o‘rganish, ulardan har bir kimyogarni qiziqtirgan savollarga javob olish yo‘lida erishilgan yutuqlar, kashf qilingan qonun-qoidalar, zaruriyat paydo bo‘lganda bunday tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lish yo‘llari izohlab berilgan.

Atomlar optik spektrlarning chiziqli tuzilishiga ega bo‘lishi. Frank-Gers tajribalarining natijalari, Bor postulatlari. Rits tenglamalari va qator boshqa hodisa va natijalar mikroobyektlar klassik fizika qonunlariga bo‘ysunmasligini, ularning energiyasi aksariyat hollarda, diskret ravishda o‘zgarishini, trayektoriya tushunchasini ularning fazodagi harakatiga qo‘llab bo‘lmasligini ochiq-oydin ko‘rsatdi. Buning asosida ularning dualistik tabiatini yotadi. De-Broyl formulasiga binoan mikrozarrachalarning massasi juda kichik bo‘lganligi uchun ularning harakatiga ma‘lum

sezilarli to'lqin uzunligiga to'g'ri keladiki, natijada to'lqinlarga xos bo'lgan hodisalar interferensiya, difraksiya erkin holda namoyon bo'ladi. Shu kabi qator hodisalar asosida kvant mexanikasi yaratildi va u mikroobyektlarni o'rganish vositasiga aylandi. 1926-yilda Avstriya fizigi Ervin Shreydinger tomonidan yorug'lik nazariyasiga tayangan holda ishlab chiqilgan tenglama eng muhim postulat bo'ldi. Ψ - funksiyasining fizik ma'nosini tadqiq qilish mikroobyektlarning ko'pgina kvant mexanik xossalarini asoslash va tushuntirish imkoniyatini berdi. Masalan, aylanma va tebranma o'tishlarda kuzatiladigan tanlash qoidalari asosida Shredinger tenglamasining diskret qiymatli yechimlari yotadi. Shu sababdan qo'llanmaga kirish sifatida kvant mexanikasining eng muhim elementlari eslatib o'tildi.

Qadimgi grek olimlari *Demokrit, Empidokllar* tasavvur qilganlaridek, materiyaning diskret tuzilishi to'g'risidagi fikrlar va qarashlar XIX va XX asrlarda elektronlar, protonlar, neytronlar, mezonlar va boshqa qator elementlar zarrachalar mayjudligining kashf etilishi bilan tasdiqlandi. Ulardan tashkil topgan atomlar, molekulalar, ionlar qanchalik murakkab tarkibga va tuzilishiga ega bo'lmasin, lekin masalalarning absolyut qiymati makroobyektlarnikiga nisbatan juda kichkinligicha qolaverGANligi uchun, mikrozarrachalar nomi bilan umumlashtirildi hamda kvant mexanika qonunlari usullari yordamida o'rganilmoqda. Shu sababdan, qo'llanmada ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ham ma'lumotlar berilgan. Kimyo fanining asosiy vazifasi turli-tuman oddiy va murakkab moddalarning ichki tuzilishini, tarkibini, xossalarini o'rganish va o'zgarish jarayonlari qonuniyatlarini bilish demakdir. Kimyoviy jarayon bu xossalari ma'lum bo'lgan moddalardan, aksariyat hollarda, noma'lum yangi moddalarni hosil qilishdir. Ikkala holda ham boshlang'ich va yangi hosil qilingan moddalarni, ular tarkibini to'liq xarakterlash uchun, ularni kimyoviy yoki fizik-kimyoviy usullar yordamida tekshirish kerak bo'ladi.

Modda tuzilishi, Kvant mexanika va kvant kimyosi sohasida juda katta ishlar olib borildi. Bu ilmiy ishlarni jahonning mashhur,

ko'zga ko'ringan fizik-kimyogar olimlari A.G.Stoletov, M.Pavlov, Maks Plank, De-Broyl, Frits London, Albert Eynshteyn, Ernest Rezerford, Geyzenberg, Ervin Shreydinger va boshqalar amalga oshirganlar.

Kimyoning barcha sohalarida elementlar atomlarining elektron tuzilishiga alohida e'tibor beriladi. Bu shubhasiz asosli, albatta. Chunki, elementlar va ular hosil qiladigan kimyoviy zarrachalarning tuzilishi, energetikasi, xossalari atomlarning elektron tuzilishi bilan bog'liq. Bu kimyoviy bog'lanish, ayniqsa, noorganika, analitika, kinetika va kattaliz masalalarini hal qilishda muhim rol o'yndaydi.

Radiaktivlik, xususan, tabiiy radiaktivlik tufayli α , β , γ nurlarining yadrolar tarkibidan ajralib chiqishi, ayniqsa, YaMR, PMR spektroskopik usullarining yaratilishi va kimyoda juda keng ko'lamda qo'llanilishi atomlar yadrolarining tuzilishi to'g'risida ham yetarli ma'lumotlarga ega bo'lishimizni taqozo qiladi. Shu sababdan, atom yadrosining tuzilishi to'g'risidagi ilk ma'lumotlarga alohida o'rinn ajratildi va urg'u berildi. Ma'lumki, qattiq moddalar ularni tashkil qiluvchi kimyoviy zarrachalarning bir - biriga nisbatan o'zaro fazoviy joylashishiga qarab kristall va amorf holatda mavjuddir. Kristall moddalarda ularni tashkil qiluvchi atomlar, molekulalar, ionlar o'zaro uzoq tartibli yo'sinda joylashadilar. Shuning uchun qo'llanmada kristallarni hosil qiluvchi atom, molekulalararo, elektrostatik, metall bog'lari to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, qo'llanmada simmetriya elementlari, kristall molekulalarning fazoviy tuzilishi, molekulalarning elektromagnit xususiyatlari, aylanma, tebranma va elektron o'tishlar, nurning kombinatsion tarqatilish spektrlari to'g'risida ham imkoniyat boricha bataysil to'xtalgan. Molekulalarning energetikasi va molekulalararo (dispersion, polaryazatsion, orientatsion) ta'sirga va ularning energiya qiymatlariga, kimyoviy bog' va molekulalararo ta'sirning o'ziga xos ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladigan vodorod bog'ini izohlashga ham alohida e'tibor berilgan.

Modda tuzilishi fani hozirgi zamон tabiiy fanlar o'rtasida eng murakkabi deyilsa xato bo'lmaydi. Bu ta'limot amalda fizika fanining barcha yutuqlaridan va ulkan jihozlарidan foydalanади. Bu usullarga rentgenografiya, infraqizil (IQ), ultrabinafsha (UB)-spertroskopiya, elektronografiya, refraktometriya, elektron paramagnit rezonans (EPR), yadro paramagnit rezonans (YaMR), masspektrometriya va boshqalar misol bo'ladi. Modda tuzilishi fanining predmeti artofimizdagи borliqni o'rganish va analiz qilish, maqsadi esa yetishib chiqadigan mutaxassislarni moddalarning ichki tuzilishi, ularning tarkibi, ya'ni atom, molekula, ion, radikal, elektron va yadroning xossalarini o'rgatishdan iboratdir.

I-BOB. ATOM YADROSINING TUZILISHI

1.1-§. Modda va maydon. Massa bilan energiya tushunchalari

Materiyaning asosiy ko'rinishi korpuskulalar, moddalar va maydondir.

Maydon ikki xil magnit va elektr maydon ko'rinishida bo'ladi. XIX asrgacha elektr va magnetizm bir-biriga bog'liq emas, degan fikr mavjud edi. 1819-yilda daniyalik fizik G. X. Ersted elektr tokini tashiydigan o'tkazgich magnit kompas strelkasi oldida orqaga harakatlanganini kuzatdi, shundan so'ng, ular bir-biriga bog'liqligi isbotlandi. Ersted elektr toki yordamida magnit maydon olinishini tajribada ko'rsatdi. Bu tajribalardan xabar topgan M. Faradey 10 yillik izlanishlaridan so'ng magnit maydon yordamida elektr toki olishga muyassar bo'ldi. Magnit maydon atomdagи elektronlarning magnit momenti yoki zaryadlangan zarrachaning toklari tufayli hosil bo'ladi. Magnit va elektr maydon birligida elktromagnit maydonni, ya'ni yorug'lik va elektromagnit to'lqinlarni hosil qiladi. 1863 yilda Maksvell yagona elektromagnit maydon nazariyasini fanga kiritdi. Bu nazariyaga ko'ra, o'zgaruvchan elektr maydoni, o'zgaruvchan magnit maydonini, o'zgaruvchan magnit maydoni, o'zgaruvchan elektr maydonini vujudga keltiradi. Natijada o'zaro o'ralgan elektr va magnit maydon sistemasi hosil bo'ladi. Magnit maydon harakatdagи zaryadlar atrofidaqina emas, balki fazoning yaq davomida o'zgarib turuvchi elektr maydon mavjud bo'lgan barcha sohalarda ham vujudga keladi.

Massa bu moddaning induksiya o'lchami va tortilish xossasini ifodalovchi fizik kattalik. **Energiya** jismning yoki jismlar sistemasining ish bajara olish qobiliyatini xarakterlovchi fizik kattalik, uning kimyoviy, mexanik, molekulyar, yorug'lik, atom energiyasi kabi turladi mavjuddir. Sistemalarning mexanik energiya jamg'armasi potensial va kinetik energiyalar turiga bo'linadi.

Kinetik energiya massa bilan tezlik kvadrati ko'paytmasining yarmiga teng kattalik.

$$E = \frac{mv^2}{2};$$

Potensial energiya jism yoki jismlar holatlarining bir-biriga nasbatan o'zgarishi natijasida bajarilgan ishdir.

$$E=mgh$$

Ko'p hollarda jism bir vaqtning o'zida ham, kinetik ham potensial energiyaga ega bo'ladi. SI sistemasida energiya birligi Joulda o'lchanadi.

1903 yilda **Eynshteyn nisbiylik nazariyasini** yaratdi. Bu nazariyaga ko'ra, tezlik ortishi bilan jismning massasi ortadi, ya'ni qo'shimcha harakat massasiga ega bo'ladi. U harakatdagi zarrachaning massasi tinch holatda turgan zarracha massasidan ortiq bo'lishini isbot etgan.

$$m = \frac{m_0}{\sqrt{1 - \left(\frac{V}{C}\right)^2}}$$

m - harakatdagi zarrachaning massasi;

m_0 -tinch holatda turgan zarracha massasi;

V - zarrachaning tezligi;

C - vakuumdagi yorug'lik tezligi.

Jismning massasi uning tezligini o'zgartirishga bo'lgan qarshiligining miqdoriy ifodasidir.

1.2-§. Atom tuzilishi sohasidagi asosiy ishlar

Moddalar ko'zga ko'rinxmaydigan zarrachalardan iborat, degan tasavvurlar qadimgi Gretsiyada vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi V asrda yaratilgan bu atom gipotezasi rivojlanmasdan qolib ketgan. Undan o'n asr o'tgach, ya'ni XVI asrning boshida fransuz olimi, fizik, matematik va filosof **P. Gassendi** tarixda unutib yuborilgan atom tushunchasini yana fanga kiritadi. P. Gassendi moddalar atomlardan *tuzilgan* va *atomlarning xillari* ko'p emas, degan fikrni maydonga tashlaydi. Ammo atom-molekulyar nazariya yana rivojlanmaganicha qolib ketadi. XVIII-XIX asrlardagina ilmiy asoslangan atom-molekulyar ta'lilot yaratiladi. Atom-molekulyar ta'lilot asosida moddalarning diskretnligi prinsipi yotadi, ya'ni moddalar yaxlit bo'lmasdan, balki

mayda zarrachalardan tarkib topgan. Moddalar o'tasidagi farq ularning zarrachalari orasidagi farq bilan belgilanadi. Moddalar doimo harakatda bo'ladi, jism harorati qanchalik yuqori bo'lsa, harakat ham shunchalik intensiv bo'ladi.

Hozirgi vaqtida elektron mikroskoplar yordamida barcha moddalarning atom va molekulasini to'plamlarini ko'rish mumkin. *Dj. Tomson, M. Lomonosov, Nils Bor, Jeyms Chedvik, Dalton, Ernest Rezerfordning* tajribalari tufayli atom tuzilishi to'liq o'rghanildi. Tomsonning atomning elektroneytalligi, Daltonning atomlar shar shaklida ekanligi, Borning vodorod atomi modeli, Jeyms Chedvikning neytronni borligini aniqlashi, Rezerfordning nuklear nazariyasi katta ahamiyatga ega. Elektronning kashf etilishi. XX asr boshlaridagi juda ko'p izlanishlar shuni ko'rsatdiki, atom moddaning eng kichik bo'linmaydigan zarrachasi emas, balki atomning o'zi elektron, proton, neytrondan va boshqa elementar zarrachalardan tashkil topgan.

Atomning murakkabligini tasdiqlovchi dastlabki tajriba ma'lumotlari 1879-yilda, siyraklashtirilgan gazlarda elektr zaryadi hosil bo'lishi hodisasini tekshirish natijasida olindi. Agar elektrodlar kavsharlangan shisha naydan havo so'rib olinsa va unga yuqori kuchlanishli tok ulansa, katoddan nur tarqala boshlaydi. Bu nurlar katod nurlari deyiladi. Ular elektr maydoni (E) da to'g'ri chiziqli harakatini o'zgartirib, musbat qutb tomonga og'adi. Demak, bu nurlar manfiy zaryadga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu oqim elektronlar oqimidan iborat. Ko'pchilik metallar UB nur bilan yoritilganda ham elektronlar ajralib chiqadi.

1896-yilda Bekkerel uran birikmalari ko'zga ko'rinxilmaydigan nur chiqarishni aniqladi. *Mariya Kyuri – Sklodovskaya va Pyer Kyurilar Bekkerel* ishlarini davom ettirib, toriy va aktiniy ham shunday xossaga ega ekanligini aniqladilar. O'z-o'zidan nurlanish hodisasi radiaktivlik deb, bu xossaga ega bo'lgan moddalar esa radiaktiv moddalar deb ataladigan bo'ldi.

Tekshirishlar natijasida bu nurlarning bir xil emasligi aniqlandi. Magnit va elektr maydoni ta'sirida bu nurlar uch-

qismga bo'linadi: α , β va γ - nurlar. Ikki qismi qarama-qarshi tomonga og'adi. Bu ikki nurning biri elektr maydonida manfiy qutb tomonga, ikkinchisi musbat qutb tomonga buriladi. *Manfiy qutbga burilgani α - nurlar deb, musbat qutbga tomon burilgani esa β - nurlar deb, uchinchi qismi o'zining yo'nalishini o'zgartirmaydigan γ nurlar deb ataladi.*

α - nurlar musbat zaryadli zarrachalar bo'lib, ularning zaryadi elektronning zaryadidan ikki marta ortiq, ya'ni 2 ta musbat zaryadlidir, shuning uchun ular elektr maydonida manfiy qutbga tomon buriladi. Bu zaryadning massasi 4 uglerod birlikka teng. Tekshirishlar α - nurlar elektronlarni yo'qtgan geliy atomlari ekanligini ko'rsatdi. Ularning ionlanish xususiyati kuchlidir. α - nurlar turli elementlarning atomlaridan elektronlarni urib chiqaradi, ya'ni u atomlarni ionlashtiradi va har bir α - zarracha o'ziga 2 tadan elektron biriktirib neytral geliy atomlarini hosil qiladi. harakat tezligi (dastlabki) 20000 km/'sek ga teng.


β - nurlar elektronlardan iboratdir, shuning uchun ular elektr maydonida musbat qutbga tomon buriladi. β - nurlarning moddalardan o'tish xususiyati α - zarrachalarnikidan yuqori, ammo energiyasi ularnikidan kam.

γ - nurlar magnit va elektr maydonida o'z yo'nalishini o'zgartirmaydigan hech qanday elektr zaryadiga ega bo'lmasligi nurlardir. Bu nurlar elektromagnit nurlanish bo'lib, rentgen nurlariga o'xhash va yuqori darajada o'tuvchanlik xossasiga ega.

Shunday qilib, yangi kashfiyotlar atom murakkab sistema ekanligini va bir necha oddiy zarrachalardan tuzilganligini tasdiqladi.

Elektronlar turli xil moddalardan ajralib chiqadi. Bundan, elektronlar hamma element atomlarining tarkibiy qismidir, degan xulosa chiqarildi. Lekin elektronlar manfiy zaryadlangan, atom esa umuman elektroneutral bo'lgani uchun, ravshanki, atomning ichi ja musbat zaryadlangan qismi bo'lib u elektronning manfiy zaryadini kompensatsiya qilib turadi.

XIX asr oxiriga kelib, atomlar murakkab tuzilishga ega va ular o'zaro bir-biriga aylana olishi mumkinligi tasdiqlovchi bir qator faktlar aniqlandi. Moddalarni tashkil qiluvchi atomlar o'z tabiatini bilan elektroneytral zarrachalar bo'ganligidan, atomda mansiy zaryadlangan elektronlar bilan bir qatorda, albatta, musbat zaryadlangan zarrachalar ham bo'lishi shart ekanligini ingliz fizigi Djozef Tomson tushunib yetdi va 1897-yilda **Tomson** tomonidan **elektron** kashf etildi.



1.1-Rasm. Tomson modeli.


Djozef Tomsonning fikriga ko'ra, atomning musbat zaryadi atomning butun hajmini egallaydi va u bu hajmda bir xil zichlik bilan taqsimlangan bo'ladi. Tomson 1903-yilda tizimning barqarorligi, uning energiyasining minimalligi prinsipidan kelib chiqqan holda, musbat va mansiy zaryadlangan zarrachalar atomda o'zaro tekis aralashgan joylashgan bo'ladi, degan gipotezani taklif qildi. U shuningdek, α - nurlarining tabiatini izchil o'rganib, ular musbat zaryadli, anchagina katta massaga ega bo'lgan zarrachalar ekanligini ko'rsatadi. Dj. Tomson elektron zaryadi va elektronning miqdoridan foydalanib uning massasini aniqladi. Elektron zaryadi $5,273 \cdot 10^{17}$, uning miqdori $4,8028 \cdot 10^{-10}$ e.s.b. ga teng. Elektron elementar zarracha bo'lib, uning massasi $m = 4,8028 \cdot 10^{-10} / 5,273 \cdot 10^{17} = 0,910939 \cdot 10^{-27}$ g ga teng ekan. Uning massasi vodorod atomining massasidan $m(H) = 1,00866 / 6,02 \cdot 10^{23} = 1,674 \cdot 10^{-24} / 9,10939 \cdot 10^{-28} = 1837$ marta kichik.

1909 yilda R.Milliken elektron zaryad (q_e) qiymatini aniqladi. $q_e = 1,6021 \cdot 10^{-19}$ Kl ga teng. **Elektr zaryadi** atom yadrosining

asosiy xarakteristikasidir va u neytral atomdagи elektronlar sonini, ximiyaviy (energiya sathlari) va fizik xususiyatlarini aniqlaydi.

1.3-§. Atom tuzilishining nuklear nazariyasi

Ingliz olimi Ernest Rezerford Tomson gipotezasi ustida ish olib borib, vakuumda juda yupqa oltin plastikasiga α -nurlarini tik holda yo'naltirdi. Agar atomlarning ichki tuzilishi Tomson o'ylagandek bo'lsa, musbat zaryadlangan α -nurlar atomlarda tekis taqsimlangan musbat zarrachalardan elektrostatik ravishda itarilib, atrofga sochilishi yoki elektronlar tomonidan tortilib, kinetik energiyasi katta bo'lganligi uchun plastikadan hech qanday qiyinchiliksiz o'tib ketishi kuzatilishi kerak. Amalda na u va na bu hol kuzatilmadi, α -nurlarning deyarli 99,9 foizi plastinkadan hech qanday to'sqinlikka uchramagan holda o'tib ketdi. Lekin uning 0,01 foizi xuddi beton devorga urilgan koptokdek o'z yo'nalishlarni 180° yoki undan kichikroq burchakka o'zgartirib orqaga qaytdi. Bunday kutilmagan natija Rezerfordni jiddiy o'ylantirib qo'ydi. Tajriba bir necha marta qaytarilib, uning natijasida ishonch hosil qilingach, Rezerford Tomson gipotezasi tasdiqlanmayotganligini tushunib o'zining atom tuzilishi to'g'risidagi planetalar modelini taklif qildi va atom tarkibining musbat zaryadli qismini **E.Rezerford** 1911-yilda (α -zarrachalarning tarqalishini o'rganish natijasida) kashf etdi. Rezerford α -nurlarni yupqa metall plastinkaga yo'naltirilsa, ularning ko'p qismi metall plastinka orqali o'tib, o'zining to'g'ri chiziqli harakatini o'zgartirmasligini, bir oz qismi yo'nalishini o'zgartirishini kuzatdi. (1.2-rasm).



1.2-rasm. Zarrachalarining atom ichidan o'tishi

α - zarrachalarning ko'pchiligi o'z yo'nalishini o'zgartirmay plastinkadan o'tib ketdi. Zarrachalarning oz qismigina kichik burchak hosil qilib burildi, taxminan 8 ming α - zarrachalarning bittasigina chetga otildi. Rezersford bu zarralarning maxsus ekranga urilganda chaqnashini mikroskop orqali ko'rdi. Demak, metall atomini fazoda egallagan ko'p qismida og'ir zarrachalar yo'q, unda faqat elektronlar bo'lishi mumkin. Ma'lumki, elektronlarning massasi α - zarracha massasidan deyarli 7500 marta kichikdir, shu sababli elektronlar bilan to'qnashganda α - zarrachalarning harakat yo'nalishi o'zgarmaydi. α -zarrachalarning burchak ostida burilishi yoki ularning keskin orqaga qaytishiga sabab atomning asosiy massasiga ega bo'lgan og'ir yadroning borligidir. Yadro atomning juda kichik hajmini egallaydi, shuning uchun α - zarrachalar u bilan kam to'qnashadi. Yadro musbat zaryadga egadir, shuning uchun undan musbat zaryadli α -zarrachalar itariladi.

Oltin plastinkadan qaytgan zarrachalar sonining qaytarilish burchaklari bo'yicha taqsimlanishini o'rganish natijasida atomdagи musbat zaryadlar joylashgan sfera radiusining o'chami 10^{-11} sm ekanligini, atom radiusi esa 10^{-8} sm chamasida bo'lib bunday atom α -nurlari uchun yuqori darajada to'sqinsiz o'tkazuvchan tiniq muhit ekanligini ko'rsatdi. Musbat zaryadlardan tashkil topgan sfera atomning yadrosi deb ataladi. Alovida-alohida mavjud bo'lib, musbat va manfiy zaryadlangan zarrachalardan tashkil topgan atomning barqarorligini tushuntirish uchun Rezerford o'sha vaqtida qo'llanilib kelayotgan klassik mexanika va elektrodinamika qonunlariga binoan atomning bir tomonidan elektronning yadro atrofida aylanishi natijasida paydo bo'ladigan markazadan qochma kuch, ikkinchi tomonidan musbat va manfiy zaryadlangan zarrachalar o'rtaсидаги tortishish kuchi bilan qiymat tomonidan teng yo'nalishlari bo'yicha o'zaro qarama-qarshi bo'lганлари uchun Nyutonning 3-qonuniga binoan atom barqaror holatda bo'ladi, degan xulosaga keldi va o'zining quyidagi tenglamasini taklif qildi:

$$F_{mk} = \frac{m_e V^2}{r}$$

(markazdan qochma kuch)

$$F_{elst} = -\frac{e^2}{r^2}$$

(tortishish kuchi)

Atom barqaror bo'lganligidan $F_{mk} + F_{elst} = 0$, ya'ni


$$\frac{m_e v^2}{r} - \frac{e^2}{r^2} = 0$$

Tenglama kelib chiqadi. Uni r ga ko'paytirsak, $m_e v^2 = \frac{e^2}{r}$ bo'ldi.


Afsuski, tenglamada ikkita noma'lum o'zgaruvchi V va r lar mavjud bo'lganligi uchun uni yechib bo'lmasligi Rezerfordga mayon bo'ldi.

Shu tajribalar asosida Rezerford atom tuzilishining nuklear (yadro) nazariyasini kashf qildi.

1933 yilda *Iren Kyuri va Frederik Jolio Kyuri* ba'zi yengil elementlar – bor, magniy, alyuminiylar α -zarrachalar bilan bombardimon qilinganda pozitronlar (pozitron e^+ - elementar zarracha bo'lib, uning massasi elektron massasiga teng, ammosbat elektr zaryadiga ega elektron va pozitronning zaryadlarining absolyut miqdorlari bir xil) ajralib chiqishini kuzatdilar. Avval alyuminiya α -nurlar ta'sir ettirib, radioaktiv fosfor hosil qilindi:



Bunda neytronlar ham ajralib chiqadi, so'ngra hosil bo'lgan beqaror radioaktiv fosfor pozitron chiqarish bilan yemirilib, kreminiying barqaror izotopiga aylandi:




Shunday qilib, sun'iy ravishda radioaktivlik hodisasi kashf etildi. Hozirgi davrda sun'iy yo'l bilan kimyoviy elementlarning yuzlab radioaktiv izotoplari hosil qilingan. Radioaktiv elementlar

va ularning tabiatini o'rganuvchi kimyoning bo'limi **radiokimyo** deb ataladi.

Yadrolarning elementar zarrachalar (neytronlar va protonlar) yoki boshqa yadrolar (masalan α - zarrachalar yoki deytronlar, ${}_1^1H^2$) bilan o'zaro tasirlashuviga **yadro reaksiyalar** deyiladi.


Birinchi sun'iy yadro reaksiyasi 1919-yilda Rezersford tomonidan amalga oshirilgan edi: azot atomlariga α -zarrachalar oqimini ta'sir ettirib, kislorod izotopni ${}_8^{17}O$ ni hosil qilgan edi:



Shunday qilib, elementlarning bir-biriga sun'iy aylantira olish mumkinligi tajribada isbot etildi.

Radioaktiv elementlarning yarim yemirilish davri g'oyat xilma-xil bo'ladi, ya'ni ba'zi elementlarning yarim yemirilish davri milliard yillarga teng bolsa, ba'zilarniki sekundning kichik ulushlariga teng bo'lishi mumkin. Masalan, radonning yarim yemirilish davri 2,85 sutkaga, radiyniki 1620 yilga, uranniki esa 4,5 milliard yilga teng. Radioaktivlik nurlanish jarayoni o'z-o'zicha uzlusiz ravishda boradi. Bu jarayon natijasida radioaktiv elementlarning atomlari hamisha yemirilib, boshqa elementlarga aylanib turadi. Radioaktiv yemirilish jarayoni ham atomning murakkab tuzilganligidan dalolat beradi.

Demak, atomga ta'rif beradigan bo'lsak: **Atom – bu** kimyoviy elementning xossalari saqllovchi eng kichik zarracha, yoki *hozirgi zamон ta'rifi Atom* – bu proton va neytronlardan tarkib topgan musbat zaryadlangan yadrodan va uning atrofida harakatlanadigan manfiy zaryadlangan elektronlardan iborat elektroneytral zarrachadir. Reaksiyada vujudga kelgan vodorod atomining yadrosi barcha yadrolar tarkibiga kiruvchi elementar zarracha ekanligi aniqlandi va proton (p) deb nom berildi. "Proton" so'zi "birinchi" degan ma'noni anglatadi. Yadroni tashkil etgan protonning massasi 1,007825 u.b.ga tengligini Golshteyn aniqladi, uning zaryadi +1 ga teng. 1932-yilda ingliz fizigi **Jems Chedvik** neytronni (n) tajribalar asosida kashf qildi (1.3-rasm).



1.3- rasm. Chedvikning Neytronning kashf etilish tajribasi

U beriliy metalini α -nurlar bilan bombardimon qilib, proton massasidan kattaroq va juda yuqori energiyaga ega bo'lgan bir zarracha borligini va uning zaryadsiz ekanligini aniqladi. Uni **Neytron** deb atadi.

Proton massasi elektron massasidan 1836 marta, neytronning massasi esa 1838 marta katta. Proton va neytronni umumiyl holda, birlgilikda nuklonlar deb atashadi. Yadrodag'i nuklonlar o'ziga xos xususiyatga ega. Ularning yadrodag'i bog'lanish energiyasi elektronlarning atomdag'i bog'lanish energiyasidan ancha katta. (elektron uchun 10-100 kiloelektrovolt (KeV), proton uchun 8 megaelektrovolt (MeV)).

Protonlar soni neytronlar sonidan ko'p bo'lsa, yadroning turg'unligi kamayadi, tarkibida juft miqdorda proton va neytron tutgan yadrolar barqaror bo'ladi, yadrodag'i nuklonlar yig'indisi toq bo'lgan yadrolar mustahkamligi kam bo'ladi, ular tabiatda kam uchraydi.

Zarracha	Zaryad	Spin	Massa:	
			g	u.b.
Proton	$q_p = +1,602 \times 10^{-19}$	1/2	$1,67262 \times 10^{-24}$	1,007825
Neytron	0	1/2	$1,67493 \times 10^{-24}$	1,008665
Elektron	$q_e = -1,602 \times 10^{-19}$	1/2	$9,10939 \times 10^{-28}$	0,0005486

Yadroni tashkil qiluvchi zarrachalar o'rtasida 2 kuch o'zaro ta'sirlashadi: musbat zaryadlangan protonlarning o'zaro itarilish elektrostatik kuchlari va yadro tarkibiga kiruvchi hamma

zarrachalar o'rtaсидаги о'заро tortishish kuchlari (bu kuchlar yadro kuchlari deb yuritiladi). Yadrodagi kuchlar nihoyatda kichik masofadagina (10^{-15} m) o'z ta'sirini ko'rsatadi. Har qaysi nuklon faqat o'ziga yaqin qo'shni bir necha nuklonlargaғagina ta'sir ko'rsatadi. Atom yadrosini tashkil etuvchi zarrachalar orasidagi masofa juda kichik bo'lganda, yadro kuchlarini tortish qobiliyat, bir xil zaryadlar hosil qiladigan itarish kuchidan yuqori bo'ladi va yadrolarning barqarorligini ta'minlaydi. Atom yadrosidagi proton va neytronlar soni yig'indisi atomning massa soni deb yuritiladi. Yadro o'zining o'lchami jihatidan atom o'lchamidan 1000 marta kichikdir, misol uchun 1 sm³ joyga atom yadrosini yig'sak, uning massasi 10^{11} kg kelardi. Agar I ta bug'doy doni faqat yadrodan iborat bo'lsa uning og'irligi 100 ming tonnaga ega bo'lar edi.

Yadro tarkibidagi proton (p), neytron (n) lar va atom massasiga qarab atomlar 3 guruhg'a bo'linadi;

Izotoplар – proton soni o'zgarmaydigan, N lar soni o'zgaruvchan bo'lgan element atomlari, deyarli barcha elementlarda uchraydi. Masalan, vodorodning 3 ta izotopi Protiy-¹H, deyteriy-²D, tritiy-³T, kislorodning ⁸₁₆O, ⁸₁₇O, ⁸₁₈O va h.

Barcha ma'lum kimyoviy elementlarning 300 ga yaqin izotoplari mavjud.

Izobarlar – protonlar va neytronlar soni o'zgaruvchan, lekin atom massasi o'zgarmas bo'lgan yadrolar turkumiga aytildi. ³₁H va ³₂He, ⁷₃Li va ⁷₄Be, ⁴⁰₁₉K va ⁴⁰₁₈Ar.

Izotonlar – neytronlar soni bir xil, protonlar va atom massasi o'zgaruvchan bo'lgan atomlar turkumiga aytildi; ²₁H va ³₂He, ⁴₂He va ⁵₃Li, ⁷₄Be va ⁶₃Li va hokazo.

Ayni elementning barcha izotoplari o'zlarining kimyoviy xossalari jihatidan bir-biriga yaqin bo'lganligi uchun o'sha element izotoplarini ajratish juda qiyin bo'lib, ular kimyoviy usullar yordamida ajratiladi.

Kimyoviy va biologik jarayonlarning mexanizmini o'rganishda izotop indikatorlari yoki nishonli atomlar keng qo'llanilmoqda. Buning uchun ma'lum miqdordagi izotop o'simlik yoki hayvon organizmiga yuboriladi va uning yurish

yo'li tekshirib boriladi. Ms: kislorodning og'ir izotopini qo'llash bilan o'simliklar tomonidan karbonat angidridning o'zlashtirilishi tekshirilgan. Bunda kislorod CO_2 dan emas, balki suvdan olinishi aniqlangan. Nishonli atomlar yordamida ildizning tuproqda o'sishini, o'g'itlarning o'zlashtirilishini, hayvonlarning yegan ovqatini o'rganish jarayonini aniqlashda kerak ekan. Kosmonavtikada kyuriy ^{232}Cm va ^{244}Cm izotoplari asosida ishlaydigan issiqlik generatorlari qo'llaniladi. Uglerodning ^{14}C izotopi organik moddalar orasidagi reaksiya mexanizmlarini aniqlashda qo'llaniladi. Bu izotop havoning ustki qatlamlarida azotning neytronlar bilan to'qnashuvi natijasida hosil bo'ladi.

1.4-§. Nils Bor nazariyasi

Nils Bor 1913-yilda vodorod atomining tuzilish nazariyasini taklif qildi. N. Bor o'zining nazariyasini yaratishda E. Rezerford nuklear nazariyasiga va Plankning kvantlar nazariyasiga asoslandi.

N.Borning nazariyasining I postulatiga ko'ra, elektron yadro atrofida faqat kvantlangan, ya'nı ma'lum energiya darajasiga muvofiq keladigan orbitalar bo'ylab aylanadi. Bu orbitalarning qaysi birining elektron bilan band etilishi atomning energiyasiga bog'liq. Agar atomning energiyasi minimal qiymatga ega bo'lsa, elektron yadroga eng yaqin birinchi orbita bo'ylab harakat qiladi; atomning bu holatini qo'zg'olmagan, normal yoki asosiy holat deyiladi. Bu holda elektron yadro bilan eng mustahkam bog'langan bo'ladi. Qo'shimcha energiya qabul qilgan atom qo'zg'algan holatga o'tadi, lekin atomning qo'zg'algan holati nihoyatda qisqa muddatlidir. Elektron uzoq orbitadan yaqin o'bitaga o'tganda atom elektromagnit nur chiqarib o'z energiyasini kamaytiradi.

N.Borning I postulatiga muvofiq kvantlangan orbita bo'ylab aylanayotgan elektronning harakat miqdori momenti mvr kattalik jihatidan $\frac{\hbar}{2\pi}$ ga karrali bo'ladi, ya'nı

$$mvr = n \left(\frac{\hbar}{2\pi} \right)$$

N.Borning II postulatiga ko'ra, elektron bir orbitadan ikkinchi orbitaga o'tgandagina atom o'z energiyasini o'zgartiradi; elektron kvantlangan orbitalar bo'ylab aylanganda, atom energiya chiqarmaydi va energiya yutmaydi.

Elektron yadrodan uzoqda tigan orbitadan yadroga yaqin orbitaga o'tganda atom yorug'likning bir kvantiga teng energiya chiqaradi. Bu kuantning kattaligi dastlabki va oxirgi holatlarning energiyalari orasidagi ayirmaga tengdir:

$$E = E_1 - E_2 = h\nu$$

E_1 va E_2 - dastlabki va oxirgi holatlar energiyalari ;

h - Plank doimiysi, $6,624 \cdot 10^{-34}$ joul* sek ;

ν - nurning 1 sekunddagи tebranishlar soni (chastotasi):

N.Bor nazariyasiga ko'ra atomda elektron harakat qiladigan har qaysi orbita radiusi o'zgarmas qiymatga ega bo'lishi, elektron ayni orbitada aniq tezlik bilan harakat qilishi, elektronning o'zi aniq o'lchamli zarracha bo'lishi kerak. Vodorod atomining radiusini va elektronning turli orbitadagi energiya qiymatlarini hisoblay oldi. Vodorod atomining ionlanish energiyasi, radiusi va energiyasi uchun

$$I = \frac{-2\pi me^4}{n^2 h^2}; \quad r = \frac{n^2 h^2}{4\pi^2 m e^2} \quad E = \frac{2\pi^2 m e^4}{h^2} \cdot \frac{1}{n^2}$$

ko'rinishdagi formulalarni keltirib chiqardi. Bu yerda I-ionlanish energiyasi, m-elektron massasi, e-elektron zaryadi, h-plank doimiysi, r-orbita radiusi. N.Bor bu ikki postulati asosida vodorod atomining tuzilishini tushuntirdi.

Savollar:

1. Moddalar tuzilishi fanining rivojlaniishi va uning maqsad va vazifalari.
2. Atom va uning yadrosining tarkibiy qismlari haqida aytинг.
3. Modda va maydon, massa va energiya tushunchalariga ta'rif bering.
4. Ayni elementning bir izotopi uning ikkinchi izotopidan nima bilan farq qiladi?
5. Nils Bor nazariyasini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Яворский Б. М., Детлаф А. А. Справочник по физике: 2-е изд., перераб. — М.: Наука, Главная редакция физико-математической литературы, 1985, — 512 с.
2. Сивухин Д. В. Общий курс физики. — Изд. 4-е, стереотипное. — М.: Изд-во МФТИ, 2004. — Т. III. Электричество. — 656 с.
3. Минкин В.И., Симкин Б.Я., Миняев Р.М. Теория строения молекул. Учебное пособие. Ростов-на-Дону: Феникс, 1997.
4. Степанов Н.Ф. Квантовая механика и квантовая химия. М.: Мир, 2001, 519 с.
5. Mo'minov T.M., Xoliqulov A.B., Kushmurodov Sh.X. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. O'z.faylasuflar milliy Jam. Toshkent. 2009. 288 b.
6. Джеммер М. Эволюция понятий квантовой механики. М., 1985
7. Степанов Н.Ф., Пупышев В.И. Квантовая механика молекул и квантовая химия. М.: МГУ, 1991.
8. <http://www.ru.wikipediya.org>
9. <http://www.krugosvet.ru>

II BOB. MODDALARNING FUNDAMENTAL VA ELEMENTAR ZARRACHALARI

2.1-§. Elementar zarrachalarning paydo bo'lish tarixi

XX asrning 30-yillarida elementar zarrachalar soni 3 ta bo'lib ular (elektron, proton va neytron) materiya tushunchasini tushuntirishda yetarli edi. 1940-yillarga kelib o'nlab subyadro zarralar yaratildi. 1947-yili Puel va Lettez tajribalar o'tkazib yangi zarralar mezonlarni aniqlashdi. Keyinchalik yuzlab mezonlar topildi. Eng og'ir mezon – K-mezondir. K-mezon ochilgandan so'ng undan ham og'irroq zarrachalar borligi aniqlandi. Bular giperonlar edi. Ular juft-juft bo'lib tug'ilishar

ekan va ular murakkab, og'ir zarralar bo'lib, **kvarklar** deb nomlandi.

60-yillarning o'rtalarida elementar zarralarning soni 150 dan otdi. Hozirgi paytda esa ular 400 ga yaqin. Fundamental zarracha yoki elementar zarracha parchalanishi mumkin bo'lmagan yoki parchalana olishi isbot etilmagan zarrachadir. Standart modelda kvark, lepton va kalibr bozonlar elementar zarracha deb ko'rildi.

O'tmishda adronlar (masalan, proton va neytron) va hatto atomlar elementar zarracha, deb hisoblangan, biroq keyinchalik ularning kichikroq zarrachalardan tashkil topganligi ayon bo'ldi. XX asrda elementar zarrachalar nazariyasiga kvant tushunchasi kiritildi, bu tushuncha elektronnagnetizmda inqilob yasab, kvant mexanikasi sohasi yaratilishiga sabab bo'ldi.

2.2-§. Fermionlar va Bozonlar

Barcha elementar zarrachalar ularning spiniga qarab, **bozon** yoki **fermionlarga** ajratiladi. Fermionlar yarim spinga ega bo'lib, materiyani tashkil etadi, fundamental kuchlar maydonlarining asosi bo'lmish bozonlar esa butun spinlidir.

Fermionlar. Fermion yarim spinli ($1/2$, $3/2$) elementar zarrachalardir. Italyan fizigi Enrico Fermi sharafiga shunday nomlangan. Fermionlar Fermi-Dirak statistikasiga bo'ysunadi.

Fermi-Dirak statistikasi: Har qanday ikkita zarrachani o'zaro almashtirganda to'lqin funksiyasi o'zgarsa, ular antisimetrik bo'ladi. Yopiq sistemada bir xil xususiyatga ega bo'lган 1 ta fermion zarracha joylasha olmaydi. Fermionlarga proton va elektron misol bo'lishi mumkin. Standart Modelda fermionlarning ikki tipi: kvark va leptonlar mavjudir. Fermionlarning 24 xili, ya'ni 6 ta kvark, 6 ta aksilkvark, 6 ta lepton va 6 ta aksillepton bor.

Bozonlardan farqli o'laroq, berilgan bir kvant holatida bir vaqtning o'zida faqatgina bitta fermion bo'lishi mumkin (Pauli prinsipi o'rinni). Ya'ni, fazoning bir nuqtasini bittadan ortiq fermoin bo'lishi mumkin emas, agar ko'p fermion egallasa, har bir fermion xossalari (masalan, spini) boshqalarinikidan farq

qilishi zarur. Shuning uchun fermionlar materiya, bozonlar esa nurlanish asosini tashkil etadi (biroq ular orasidagi farq kvant fizikasida hali to'la-to'kis ayon emas).

Bozonlar butun spinli (0,1,2,3) zarrachalardir (rasm). Ular Boze-Eynshteyn statistikasiga bo'y sunishadi.

Fermionlar			
I	II	III	
U	C	T	
D	S	B	
e	ν_e	ν_μ	ν_τ
	H	L	

Bozonlar

Boze-Eynshteyn statistikasi: Har qanday ikkita zarrachani o'zaro almashirganda to'lqin funksiyasi o'zgarmasa, ular simmetrik bo'ladi. Yopiq sistemada bir xil xususiyatga ega bo'lgan ixtiyoriy sondagi zarracha (bozon)lar bo'lishi mumkin. Bozonlar uchun Pauli prinsipi bajarilmaydi.

Bozonlar elementar (masalan, foton) yoki murakkab (masalan, mezon) bo'lishi mumkin. Bozonlar kuch maydonlarini tashkil etadi. Fermionlardan farqli o'laroq, bir necha bozon bitta kvant holatini (ya'ni, bir vaqtning o'zida bitta joyni) egallashi mumkin.

2.3-§. Leptonlar. Adronlar va Mezonlar

Hozirda fundamental zarrachalar 3 sinfga bo'lib o'r ganiladi.

1-sinfga **leptonlar**- o'zaro kuchsiz ta'sirlashuvda qatnashadi, ular fermionlarning eng yengili va elektromagnit ta'sirlashuvda ishtirok etadi. Leptonlar 3 oiladan-elektronning o'zi va uning neytrinosi va myuon oilasidan iborat (2.1.jad).

Fundamental zarrachalar

Zarracha Tiplari	Nomi va belgisi	Massasi m , MeV	Spin,	Yashash davri, sek	Q	L	B	S	C
Leptonlar	Elektron e^-	0,511	1/2	Barqaror	-1				
	Neytrino ν_e	$\leq 3 \cdot 10^{-5.2}$		Barqaror	0				
	Myumezon μ^-	105			$2,2 \cdot 10^{-6}$	-1	1	0	0
	ν_μ	$< 0,52^{(2)}$		Barqaror	0				
	τ^-	1784			$\approx 5 \cdot 10^{-13}$	-1			
	ν_τ	$< 150^{(2)}$		Barqaror	0				
Mezonlar (adron)	Pimezon π^0	135	0		$0,8 \cdot 10^{-16}$	0		0	0
	π^+	140			$2,6 \cdot 10^{-8.7}$	+1		0	0
	K-mezon K^+	498			$10^{-10} - 10^{-8}$	0		+1	0
	K^-	494			$1,2 \cdot 10^{-8}$	+1	0	0	+1
	Knolmezon K^0	1864			$\approx 5 \cdot 10^{-13}$	0		0	+1
	K^{0-}	1869			$\sim 10^{-12}$	+1		0	+1
	Eta mezon F^0	2020			$\approx 2 \cdot 10^{-13}$	+1		-1	+1
Barionlar (adron)	Proton P	938,3	1/2	Barqaror	+1			0	0
	Neytron N	939,6			≈ 900	0	0	1	0
	Lyambda Λ	1115			$2,6 \cdot 10^{-10}$	0		-1	0
	Sigma Σ^+	1189			$0,8 \cdot 10^{-10}$	+1		-1	0
	Σ^0	1192			$6 \cdot 10^{-20}$	0		-1	0
	Σ^-	1197			$1,5 \cdot 10^{-10}$	-1		-1	0
	Ksi giperone Ξ^0	1315			$2,9 \cdot 10^{-10}$	0		-2	0
	Ξ^-	1321			$1,6 \cdot 10^{-10}$	-1		-2	0
Bozonlar	Omega Ω^-	1672			$0,8 \cdot 10^{-10}$	-1		-3	0
	Λ^+	2280			$\sim 10^{-13}$	+1		0	1
Bozonlar	Foton γ	0	1	Barqaror	0	0	0	0	0

	W^\pm	$\approx 8,3 \cdot 10^4$	$\approx 3 \cdot 10^{-25}$	± 1				
	Z^0	$\approx 9,3 \cdot 10^4$	$\approx 3 \cdot 10^{-25}$	0				
	Glyuon ⁵⁾	$0^{(6)}$	Barqaror ⁶⁾	0				

Leptonlar fermionlar oilasiga kiradi. Leptonlarning 6 xili bor: Elektron, myuyon va tau lepton va 3 ta neytrino. Ular elektron (e^-), elektron neytrino(ν_e), myuyon(μ^-), myuyon neytrino(ν_μ), tau lepton (τ^-), tau neytrino (ν_τ) va kuchli o'zaro ta'sirda qatnashmaydigan yarim spinli elementar zarrachalardir.

2-sinfga **adronlar** kiradi, ular ko'p xil zarrachalarni birlashtiradi va kuchli ta'sirlashuvchi hisoblanadi. (u grekcha *hadros* so'zidan olingan bo'lib – katta, kuchli, yirik demakdir). Adronlar guruhi ikkita sinfga barionlar – yarim butun spinli (1/2, 1/3, 3/2 ...) va mezonlar- butun spinli (0, 1, 2...) zarralardan iborat.

Ulardan kimyoviy ahamiyatga ega bo'lgan katta guruh barionlar hisoblanadi. Ular nuklonlar (proton va neytron) va giperonlar (Σ -sigma, Λ -lyambda, Ω -omega, Ξ^0 -ksi)dan tarkib topgan. Ulardan tashqari bir necha rezonanslar deb ataluvchi zarralar ham kiradi.

3-sinfga **kalibr bozonlar** deyiladi. Kalibr bozonlar - foton(γ), glyuon, W va Z bozonlarga bo'linadi. Boshqa bozonlarga — Higgs bozoni, graviton ham deb ataladi. Elementar zarrachalarning bir-biriga aylanishi ular uchun muhim xossadir. Elektron, proton, foton, neytrinolardan tashqari boshqa barcha elementar zarrachalar noturg'undir.

Kvark materiya asosini tashkil etuvchi elementar zarrachadir. Lepton bilan birgalikda fermionlar oilasiga kiradi. Kvarklarning turli xillari birikib, proton, neytron kabi zarrachalarni tashkil etadi (har bir zarracha uchta kvarkdan iborat bo'ladi). Kvarklarning 6: yuqori, quyi, mahliyo, g'alati, ust va ost xillari mavjud.

2.4-§. Annigilyatsiya va elektron juftning hosil bo'lishi

Fizikada bu termin yo'qolish yoki yo'qotish degan ma'noni anglatadi. Bunda zarracha yoki antizarracha elektromagnit

nurlanish natijasida fotonlarga yoki boshqa bir zarrachalar kvantlarga aylanadi. Elektron va pozitron juftning hosil bo'lishi esa bu qaytar jarayon, ya'ni elektr yoki magnit maydon ta'sirida bir vaqtida zarracha va antizarracha hosil bo'ladi. Masalan, elektron yoki uning antizarrachasi pozitron bir-biriga urilishidan yo'qoladi va 2 ta undan ham yengilroq zarrachalar gamma fotonlar ($e^- + e^+ = 2\gamma$) hosil bo'ladi. Agar gamma kvant katta energiyaga ega bo'lsa, atom yadrosidagi elektr maydon ta'sirida qaytadan bir just elektron-pozitronni hosil qila oladi. Demak, materiya hech qayerga yo'qolmaydi va o'z o'zidan paydo bo'lmaydi, energiyaning saqlanish qonuniga bo'ysunadi. Buni 1930-yilda angliyalik fizik *P.Dirak* nazariy isbot etgan. Energiya ortishi bilan bir-biriga urilgan zarrachaning elektromagnit ta'sirlashuvi natijasida energiyasi pasayadi, kuchsiz ta'sirlashuvi natijasida esa ortadi.

Shunday qilib, bir-biriga aylana olish elementar zarralarning eng xarakterli belgisidir. Elementar zarralar bo'linmaydi, lekin ular bir-biriga aylanish xususiyatiga ega.

2.5-§. Xidaki Yukava nazariyasi

1935-yilda yapon fizigi Xidaki Yukava o'z gipotezasini yaratdi, ya'ni yadro ichidagi nuklonlarning (proton va neytronnarni) yadroga tortilishi maydondagi allaqanday fotonlarga analogik bo'lgan kvantlar yordamida bo'ladi, degan fikrni o'rta ga tashladi. Kvant nazariyasidan ma'lumki, maydonga ta'sir etadigan kuch radiusi kvant massasiga teskari proporsionaldir, elektromagnit maydonda esa kvant-foton massasi nolga teng. Tajribadagi natijalarida yadro maydonidagi kvantlarning yadro kuchlari ta'siridagi radiusi elektron massasidan 207 marta og'ir ekanligi tasdiqlandi. Demak, u yerda yadro bilan ta'sirlashadigan yana bir zarracha bor deb aytgan edi Xidaki Yukava. 1936-yilda K. Anderson va Nedermeyerlar yangi zarracha kashf qilishgandan so'ng, Xidaki Yukava nazariyasi qisman isbotlandi. Uni myuyon deb atashdi va u Vilson kamerasida kosmik zarrachalardan ajratib olingan edi, lekin u yadro bilan ta'sirlashmaydigan va uzoq

yashaydigan zarracha ekanligi (Yukava zarrasining xususiyatlariga mutlaqo teskarı) aniqlandi. 1947-yilda S.Pauell yangi zarrachani topdi va bu zarracha haqiqatan ham har qanday moddaning yadrosi bilan o'zaro tez ta'sirlashishi, atmosfera qatlamidan o'ta olmasligi va uning massasi elektron massasidan 207 marta og'ir ekanligi topildi. Bu zarrachani pimezon yoki pion deb atashdi X.Yukava taxmin qilgan va aynan u aytgan zarracha **pion** edi. Hozirda esa Pionlar yadrolarni barqarorligini ta'minlashda xizmat qilishi tog'risidagi fikr qabul qilingan.

Savollar:

1. Elementar zarrachalarning kashf qilinishi va ularning xillari haqida gapiring.
2. Fermi-Dirak va Boze -Eynshteyn statistikasini tushuntiring.
3. Pozitron chiqarib yemirilishda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
4. Barcha barqaror zarralarni sanab bering va juftlar annigilatsiya nima ekanligini tushuntiring?
5. Xidaki Yukava nazariyasidan so'ng qaysi zarracha kashf etildi va uning ahamiyati haqida gapiring.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Окунь Л.Б., Лептоны и кварки, М., 1981. 120с.
2. Долгов А.Д., Зельдович Я.Б., Космология и элементарные частицы, УФН, 1980, т. 130, в. 4, с. 559-614.
3. Bekjonov R.B. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. Т.;O'qituvchi, 1994. 576b.
4. <http://www.ru.wikipediya.org>
5. <http://www.krugosvet.ru>
6. Робертсон Б. Современная физика в прикладных науках. М., 1985.
7. <http://www.astronet.ru> "Физическая энциклопедия" /Phys. Web. Ru


III BOB. ATOM SPEKTRLARI. VODOROD VA BOSHQA ATOMLAR SPEKTRLARI

3.1-§. Spektr haqida tushuncha

Qadimdan odamlar yorug'likning turli ranglarda bo'lishiga e'tibor bergenlar. Osmoñning ko'k rangda, quyosh botganda qizil, yomg'irdan so'ng kamalakning paydo bo'lishini, sovun pufagining nurni turli rangga ajratishi kabi hodisalarни tushuntirish uchun yorug'likni to'lqinlardan iborat deb qarashga to'g'ri keldi. Yorug'likning to'lqin nazariyasiga muvosiq yorug'lik fazoda katta tezlik bilan tarqaluvchi to'lqindan iborat. Uning rangi chastotasiga bog'liq bo'ladi, yorug'likning to'lqin uzunligi juda kichik. Masalan, qizil rangli nuring uzunligi vaakumda $7,6 \cdot 10^{-7}$ m, eng kichik binafsha rangning uzunligi $3,8 \cdot 10^{-7}$ m ga qolganlari ular oralig'ida bo'ladi. Inson chastotasi $4 \cdot 10^{14}$ Gs dan $8 \cdot 10^{14}$ Gs gacha yorug'likni sezsa oladi.

1873 yilda **Maksvell** yorug'lik bo'shilqda (vaakumda) $3 \cdot 10^8$ m/s tezlik bilan tarqaluvchi elektromagnit to'lqinlardan iboratligini nazariy isbotladi. Buni tajribada **Gers** tasdiqladi.

Moddalar nur sindirish ko'rsatkichining yorug'lik to'lqin uzunligi (chastotasi)ga bog'liq bo'lishiga *yorug'lik dispersiyasi* deyiladi. Bu hodisani birinchi bo'lib tajribalar asosida Nyuton kashf qilgan. U prizma olib unga ingichka quyosh yorug'ligini tushiradi (3.1-rasm). Bunda ekranada ranglarning kamalakda ko'rindigan tasviri kuzatiladi. Ana shu 7 xil rangni Nyuton **spektr** deb atadi.



3.1-rasm. Yorug'likning prizmadan o'tib spektr hosil qilishi

Spektr deb prizmadan o'tgan yorug'lik oqimining aniq to'lqin uzunligiga ega bo'lgan qismiga aytildi. Nyuton qizil nur eng kam og'ishini, binafsha nur esa eng ko'p og'ishini aniqlaydi. Qizil nur tushgan teshikni qizil shisha bilan berkitganda qizil dog', ko'k shisha bilan berkitganda ko'k dog' paydo bo'lishini kuzatadi. Jism ayrim nurlarni yutadi, ayrimlarini qaytaradi. Qora jism tushgan nurlarni to'la yutadi, oq nur esa qaytaradi.

3.2-§. Atomlarning dispersion spektr turlari

Elementlarning optik spektrlari XIX asrning o'rtalarida **G.Kirxgof** va **R.Bunzen** tomonidan kashf qilinadi, molekula va yadro spektrlari XX asrda kuzatildi. Elementar zarralarning spektri esa XX asrning oxirlarida kashf qilindi.

Tajribada kuzatilgan spektrlar atom, molekula, yadro va elementar zarralarda energetik sathlar mavjudligi bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Spektrlarni o'rganish – har qanday murakkab sistemada faqat unga xarakterli bo'lgan energetik sathlar ketma-ketligi, statsionar energetik pog'onalar mavjud ekanligini aniqladi. Bu sathlarni o'zi esa juda ham sodda va kichik bo'lgan sistemalar – atom, yadro, molekula kabilarda kuzatiladi. Haqiqatda esa bu sistemalarda diskret energetik sathlarning mavjudligi faqat kuzatilayotgan spektrlar orqali namoyon bo'ladi. Bu energetik sathlarni biz hech qachon ko'ra olmaymiz, ularni borligi haqidagi haqiqatni biz nurlanish spektri orqaligina bilamiz.

O'rganishlar, tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, nurlanish spektrini uch turi mavjud: **Chiziqli, yo'l- yo'l va tutash** spektrlar. Bu spektrlarni tabiat qanday? Nima sababdan ana shunday spektr turlari mavjud? Bu savollarga faqat kvant fizika tasavvuridagi qonunlar asosida javob berish mumkin. XIX va XX asr davomida modda, molekula, atom, yadro va elementar zarrachalarning spektrlari eksperimental va nazariy jihatdan har tomonlama batafsil va juda chuqur o'rganildi. Eksperiment natijalari atom, yadro, elementar zarralarning spektri *chiziqli*, molekulalarning nurlanish spektri *yo'l-yo'l*, modda va zichligi katta bo'lgan

jismlarning chiqarish spektri tutash xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida turli atomlarning chiqarish (shuningdek, yutilish) spektrlari haqida juda ko'p eksperimental ma'lumotlar to'plandi va barcha spektrlar chiziqlardan tashkil topganligi aniqlandi.

Chiziqli spektrlar keng qora oraliq bilan ajralgan ko'p sonli rangli chiziqlardan iborat bo'lib, bu spektrlarni bir-biri bilan o'zaro ta'sirlashmaydigan uyg'ongan atomlarda elektronlar bir energetik orbitalidan ikkinchi orbitalga o'tganda chiqaradi. Chiziqli spektrlar – atomlarning asosiy turidir. Bu spektrlarni Bor atomi tipidagi atom spektrlari deb ham ataladi. Siyrak gaz va metall bug'larining yakkalangan atomlari yoki ionlari chiziqli spektrlar chiqaradi. Bunda atomning nurlanish spektri yakka-yakka chiziqlardan iborat bo'lib, bu chiziqlarning har biri aniq keskin chegaraga ega. Shu sababga ko'ra atomlarning spektri *chiziqli spektrlar* deb ataladi.

Yo'l-yo'l spektrlar alohida bir guruh bo'lib joylashgan ko'p sonli rangli spektrlardan iborat. Bu spektrlar tarkibida atomlarga parchalanmagan molekulalari bo'lgan moddalar hosil qilib, ko'pincha, bu spektrlarni molekulyar spektrlar deb deb ham ataladi.

Tutash yoki uzlucksiz spektrlarni asosan cho'g'langan moddalar chiqarib, bu spektrlar moddalarning kimyoviy tarkibiga bog'liq bo'lmasdan, ko'proq moddalar atomlarining o'zaro ta'siriga bog'liqidir. Bu spektrlarda ranglar biridan ikkinchisiga o'tib boradi.

Qattiq yoki suyuq moddalar cho'g'lanishidan olingan spektr uzlucksiz, gazlarning spektrlari chiziqli bo'ladi. Chiziqli spektrlar atomlarga, yo'l-yo'l va uzlucksiz spektrlar molekulalarga taalluqli bo'ladi. Har qanday kimyoviy elementning atomlari to'lqin uzunligi nuqtayi-nazaridan barcha boshqa atomlarning spektriga o'xshamagan spektr hosil qiladi. Ular ma'lum to'lqin uzunligida nurlar to'plamini chiqaradi. Bunday moddalarning kimyoviy tarkibini aniqlashning spektrlar usuli spektrlar tahlilda

foydalilanladi. Elementdag'i sig'im miqdorini 10^{-13} kg dan kam bo'Imagan taqdirda ham aniqlash mumkin.

Gazlar qanday spektral chiziqlarni chiqarsa, xuddi shunday spektral chiziqlarni yutadi. Agar tutash spektr beruvchi manbadan chiqqan yorug'lik siyraklashgan bug' yoki gaz orqali o'tkazilib, so'ngra spekrometr tirqishga tushirilsa, hosil bo'lgan spektrda shu gazning nurlanish spektr chiziqlariga mos keluvchi qora chiziqlar paydo bo'ladi. Bunday spektrlar yutilish spektrlari deyiladi. Quyosh atmosferasining spektri ana shunday yutilish spektriga misol bo'ladi. 1817-yilda nemis fizigi **Fraunhofer** quyosh spektrida ko'plab qora chiziqlar borligini kuzatdi. Bular yutilish spektrlari bo'lib, Fraunhofer chiziqlari deyiladi. Quyosh bilan yer atmosferasi orasidagi gazlarning atomlari o'z chiqarishi mumkin bo'lgan spektrlarni yutib qoladi. Har qanday jism tegishli nurlarni yutish qobiliyatiga ega bo'lib, jismlarning bunday yutish qibiliyati **tanlab yutish** deyiladi.


Spektral analizning fan va texnikada ahamiyati katta. Bu usul yordamida quyosh, yulduz, tumanlarning tarkibi o'rganilgan. **D.I.Mendeleyev** davriy sistemasidagi 35 dan ko'proq elementlari shu usul vositasida topilgan va hozirgi kunda fan va texnikaning barcha sohalarida qo'llanilmoqda.

3.3-§. Vodorod va boshqa elementlar spektrlari

Modda spektrini olish uchun u dastavval cho'g'lantiriladi, ajralayotgan nurlanish tuynuk orqali o'tib prizmaga tushadi. Prizma shishadan yoki kvarsdan yasalgan bo'lib to'lqinlarni ularning uzunligiga qarab turli burchakka og'diradi. Uzunligi katta bo'lgan to'lqinlar kamroq, qisqa to'lqinlar ko'proq burchakka og'adi. Spektrdag'i yaxlit ko'ringan chiziqlar ko'pincha yonma-yon joylashgan **multiplet** chiziqlar bo'lib chiqadi. Ikkita qo'shaloq chiziqlar **dublet**, uchta bo'lsa **triplet**, agar yagona bitta bo'lsa **singlet** deyiladi. Agar nurlanayotgan atom Elektr maydoniga kiritilsa optik chiziqlar parchalanadi (1913-yilda **Yoxannes Shtark** kashf qilgan 1919-yilda Nobel mukofotini olgan (**Shtark effekti**), magnit maydoniga kiritilsa (**Zeeman**

effekti) har bir chiziq bir qancha chiziqlarga bo'linib parchalanib ketadi.

Moddalardan olingan spektral chiziqlar soni ularning joylanish o'rniga ko'ra bir biridan keskin farq qiladi. Eng oddiy spektr vodorod atomining spektridir. Vodorod spektrining ko'zga ko'rindigan sohasida to'rtta chiziqlari mavjud. Ular H α , H β , H γ , H δ spektr chiziqlaridir (3.2.-rasm).



3.2- rasm Vodorod spektrining ko'rindigan sohadagi to'rtta spektral chiziqlari.

Atom spektrlarini juda diqqat bilan o'rganilishi tufayli, spektrni ayrim-ayrim chiziqlardan tashkil topganligi va bu chiziqlarni ma'lum bir qonuniyatga bo'ysungan holda guruuhlar, ya'ni seriyalar hosil qilishi aniqlandi. Vodorod atomining ko'zga ko'rindigan spektri chiziqlari 1885-yilda shvetsariyalik olim **Balmer** tomonidan topilgan. Shu bilan birga bir nechta ultrabinafsha sohaga tegishli chiziqlar hosil bo'lishi ham kuzatiladi. Bu soha Balmer seriyasi deyiladi. Balmer seriyasi chiziqlarining to'lqin sonini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$\tilde{v} = R \left(\frac{1}{2^2} - \frac{1}{n^2} \right), \quad n = 3, 4, 5, \dots \quad (3.1)$$

Bu yerda, $R = 1,096775 \text{ sm}^{-1}$ $10973731,77 \text{ m}^{-1}$ ga teng bo'lib, **Ridberg** konstantasi yoki doimiysi deb yuritiladi. Uning

$$\text{formulasi: } R = \frac{2\pi^2 me^4}{h^3 C}$$

Bundan tashqari, vodorod spektrini ultrabinafsha va infraqizil sohalarda tekshirish yo'li bilan yana bir qancha chiziqlar seriyasi topilgan. Ultrabinafsha sohada topilgan chiziqlar seriyasi Layman, infraqizil sohadagi chiziqlarni Pashen, Brekhet va Pfunda seriyalari deb ataladi.

Spektral chiziqlarning bunday to'plami (guruhiba) *spektrial seriyalar* deb ataladi. $n \rightarrow \infty$ da chiziqlarning tutashishiga ega bo'lgan chiziqqa to'g'ri kelgan to'lqin son qiymatini *seriyaning chegarasi* deb ataladi.

Masalan, Balmer seriyasi uchun chegara $\lambda=3645,6\text{\AA}$ ga teng.

1920-yilda Quyosh nurlanish spektriga to'g'ri kelgan 22 ta spektr chizig'ini *Vud* fotosuratga oldi va undan 20 ta chiziqlari Balmer seriyasiga taalluqli ekanligi aniqlandi. Quyosh xromosferasi spektr chizig'ida 37 ta ayrim-ayrim chiziqlar borligi hozirgi paytda aniqlangan. Vodorod atomining spektrida Balmer seriyalari bilan bir qatorda xuddi (3.1) formulaga o'xshash bo'lgan formulalar bilan aniqlanadigan boshqa seriyalar ham kuzatilgan. Ultrabinafsha spektrini chekka qismida Layman o'zining spektrial seriyasini (3.1-jadvalga qarang) va spektrining infraqizil sohasida, ya'ni uchta seriya - Pashen, Brekhet va Pfund seriyalari kashf qilindi. Hammasi bo'lib vodorod atomi uchun beshta spektrial seriya ochilgan bo'lib, ular 3.1-jadvalda keltirilgan.

3.1-jadvaldan ko'rinishib turibdiki, barcha seriyalarni bitta umumiy formula ko'rinishida yozish mumkin, ya'ni

$$\tilde{v} = \frac{1}{\lambda} = R \left(\frac{1}{m^2} - \frac{1}{n^2} \right) \quad (3.2)$$

bunda, m -har bir berilgan spektrial seriya uchun doimiy qiymatga ega, ya'ni $m = 1, 2, 3, 4, 5, \dots$, n -esa butun son bo'lib, har bir seriya uchun m dan faqat bittaga katta. (3.2) formulaga *Balmerning umumlashgan formulasi* deyiladi.

Bunday chiziqlar seriyasini to'lqin soni xuddi Balmer formulasidagi o'xshab topiladi. Lekin formuladagi 2 o'rninga 1, 3, 4, 5 lar qo'yiladi. Demak, vodorod spektri quyidagi formula bilan ifodalananadi.

$$v = \left(\frac{R}{n_1^2} - \frac{R}{n_2^2} \right) \quad (3.3)$$

Bu yerdan ko'rinishib turibdiki, vodorod spektridagi chiziqlar soni ko'p bo'lishiga qaramay, ularni juda oddiy ifodalash mumkin.

Vodorod atomi uchun spektral seriyalar

Seriya	Spektr sohasi	Seriylar formulasi	Seriya chegarasi
Balmer seriyasi (1885)	Ko'zga ko'rindigan nurlar	$\frac{1}{\lambda} = R \left(\frac{1}{2^2} - \frac{1}{n^2} \right)$ $n = 3, 4, 5, \dots$	$3645,6 \text{ \AA}$
Layman seriyasi (1906)	Ultrabinafsha	$\frac{1}{\lambda} = R \left(\frac{1}{1^2} - \frac{1}{n^2} \right)$ $n = 2, 3, 4, \dots$	$911,27 \text{ \AA}$
Pashen seriyasi (1908)	Infraqizil	$\frac{1}{\lambda} = R \left(\frac{1}{3^2} - \frac{1}{n^2} \right)$ $n = 4, 5, 6, \dots$	$8201,4 \text{ \AA}$
Brekket seriyasi (1922)	Infraqizil	$\frac{1}{\lambda} = R \left(\frac{1}{4^2} - \frac{1}{n^2} \right)$ $n = 5, 6, 7, \dots$	14580 \AA
Pfund seriyasi (1924)	Infraqizil	$\frac{1}{\lambda} = R \left(\frac{1}{5^2} - \frac{1}{n^2} \right)$ $n = 6, 7, 8, \dots$	22782 \AA

Ko'pgina boshqa elementlar spektrlerida ham chiziqlar seriyasi borligi aniqlangan. Bu spektr chiziqlari ancha murakkab bo'lib, vodorod spektri seriyasiga o'xshab turli sohalarda joylashgan bo'lmay, balki bir-birining ustiga tushib qolgan. Shunday bo'lishiga qaramay spektroskopda bu chiziqlar seriyasini ajratishga muvaffaq bo'lingan. 1889-yilda *Ridberg* spektr seriyasi chiziqlarining to'lqin sonini ikki n_1 va n_2 butun sonlar funksiyasi orqali ifodalash mumkinligini aniqladi. $V = T(n_1) - T(n_2)$ bu yerda $n_1 < n_2$. Bu funksiyalar sonini ifodalash Spektral term deb ataladi. (term-algebraik tenglamalar a'zosi degan ma'noni anglatadi).

Tarkibida faqat bitta elektroni bo'lgan vodorod atomi, bitta zaradli geliy He^+ ionni, ikkita zaradli litiy Li^{+2} va boshqa zarrachalar uchun spektrlarning termi quyidagi formuladan topiladi.

$$T = \frac{Rz^2}{n^2} \quad (3.4)$$

Vodorod atomi uchun $z=1$, geliy uchun $z=2$, litiy uchun 3 ga teng bo'ldi. Boshqa elementlar uchun term quyidagi formuladan topiladi.

$$T = \frac{Rz^2}{(n+\alpha)} \quad (3.5.)$$

Bu yerda α ning miqdori kichik o'zgarmas qiymatga ega bo'lib, muayyan chiziqlar seriyasini ifodalaydi. Turli xildagi chiziqlar seriyasi uchun $\alpha=s, p, d, f$ harflari bilan belgilanadi. Chiziqlar seriyasini bunday belgilash ingliz tilida ifodalangan ionlar nomining bosh harflari asos qilib, olingan. Yuqoridagi formuladagi kabi neytral atomlar uchun $z=1$, bitta zaryadli ionlar uchun $z=2$ va hokazo. Shunday qilib spektral chiziqlar juda murakkab va turli-tuman bo'lishiga qaramasdan seriyalar butun chiziqlardan iborat bo'lGANI sababli ular oddiy ifodalanishi mumkin.

3.4-§. Kvant nurlari

Maks Plank 1900-yilda qizdirilgan jismlar spektrlari energiyasining to'lqin uzunligiga qarab taqsimlanishini tushuntiradigan nazariya yaratdi. Bu nazariyaga muvofiq energiya atomdan uzlusiz ravishda ajralmaydi, balki kichik-kichik porsiyalar (ulushlar, bo'laklar) ya'ni kvantlar holida ajraladi. Har qaysi kvantning energiya qiymati shu nur to'lqinlarining bir sekundda tebranish soniga bog'liq bo'ladi. Har qanday tebranma sistama energiyani faqat kvantlar tarzida chiqaradi va yutadi. Har qaysi kvant kattaligi Plank tenglamasi bilan hisoblanadi.

$$E = h \cdot v \quad (3.6)$$

bu yerda; E - kvant energiyasi;

h - Plank doimisi, universal konstanta bo'lib, uning son qiymati $6,624 \cdot 10^{-34}$ Joul·sek ga teng; v - tebranish chastotasi ($v = \frac{c}{\lambda}$); c - yorug'lik tezligi; λ - to'lqin uzunligi.

1905 yilda Eynshteyn fotoelektrik effekt hodisasini analiz qilish natijasida nur energiyasi porsiya sifatida ko'rinishida yutilar va chiqarilar ekan, demak, nur energiyasi kvantlardan iborat bo'lishi kerak degan fikrga keldi. Nur energiyasining eng kichik ulushi kvantni **foton** deb atashadi. Bu termin 1926-yilda **Gilbert Lyuis** tomonidan fanga kiritilgan. Bir foton energiyasi $h\nu$ ga teng. M. Plank nazariyasidan kelib chiqadigan xulosalar tajribada topilgan natijalarga to'la muvofiq keladi. Nur elektromagnit maydoni kvantlarining haqiqatan mavjudligi boshqa xil tajribalarda ham isbotlangan. Plank tenglamaridan foydalanib spektrdag'i har qaysi chiziqqa muvofiq keladigan nur kvant energiyasini hisoblash mumkin.

Masalan, vodorod speetrining chizig'i uchun E quyidagicha hisoblanadi.

$$\lambda = 6562,8 \text{ Å}^0 = 0,656 \cdot 10^{-6} \text{ m}$$

$$v = \frac{c}{\lambda} = \frac{2,997910^8 \text{ sm}}{0,65610^4 \text{ sm}} = 4,57 \cdot 10^4$$

U holda $E=h\nu=6,624 \cdot 10^{-34} \cdot 4,57 \cdot 10^{14} = 3,03 \cdot 10^{-12} \text{ erg}$ yoki $3,03 \cdot 10^{19} \text{ Joul}$.

Bu misoldan ko'rinish turibdiki, ko'zga ko'rindigan nuring kvant energiyasi uncha katta bo'lman qiyamatga ega. Atom o'zidan energiya kvantini yutib-chiqarib birinchi energetik holatdan ikkinchi energetik hollarga o'tadi. Demak, spektral term atomdagi elektronlar energiyasining o'zgarishini ifodalaydi. Atomdagi elektron energiyasi spektral term miqdori bilan bog'langan, ya'ni $E=-hcT$ energiyaga ega. Shuning uchun atomdagi elektronlar energetik pog'onachalar bo'yicha taqsimlanadi. Molekulyar spektrlarni o'rganish har bir molekulada ham elektronlar turli energetik pog'onachalarda joylashishini tasdiqlagan. Energiya birligi qilib elektron volt (eV) qabul qilingan. $1 \text{ eV} = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ J}$. 1 eV dan katta birliklar keV, MeV, GeV. Bunda $1 \text{ KeV} = 10^3 \text{ eV}$; $1 \text{ MeV} = 10^6 \text{ eV}$; $1 \text{ GeV} = 10^9 \text{ eV}$. Energiyaning manfiy qiyamatga ega bo'lishiga sabab shuki, atomdan elektronlar cheksiz masofaga chiqarib yuborilgan

holatdagi energiya qiymati nolga teng deb qabul qilingan. Demak, atomdagи elektronlar energiyasi har doim noldan kichik bo'ladi.

Savollar:

1. Spektr nima va u necha xil bo'ladi?
2. Foton va fononning bir-biridan farqi?
3. Zeeman va Shtark effektini tushuntiring.
4. Vodorod spektrlarini tushuntiring.
5. Spektral term deb nimaga aytildi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ельяшевич М.А. Атомная и молекулярная спектроскопия.- Москва: Физматгиз. 1977, 940 с.
2. Зайдель А.Н., Островская Г.В., Островский Ю.И. Техника и практика спектроскопии. М., 1972
3. Минкин В.И., Симкин Б.Я., Миняев Р.М. Теория строения молекул. Ростов-на-Дону:Феникс, 1997.
4. Степанов Н.Ф., Пупышев В.И. Квантовая механика молекул и квантовая химия. М.: МГУ, 1991.
5. Ахмедов. В.Н., Худойназарова Г.А., Каттаев Н.Ш. Моддалар тузилиши фанидан маъruzалар конспекти. Бухоро. 2005. 926.
6. <http://www.krugosvet.ru>.

IV BOB. ZARRACHALARNING TO'LQIN XOSSALARI. DUALISTIK NAZARIYA. KOMPTON EFFEKTI

4.1-§. Zarachalarning to'lqin xossalari

XVIII asrning oxirlarida **Nyuton** o'zining yorug'lik haqidagi **korpuskulyar** tasavvurlarini ilgari surdi. Bu tasavvurga ko'ra yorug'lik nurlanuvchi jismdan katta tezlik bilan chiquvchi va tog'ri chiziqli traektoriyalar bo'yicha harakatlanuvchi zarrachalar oqimidan iborat. Nyutonning zamondoshi **Gyugens** yorug'likning **to'lqin** nazariyasini o'rtaga tashladi, ya'ni yorug'lik elastik muhitda tarqaluvchi va fazoda katta tezlik bilan harakatlanuvchi to'lqin deb qaraladi. Shunga ko'ra, hozirgi zamon atom va molekula tuzilish nazariyasi mikroobyekt deb ataluvchi juda kichik massaga ega bo'lgan zarracha va elektronlar harakatini ifodalaydigan qonunlarga asoslanadi. Bu qonunlar asosan 1925-26 yillarda yaratilgan bo'lib, makroobyektlar deb ataluvchi ko'zga ko'rindigan buyumlar harakati bu qonunlarga bo'yusunmaydi va ulardan keskin farq qiladi.

Yorug'likning kvant nazariyasiga muvofiq foton o'zidan mayda zarrachalarga bo'linmaydi, foton metallar plastinkasidan elektronlarni siqib chiqaradi, fotografiya plyonkalaridagi yorug'likni sezuvchi moddalar bilan o'zaro ta'sirlashib, ularning ma'lum nuqtalarida qorayishni vujudga keltiradi. Bunday hollarda foton zarracha xossalarini, ya'ni korpuskulyar xossaga ega ekanligini ko'rsatadi.

Foton shu bilan birga to'lqin xossasiga ham egadir. Gyugens yorug'likning to'lqin nazariyasini isbot etdi. Har qanday to'lqinning aniq holatini ko'rsatib bo'limganidek, fotonning fazodagi aniq holatini ham ko'rsatib bo'lmaydi. Lekin foton to'lqindan ham farq qiladi, ya'ni u bo'laklarga bo'linmaydi. O'zida korpuskulyar va to'lqin xossalarini birlashtirgan foton zarracha ham emas, to'lqin ham emas. Unga *korpuskulyar-to'lqin dualizmi* xosdir.

Nils Bor 1913-yilda vodorod atomining tuzilish nazariyasini taklif etdi. U o‘z nazariyasini yaratishda atomning yadro modeliga asoslandi va o‘z nazariyasi asoslarini **postulatlar** holida ta’rifladi.

Keyinchalik atomlarda kvantlangan **orbitalar** doira shaklidagina emas, balki ellips shaklida ham bo‘lishi mumkin, orbitalar faqat tekislikka joylanibgina qolmay, fazoda turli vaziyatda bo‘lishi mumkinligi aniqlandi. Bu nazariya spektrlarda kuzatiladigan juda ko‘p hodisalarini to‘g‘ri tushuntirib berdi. Keyinchalik esa Bor-Zommerfeld nazariyasi to‘lqin-mexanik tasavvurlar bilan almashtirildi.

Mikroobyektlar ikki xil zarracha va to‘lqin xossasini namoyon qiladi, ya’ni ular bir vaqtning o‘zida ham korpuskulyar ham to‘lqin xossasiga ega bo‘ladi. Yorug‘likning to‘lqin xossasini uning **difraksiya** va **interferensiya** hodisalarida ko‘rishimiz mumkin. 1927 yilda Devisson va Djermer elektronlarda difraksiya hodisasi uchrashini eksperimental isbot etdilar.

Yorug‘lik difraksiyasi deb yorug‘lik nurlarining shaffof bo‘lmagan to‘siqlardan egilib o‘tishi yoki tirqishdan o‘tib tarqalish hodisasiga aytildi. Difraksiya so‘zi lotincha so‘z bo‘lib “difrasio”-“egilib o‘tish” ma’nosini bildiradi.

O‘zaro kogerent to‘lqinlarining bir-biri bilan qo‘silib yorug‘lik to‘lqinlarining fazoning turli nuqtalarida bir-birini kuchaytirish yoki susaytirish hodisasiga **yorug‘likning interferensiyasi** deyiladi. Yorug‘lik to‘lqinlari bir-birini kuchaytirishi uchun ular **kogerent** bo‘lishi kerak. Agar ikkala to‘lqin chastotalari teng bo‘lsa va bularning fazalari farqi o‘zgarmas (doimiy) bo‘lsa, bunday to‘lqinlar **kogerent to‘lqinlar** deyiladi.

Yorug‘likning qutblanishi deb uning magnit maydonida, elektr maydonida yoki plazmadan o‘tishi vaqtida sinib ajralishiga aytildi.

Shunday qilib, XX asrga kelib nur oqimi sifatida namoyon bo‘ladigan zarrachalar harakatini nur kvantlari yoki fotonlar deb aytish mumkin. Shunga ko‘ra nurning korpuskulyar xossasi

asosan Kompton effekti va Fotoeffekt hodisalarida namoyon bo'ldi.

Jismlar yorug'lik energiyasini yutganda bu energiyaning bir qismi elektr energiyasiga aylanishi mumkin, natijada jismlarda E.Y.U.K. yoki elektr toki hosil bo'ladi yoki jismlarning qarshiligi o'zgaradi. Bunday turdag'i barcha hodisalar fotoelektr effekt yoki **fotoeffekt hodisasi** deb ataladi. Demak, yorug'lik ta'sirida jismdan elektronlarning ajralib chiqish hodisasiga **fotoeffekt** deyiladi. Fotoeffekt hodisasi 1887-yilda **G.Gers** tomonidan o'rjanilgan, keyinchalik 1888-yilda **A.G.Stoletov** va ingliz fizigi **Galvaks** rivojlantirganlar, bu hodisa metallning yorug'lik nuri ta'sirida o'zidan elektronlar chiqarishga asoslandi. Bu hodisani nurning to'lqin nazariyasi asosida tushuntirib bo'lmaydi.

4.2-§. Massa bilan energiya ortasidagi bog'lanish

Zarracha harakatining tezligining ortishi uning energiyasi va massasining ortishiga olib keladi. Bunday energiya maxsus yadro kuchlari deb aytildi. **Eynshteyn** zarrachaning massasi bilan energiyasi orasidagi bog'lanishni quyidagi formula bilan ifodaladi.

$$E=mc^2$$

Bu yedra, m - zarrachaning massasi; c - yorug'lik tezligi = $3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$ ga teng.

Massa o'zgarishiga mutanosib ravishda energiya o'zgaradi. Massa va energiya o'zaro bir-biriga to'g'ri proporsional, energiya kamayganda, massa ham kamayadi, ortganda ortadi.

Massa materianing inertligini, energiya esa harakat o'chamini va ish bajara olish qobiliyatini belgilaydi. Agar atomlar yadrosining hosil bo'lishida massa sezilarli kamaysa, ko'p miqdorda energiya ajraladi.

Proton va neytronlar massasining aniq qiymatlari asosida hisoblab chiqarilgan yadrolar massalari bilan shu yadrolarning tajriba yo'li bilan topilgan massalari qiymatlari orasida farq kelib chiqadi. Masalan, 2 ta proton va 2 ta neytrondan tashkil topgan geliy yadrosining massasi quyidagicha hisoblab topiladi:

$$2 \cdot 1,00728 + 2 \cdot 1,00867 = 4,03190 \text{ u.b.}$$

Yadroning muhim tavsiflaridan biri unda **massa defekti** kuzatiladi. Ya'ni har qanday yadro tarkibidagi nuklonlar massalarining yig'indisi bilan tajribada topilgan atom massasi bilan o'zaro farq qiladi.

$$\Delta M(Z,A) = Z \cdot m_p + (A-Z)m_n - M_{ya}(Z,A)$$

Bu yerda m_p proton massasi, m_n – neytron massasi.

Massaning bu farqi nuklonlar orasidagi bog'lanish energiyasi hisobiga vujudga keladi.

Tajriba yo'li bilan topilgan geliy yadrosining massasi 4,0026 u.b. teng, ya'ni taxminan yuqoridagi qiymatdan 0,03 u.b. ga kamdir. Demak, yadro massasi uni tashkil qilgan hamma zarrachalarning massasi yig'indisidan kichik bo'lib chiqadi. Bu hodisa **massa defekti** deb nom olgan. Eynshteyn tenglamasiga muvofiq bu $3 \cdot 10^{-5} \cdot (3 \cdot 10^8)^2 = 2,7 \cdot 10^{12} \text{ J}$ ga teng.

Yadroning proton va neytronlaridan ajralib chiqadigan energiya qiymati yadroning bog'lanish energiyasi deb ataladi va yadroning barqarorligini xarakterlaydi, ya'ni energiya qanchalik ko'p ajralib chiqqan bo'lsa, yadro shunchalik barqaror bo'ladi.

4.3-§. Kompton effekti

Yorug'likning korpuskulyar xossalari Kompton effektida yorqin namoyon bo'ladi. Fotonlar erkin elektronlar bilan to'qnashganda fotonlarning chastotasi o'zgargan holda sochilishi kuzatiladi. Fotonlar bilan to'qnashgan elektronlar esa impuls va energiya oladi va natijada ular ma'lum yo'nalishda harakatlanadi. Bu holda energiya va impuls saqlanadi. Fotonlar elektronlar bilan to'qnashib o'zidan bir qism energiyani uzatadi. Natijada to'lqin uzunligi ortib, nurlanishning tarqalish yo'nalishi o'zgaradi, ya'ni sochilish sodir bo'ladi. Bu effektni 1923-yilda amerikalik fizik **Kompton** kashf etgan. U turli moddalarni rentgen nurlari bilan nurlantirish natijasida sochilgan nurning to'lqin uzunligi birinchi holatdagidan katta bo'lganligini aniqlagan (4.1 rasm).



4.1 rasm Kompton effektini tushuntirish sxemasi. A) Foton va elektronning harakat sxemasi. B) Elektron bergan va tarqatgan foton impulslarining vektor yig'indisi.

To'lqin uzunligining bunday o'zgarishi moddalarning tabiatiga va birinchi holatdagi to'lqin uzunligiga bog'liq bo'lmasdan, balki boshlang'ich nurlanish burchagi bilan sochilgan nurlanish yo'nalishi orasidagi burchakka bog'liqligi aniqlangan.

$$\Delta\lambda = 2K \sin^2 \Theta / 2$$

Bundagi K- Kompton doimiysi va $K=2,41 \cdot 10^{-12}$ m ga teng.

Shunday qilib, Kompton effekti deb, nurlanish (rentgen, γ -nurlanish) moddaning erkin elektronlarida sochilishi natijasida to'lqin uzunligining ortishiga aytildi.

4.4-§. De-Broyl to'lqinlari

Fotoeffekt va Kompton effektlari ko'rinaridan yorug'lik va rentgen nurlarining korpuskulyar tabiatga ega ekanligini ko'rsatdi.

E energiyaga ega bo'lgan foton Eynshteyn tenglamasiga muvofiq qandaydir massaga ega:

$$E = m c^2 \quad (4.1) \text{ va } E = h \cdot \frac{c}{\lambda} \quad (4.2)$$

(4.1) va (4.2) tenglamalaridan:

$$mc^2 = \frac{hc}{\lambda} \quad (4.3)$$

kelib chiqadi. Bu yerdan

$$\lambda mc = h, \lambda = \frac{h}{mc} \quad (4.4)$$

ni keltirib chiqaramiz.

Jismning massasini uning tezligiga ko'paytmasi jismning harakat miqdori yoki uning impulsi deb ataladi. Fotonning

impulsini P ($P = mc$) bilan belgilab, quyidagi tenglamani keltirib chiqaramiz.

$$\lambda = \frac{h}{P}$$

Bu tenglama foton ham to'lqin, ham korpuskulyar xossalarga egaligi asosida keltirib chiqarilganligini yana bir karra ta'kidlab o'tish lozim.

1924-yilda *Lui de-Broyl korpuskulyar-to'lqin* dualizmi faqat fotonlarga xos bo'lmasdan, har qanday boshqa zarrachalarga, jumladan, elektronlarga ham xos degan gipotezani ilgari surdi. De-Broyl fotonlar harakatining ikki yoqlama, ham to'lqin, ham korpuskula tabiatiga ega ekanligi haqidagi gipotezani har qanday zarracha harakati uchun ham qo'llash mumkin, degan xulosaga keldi.

$$\lambda = \frac{h}{P} = \frac{h}{mV} \quad (4.6)$$

bu yerda: m - zarracha massasi, V - tezlik. 4.6 tenglama **De-Broyl to'lqin uzunligi** deb ataladi. Bu xulosa keyinchalik Eynshteyn fikri, ya'ni elektronlarga ham difraksiya jarayoni kuzatilishi ma'lum bo'lishi bilan tasdiqlandi.

1927-yilda Devisson va Jemerlar elektronlar ustida tajribalar o'tkazib, Eynshteynning fikrini tasdiqlashdi. De Broyl tenglamasi o'zgarmas kinetik energiyaga va tezlikka ega bo'lgan mikrozarrachalar oqimining difraksiyalanish natijalarini aytib berish uchun juda qulay.

4.5-§. Kvant mexanikasi. Noaniqlik ifodasi. Shredinger tenglamasi

Atomlar energiyasning diskret ravishda sakrab o'zgarishini, elektron oqimining yorug'lik to'lqinlari kabi, moddalarning kristall panjaralari orqali o'tganda interferensiyaga uchrashini klassik fizika nuqtayi-nazaridan tushuntirib bo'lmaydi.

Bu savollarga javob berishda kvant mexanikasi qo'l keladi. Kvant mexanikasi yaratilishining sababi shundan iboratki, Nyuton korpuskulyar nuqtayi-nazardan, Gyuygens esa elastik muhitda

ko'ndalang to'lqinlarning tarqalishi deb qarab kelgan bo'lishiga qaramay, fotoeffekt, Kompton effekti, intenferensiya, difraksiya hodisalarini faqat korpuskulyar (Plank, Enshteyn), yoki faqat to'lqin gipotezasi (de Broyl-Shredinger nazariyasi) asosida tushuntirib bo'maydi.

Kvant mexanikasi yorug'lik va mikrozarrachalarning dualistik tabiatini birqalikda, baravariga to'liq ravishda hisobga olish asosida yaratildi. U elektronning ham to'lqin, ham zarracha sifatida namoyon bo'lishini tushuntiradi.

Elektronlarning to'lqin tabiatini ular oqimining difraksiyalanishida namoyon bo'ladi. O'z vaqtida difraksiyalanish hodisasidan Rentgen nurlarining to'lqin tabiatini isbotlash uchun foydalilanigan edi. Konsentrik halqalardan iborat bo'lgan difraksion manzaradan foydalaniib, difraksiyalanayotgan nurning to'lqin uzunligini Vulf-Bregglarning quyidagi formulasi asosida topish mumkin:

$$n\lambda = 2ds \sin \alpha \frac{\pi}{2}$$

$$\lambda = \frac{h}{\sqrt{2eE}} = \frac{h}{\sqrt{2m_e} \cdot e \sqrt{E}}$$

v o'miga $\sqrt{\frac{2eF}{M_e}}$ qo'ysak, bo'ladi.

$$\lambda = \sqrt{\frac{K}{eE}} deb yozish mumkin.$$

Elektron oqimi uchun Vulf-Bregglar formulasini tatbiq qilayotgan paytda to'lqin uzunligi λ sifatida nimani tushunish kerak? Kruks naychasida tezlashtirilayotgan elektronning kinetik energiyasi $\frac{m_e v^2}{2}$ ga, naychasida tezlashtirilayotgan elektronning kinetik energiyasi $m_e v^2/2$ ga, u esa o'z navbatida elektronni elektr maydonidan olgan energiyasi eE ga teng. Bu yerda e -elektronning zaryadi ($6.602 \cdot 10^{-19} \text{ KI}$), E - esa katod va anod orasidagi tezlashtiruvchi potensial (v). Anod tomoniga harakat qilib kelayotgan elektron uchun $m_e v^2 = 2eE$ bo'ladi. Bundan $v = \sqrt{\frac{2eE}{m_e}}$

kelib chiqadi.

De-Broyl formulasiga binoan $\lambda = h/p = h/mv$.

Demak, elektron harakatiga to^gri kelgan to^{lqin} uzunligi maydon kuchlanishligiga teskari proporsional bo^{lgan} kattalik ekan.

Bunda biz elektronning korpuskulyar tabiatini bilan bog^{liq} tezligi v , impulsi $p=mv$ va kinetik energiyasi $mv^2/2$ dan hamda to^{lqin} tabiatini bilan bog^{liq} bo^{lgan} to^{lqin} uzunligi (λ), chastotasi $v=E/h$ va tezligi v dan bab-barobar foydalanyapmiz. Lekin shu o'rinda tezlik to^grisida andak mulohaza yuritish o'rinnlidir. Agar elektronning to^{lqin} tabiatini e'tiborga oladigan bo^{lsak} u bilan bog^{liq} bo^{lgan} to^{lqin} uchala kattalik De Brogl to^{lqin} uzunligi λ_d , chastota v va fazoviy tezlik v_0 bilan tavsiflanadi. $\lambda_d = v_0$ (yorug'lik uchun bu bog^{lanish} $\lambda = v = C$ ko^{rinishiga} ega). Biz yuqorida λ_d va v o^{rtasidagi} bog^{lanishni} aniqladik: $\lambda_d = h/m v$. Shuningdek, chastota bilan fazoviy tezlik o^{rtasidagi} bog^{lanishni} aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ammo na chastota $-v$, na $-v$ ni tajriba yo^{li} bilan aniqlashning imkoniyati yo^q. Bundan tashqari, fazoviy tezlik cheksiz davomiylikka ega bo^{lgan} monoxromatik to^{lqinni} xususiyatlaydi. Elektron esa fazoviy cheklangan, korpuskulyar tavsifga ega bo^{lgan} obyekt bo^{lganligi} sababli, uni to^{lqin} paketidan va shu paketga xos bo^{lgan} turli to^{lqinlar} guruhining o^{rtacha} tezligi v_0 bilan tavsiflash mumkin. Monoxromatik to^{lqin} uchun $v_0 = v$. To^{lqin} paketidagi har bir monoxromatik to^{lqinning} o^{ziga} xos fazoning tezligi bor. To^{lqin} paketi uchun uning markazining tezligini ifodalovchi v_0 dan foydalanamiz. To^{lqin} paketi ba^{zi} hollarda sug deb ataladi va uning uchun $v_0 \neq v$ dir. Fazoviy tezlik to^{lqin} paketini tashkil qiluvchi har bir monoxromatik to^{lqin} uchun alohida qiymatga ega bo^{lganligidan} korpuskulyar tabiatni namoyon qilayotgan mikrozarracha – elektron uchun uning fizik ma^{nosi} noaniq va befoyda tushunchadir.

Xulosa shuki, to^{lqin} paketi paket markazining tezligiga teng va to^{lqinlar} guruhiiga xos bo^{lgan} tezlik v_0 bilan tavsiflanadi.

Biz endi mikrozarrachalrning hozirgacha o^{zaro} bevosita aloqasi va bog^{lanishi} bo^{lmagan} to^{lqin} va korpuskulyar tabiatini bir-biriga moslashtirish va muvofiqlashtirish, qolaversa

birlashtirish to‘grisida o‘ylab ko‘raylik. Ma’lumki, to‘lqinning ravshanligi uning amplitudasini kvadratiga to‘g‘ri proporsionaldir. Demak, Shredenger kiritgan to‘lqin funksiyasi ψ ni elektron to‘lqinining aplitudasi desak, o‘z navbatida ψ^2 ni elektron to‘lqinning ravshanligi deyishimiz mumkin. Ikkinci tomondan, elektronlar dastasining zichligi hajm birligidagi (1 sm^{-3}) elektronlar soniga teng. Kuchli elektron oqimi uchun ψ^2 ni 1 sm^{-3} hajmidagi elektronlar soniga teng deb hisoblashimiz mumkin. Agar elektronlarni difraksiyalovchi kristall kukun orqali bittalab, ketma-ket, alohida-alohida o‘tkazsak va tushgan joyini sintillanayotgan C ni ekranda o‘sha zahotiyoy belgilab borsak, qanday natijaga erishildi, degan qonuniy savol tug‘iladi. Elektron korpuskulami yoki to‘lqinmi? Agar elektron ham u, ham bu bo‘lsa, u qanday qilib bir vaqtning o‘zida ham korpuskula (tugal zarracha) va ham to‘lqin bo‘la oladi?

Bunday savolga asosli javob berish muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun biz quyidagi tajriba natijalaridan foydalanamiz. Agar alohida olingan har bir elektron haqiqatdan tugal to‘lqin bo‘lsa, u V kristalldan o‘tgandan so‘ng interfrensiyaga uchrab, ekranda unga tegishli bo‘lgan difraksion halqlar namoyon bo‘lishi va Kristall orqali o‘tkazilayotgan elektronlarning soni ortib borgan sari difraksion halqlarning quyuqligi ortib borishi kerak.

Bitta elektronga tegishli bo‘lgan ψ^2 elektronni ekranning qaysi sohasiga tushish ehtimolligini ifodalaydi. Bu ehtimolligi ekranda halqlar egallaydigan sohalar uchun katta halqlar orasidagi sohalar uchun eng kichik bo‘ladi. Demak ψ^2 o‘rganilayotgan zarrachani ekranning u yoki bu sohasiga tushish ehtimolligini ifodalaydi. ψ^2 ni bitta elektron uchun ehtimollik nuqtayi nazaridan talqin qilish Maks Bornga tegishlidir.

Mana shu yerda masalaga klassik fizika bilan kvant mixanikasi tomonidan yodashish natijalari o‘rtasidagi farq yorqin namoyon bo‘ladi. Klassik fizikada sababiyyat prinsipi mavjudligi tufayli tizimga ko‘rsatilayotgan tashqi ta’sir natijasida, unda bu ta’siriga mos ravishda o‘zgarish ro‘y beradi. Masalan, jismlarning

ma'lum bir trayektoriya bo'ylab harakat qilishi aynan shuning natijasidir. Plank konstantasi hal qiluvchi rol o'ynaganligi sababli mikrotizimlarning holati o'zgaradi. Sababiyat prinsipi kvant mexanikasida kuchga ega emas, shuning uchun ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisalarning ma'lum ehtimolligi to'g'risidagina so'z yuritishimiz mumkin. Masalan, s- yoki p- orbitaldagi elektronning mazkur momentda orbitalning berilgan sohasida bo'lishi ehtimolligini protsentlarda ifodalashi mumkin, xolos. Statsionar holatlар uchun ψ^2 , albatta, fazoviy koordinatalarning funksiyasi bo'ladi. Va atom yoki molekulada mazkur elektron uchun ma'lum yo'sinda taqsimlanadi. Mana shu taqsimlanish manzarasi atom yoki molekulyar orbital nomi bilan yuritiladi.

Mikroobyektlarning dualistik tabiatи bois ularni tavsiflovchi fizikaviy xossalarning kattaliklarini aniq ko'rsata olmasligimiz kvant mexanikasiga xos xoldir. Geyzenberg tomonidan buning asosi va xulosasi sifatida noaniqlik prinsipi, degan fundamental tushuncha ta'riflandi. Bu prinsipga binoan ba'zi kattaliklar yuqori aniqlik bilan o'lchansa, boshqalarini, aksincha, ma'lum noaniqlik bilan o'lchashga to'g'ri keladi. Masalan, $\lambda=h/p$ formulasida λ aniq o'lchangan bo'lsin. Bunday bo'lishi uchun impuls p ham aniq o'lchangan bo'lishi kerak, chunki h juda yuqori aniqlik bilan hisoblangan konstantadir. Difraksiya paketida impuls p va energiya $E=mv^2/2=p^2/2m$ larning qiymati aniq, lekin zarrachalarning koordinatalari noaniqlik bilan o'lchangan. Elektronlarning atomdagi holatlari ham noaniqlik prinsipi misol bo'la oladi. Biz elektron energiyasining diskret $E_1 E_2 E_3$ qiymatlari to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lgan holda uni atomning qayerida turgani to'grisida aniq ma'lumotga ega bo'la olmaymiz. Elektron maskur orbitalning turli sohalarida bo'la olishining ehtimolligi to'g'risidagi so'z yuritishimiz mumkin, xolos.

Yana bir misol sifatida, yassi chiziqlik qutblangan monoxromatik to'lqinni olaylik. Uning tezligi aniq qiymatga, o'zi esa cheksiz cho'zilganlikka ega. Agar yassi monoxromatik to'lqin bilan qisqa to'lqin paketini o'zaro taqqoslaysaydigan bo'lsak, birinchi to'lqin aniq tezlik ($\lambda=h/p=h/mv$) va cheksiz cho'zilganlikka (dX -

katta), ikkinchi to'lqin esa kichkina , aniq cho'zilganlikka (X-kichkina, dX-ham kichkina), lekin noaniq to'lqin uzunligiga ega. To'lqin paketi hosil bo'lishi uchun har xil (λ) to'lqin uzunliklariga ega bo'lgan monoxromatik to'lqinlar o'zaro superpozitsiyalanib ($d\lambda = h/d$ $p = h/m$ dv), noaniqlikka ega bo'lishadi. To'lqin paket uchun energiya ham, impuls ham noaniqdir:

$$E = \frac{mv^2}{2}; \Delta E = \frac{m(\Delta v)^2}{2} = \frac{m^2 \Delta v^2}{2m} = \frac{\Delta p^2}{2m}$$

To'lqin paketining fazoviy cho'ziqligi X qanchalik kichik bo'lsa, uni hosil qilish uchun λ si katta depazondagi to'lqinlar kerak, shu sababdan impulsning noaniqligi katta, dX juda kichkina bo'ladi. Chunki, tronning mazkur paket doirasida bo'lish ehtimolligini ifodalovchi ψ^2 nolga teng. Demak, elektronning koordinati yuqori aniqlik bilan belgilangan monoxromatik to'lqin uchun fazoviy cho'zilganlik $dX = \infty$, lekin zarrachaning impulsi aniq o'lchangan ($\lambda_0 = h/p_0 = h/mv_0$, $\lambda_0 = 0$, chunki $dv_0 = 0$).

Shunday qilib, biz yuqoridagi misollar va olingan natijalar asosida quyidagi xulosaga kelamiz. Zarrachaning koordinatlari naqadar yuqori aniqlik bilan o'lchangan bo'lsa, uning impulsi va demak, tezligi shunchalik noaniq bo'ladi (u to'lqin paketidir). Va, aksincha, zarrachaning holati naqadar katta noaniqlikka ega bo'lsa (monoxromatik to'lqin), uning impulsi va demak, tezligi shunchalik yuqori darajada aniq bo'ladi. Bu Geyzenbergning noaniqlik nisbatidir. Miqdoriy ko'rinishda bu xulosani quyidagicha ifodalasa bo'ladi:

$$\Delta x \cdot \Delta p = \frac{\hbar}{2\pi m} \text{ yoki } \Delta x \cdot \Delta p = \frac{\hbar}{2\pi}$$

Noaniqliklar ko'paytmasi h ga proporsional qiymatga teng.

Noaniqlik nisbatidan kelib chiqqan holda, ba'zi bir qo'shimcha fikrlarni aytib o'tamiz. Difraksiyani amalgalashirayotgan vaqtimizda katoddan chiqayotgan elektronning energiyasi, tezligi impulsi aniq o'lchangan kattaliklar bo'lib, lekin uning holati noaniqdir. Demak, bu holatda elektron monoxromatik yassi to'lqin sifatida ifodalanadi: ψ^2 - noaniq. Elektron ssinsinlanuvchi ekranga urilib ko'zimizga ko'ringan zahoti, uning holati aniq bo'ladi. Chunki, u tor to'lqin paketiga, ψ^2 esa aniq

kattalikka aylanadi. Elektron ekranga urilganda to'lqin funksiyasi ψ^2 ning bexosdan o'zgarishi, elektron to'lqin maydonining bizga ma'lum bo'lgan elektromagnit maydonlaridan o'ziga xos ravishda farq qilishini ko'rsatdi. Elektromagnit maydonlari bevosita kuzatilishi va o'lchanishi mumkin. Ular hech qachon to'satdan o'zgarmaydilar, o'lhash jarayoni esa ularga ta'sir qilmaydi. Elektronning to'lqin maydonini (u to'lqin funksiyasi deb atalidigan ψ^2 -funksiyasi orqali ifodalanadi) bevosita kuzatish mumkin emas. Fizikaviy nuqtayi nazardan ψ ehtimollikning amplitudasi sifatida qaralishi mumkin, chunki u elektronning tabiat bilan bog'liq bo'lib, uni o'rganishda, izohlashda, uning to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishda, masalan, kimyoviy bog'lanishni amalgalashini tushuntirish uchun bevosita katta ahamiyatga ega.

Atom fizikasidagi hech bir qonun ψ funksiyasini kiritmasdan ta'riflanishi mutlaqo mumkin emas.

Shredingerning to'lqin tenglamasi va uni turli tizimlarga qo'llash shart-shareitlari

Mikroobyektlar ishtirokida ro'y beradigan har xil hodisalarini izohlash uchun o'ziga xos mexanika yaratish lozim edi. Bunday mexanika XX asrda yaratildi va u kvant yoki to'lqin mexanikasi deb ataldi.

Mikroobyektlarda ro'y beradigan hodisalar klassik mexanikaning sababiyat prinsipi bo'ysunmaydi. Boshqacha aytganda, ularni o'rganish uchun Nyutonning harakat tenglamalaridan foydalanib bo'lmaydi. Mikroobyektlar xuddi rentgen nurlari kabi elektronning Kristal panjarada diflaksiyalanishi, harakat vaqtida u har xil atomlar bilan ta'sirlanishi tufayli faza siljishi natijasida ro'y beradi. Bu esa elektronning harakati to'lqinsimon ekanligidan darak beradi. Kristall orqali o'tayotgan elektronga trayektoriya tushunchasini tatbiq qilish mumkin emas. Trayektoriya bor joyda faza, difraksiya hodisalari bo'lmaydi, elektronlarning to'gri chiziq bo'ylab harakat qilishini kutish kerak.

Elektronlarning difraksiyalinishi (Devisson, Djermer, Tomson) mikroobyeektlarning harakati to'lqin xossasiga ega: rentgen nurlari misolida kuzatilgan difraksiya kabi hodisa, manzara ro'y berishi uchun har bir elektron kristal panjaraning alohida atomlardan sochilishi kerak. Buni trayektoriya tushunchasi bilan uyg'unlashtirib bo'lmaydi. Difraksiyalish hodisasi, elektronning harakati bilan qandaydir kattalikning fazasi bog'langan, degan xulosaga olib keladi. Elektronlarning to'lqin uzunligi ularning tezligi bilan de-Broyl formulasi orqali bog'langan : $\lambda = h/mv$. Mikroobyeektlar uchun λ shu darajada kichikki, u ularga nisbatan klassik mexanikani tatbiq qilishga to'siq bo'laolmaydi.

Atomlarning o'lchamlarini rentgen nurlarining difraksiyalishidan ($n\lambda = 2d \sin \alpha$) yoki kondensirlangan holdagi bir mol moddaning hajmi (molyar hajm)ni Avagadro soniga bo'lish yo'li bilan chamalesa bo'ladi. Ya'nini:

$$\frac{V_{mol}}{N_A} = \frac{N_A \cdot V_{mol/mol}}{N_A} = \frac{4}{3} \pi r_{carr}^3 = \sqrt[3]{\frac{3V_{mol}}{4\pi N_A}} = 0.5 \cdot 10^{-28} \text{ cm}^3$$

Vodorod atomiga xos λ ning atom radiusidan taxminan 6 marta, atom diametriga nisbatan esa 3 marta katta ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bundan elektronni atomdan 3 marta katta hajmda uchratish ehtimoli borligi kelib chiqadi. Bu esa trayektoriya to'g'risida gapirish asossiz ekanligini, elektronning to'lqin tabiatini aniq namoyon bo'layotganligini tasdiqlaydi. Agar optikada yorug'lik to'lqin uzunligiga teng bo'lgan sohada tarqalayotgan bo'lsa, elektronning to'lqin uzunligi atom diametridan 3 marta katta bo'lishi, uning uchun trayektoriya tushunchasini qo'llash noo'rin ekanligini ko'rsatadi.

Elektron to'lqin emas, balki zarrachadir. Chunki, elektron ekranga bittalab tushganda difraksion halqa emas, 1 ta nuqta paydo bo'ladi. Lekin, pirovard natijada, u difraksion halqlar ko'rinishida bo'ladi. Demak, mikrozarrachalar emas, ularning harakati to'lqin tabiatiga ega.

Odatda makrojismlar harakatini Nyuton tenglamalari to'la xarakterlay oladi. De Broyl tenglamasi mikroobyeektlar harakatining mexanikasini ochilishiga asos bo'ldi. 1925-yilda

nemis fizigi *V.Geyzenberg va E. Shredinger* bir-biridan bexabar holda mikrojismalar harakat mexanikasining ikki variantini taklif qildilar. Keyinchalik bu ikkisi ham to'g'ri deb topildi. Mikrobyektlar harakati Shredingerning to'lqin tenglamasi bilan xarakterlanadi. Bu usul hisoblashga juda qulay bo'lib qoldi. Mikrobyektlar mexanikasi kvant mexanikasi nomi bilan atala boshlandi. Shredinger tenglamasi ikkinchi tartibli differensial tenglama bo'lib, atom molekulyar ta'limotni o'rganishda qo'llaniladi. Undagi mustaqil o'zgaruvchilar koordinatalar va vaqtidir.

Nur energiyasi intensivligi to'lqin amplitudasining kvadratining absolyut qiymatiga to'g'ri proporsional. Bitta zarracha uchun Shredinger tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\left(\frac{d^2\Psi}{dx^2} + \frac{d^2\Psi}{dy^2} + \frac{d^2\Psi}{dz^2} \right) + \frac{8\pi^2 m}{h^2} (E - U) \Psi = 0 \quad (4.7)$$

bu yerda: h- plank doimiysi;

Ψ - to'lqin funksiyasi;

m-elektron massasi;

$\frac{d^2}{dx^2} + \frac{d^2}{dy^2} + \frac{d^2}{dz^2}$ to'lqin funksiyaning (x,y,z) lar bo'yicha olingan ikkilamchi hosilalarning yig'indisi;

E- elektronning to'liq energiyasi;

U-elektronning potensial energiyasi.

$$\frac{d^2\phi}{dt^2} = c^2 \left(\frac{d^2\phi}{dx^2} + \frac{d^2\phi}{dy^2} + \frac{d^2\phi}{dz^2} \right) = c^2 \left(\frac{d^2}{dx^2} + \frac{d^2}{dy^2} + \frac{d^2}{dz^2} \right) \phi = c^2 \nabla^2 \phi = c^2 \Delta \phi$$

Vodorod atomining asosiy turg'un holati uchun Shredinger tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi. Vodorod atomining potensial energiyasi $U = -e^2 / 4\pi\epsilon_0 r$ bo'ladi. Natijada vodorod atomi uchun Shredinger tenglamasi:

$$\left(\frac{d^2\Psi}{dx^2} + \frac{d^2\Psi}{dy^2} + \frac{d^2\Psi}{dz^2} \right) + \frac{2m}{h^2} \left(E + \frac{e^2}{4\pi\epsilon_0 r} \right) \Psi = 0 \quad (4.8)$$

4.8. ko'rinishda bo'ladi.

Qisqacha qilib, Shredinger tenglamasini quyidagicha ham ifodalash mumkin:

$$\left[\frac{\hbar^2}{2m} \nabla^2 - \frac{Ze^2}{r} \right] \psi = E \psi$$

Shredinger tenglamasining yechimlarini o'rganish juda muhim xulosalarga olib keladi. Elektronning atomdag'i holatini ifodalaydigan barcha kattaliklar kvantlangan holda o'zgaradi. Bunday diskretlik faqat mayda zarrachalar dunyosi uchun xos. Ikkinchidan, to'lqin funksiyalarini hisoblash murakkab bo'lishiga qaramay uning natijalari qimmatlidir. To'lqin funksiyasi ko'rsatishicha elektronning atomda bo'lish ehtimolligi yadrodan uzoqlashgan sari kamayib boradi. To'lqin funksiyasi ma'lum bo'lsa, elektron bo'lishi mumkin bo'lgan sohaning shaklini grafik tarzda ifodalash mumkin. Buning uchun Shredinger tenglamasidan foydalanib, energiyaning turli qiymatlari uchun ehtimollik hisoblab topiladi va shunga asoslanib elektron ko'proq bo'lgan sohaning shakli topiladi.

Shredinger tenglamasini faqat vodorod atomi uchun aniq yechishga muvaffaq bo'lingan xolos. Bu tenglamani ikki yoki undan ortiq sistemalar – molekulalar uchun yechish qiyinroqdir.

Xulosa. Korpuskulyar zarrachalar ham yorug'lik kvantlari (fotonlar) kabi to'lqinsimon harakat qiladi. Ular o'z xossalari bilan zarrachalardir. Difraksiya yoki ular bilan bog'liq biror boshqa tajribalar vaqtida mikrozarrachalarning na massasi, na zaryadi bo'linmaydi, aksincha, doimo bir butunligicha, yaxlitligicha saqlanadi. Difraksiya hodisasi va manzarasi (natijasi) bilan trayektoriya tushunchasini moslashtirish, kelishtirish mutlaqo mumkin emas. Elektron aslida trayektoriyaga egaku, lekin biz fizika fani rivojlanishining hozirgi bosqichida uni aniqlash imkoniyatiga ega emasmiz. Fizika fani yanada rivojlanishga erishgach elektronning trayektoriyasi aniqlanadi, deyish flagiston yoki geosentrik nazariyalarga qaytishni umid qilish bilan barobar. Elektron uchun trayektoriya tushunchasini tatbiq qilib bo'lmas ekan, u to'g'risida o'yash asossiz fikrdir. Difraksion manzara statistik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Kristalldan yakkalab o'tkazilgan ko'p sonli va har xil tezlikka ega elektronlar, pirovardida, ularning yaxlit oqimiga mos manzarani

qaytaradi. Vaholanki, har bir elektron bilan mustaqil ravishda birma- bir o'tkazilgan tajribalar o'zaro mutlaqo bog'liq emas edilar. Bunday natijaning sababi mikroobyektlarning dualistik tabiatidir. O'tkazilgan bunday ko'p sonli tajribalarning statistika qonuniyatlariga bo'y sunishi qayta-qayta tasdiqlangan.

Savollar:

1. Yorug'lik – foton qanday tabiatga ega?
2. Nurning interferensiyasi va difraksiyasi nima?
3. Massa defekti deb nimaga aytildi?
4. Kompton effekti nimani tushuntiradi?
5. Fotoeffektning asosiy qonunlarini ayting. Fotoeffektning qizil chegarasi nima?
6. Mikroobyektlar harakati qanday tenglama bilan ifodalanadi?

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Зайдель А.Н., Островская Г.В., Островский Ю.И. Техника и практика спектроскопии. М., 1972
2. Джеммер М. Эволюция понятий квантовой механики. М., 1985
3. Ельяшевич М.А. Атом; Атомная физика; Атомные спектры. Физическая энциклопедия, т. 1. М., 1988
4. Ельяшевич М.А. Спектроскопия. Физический энциклопедический словарь. М., 1995.
5. Минкин В.И., Симкин Б.Я., Миняев Р.М. "Теория строения молекул", учебное пособие. Ростов-Дон: Феникс, 1997, 407 с.
6. Татевский В.М. "Строение и физикохимические свойства молекул и веществ." М.: Изд-во МГУ, 1994, 463 с.
7. Юльчибоев А.А. «Модда тузилиши» курсидан маърузалар матни.-Тошкент: УзМУ, 1999, 66 б.
8. Полинг Л. Общая химия, М.: Мир, 1974, (амер. изд. 1970) 846 с.
9. Iskandarov S, Sodiqov B. Organik kimyo nazariy asoslari. Toshkent. 1987.640 b.
10. <http://www.wikipediya.ru>.
11. <http://www.krugosvet.ru>

V BOB. MODDALARNING AGREGAT HOLATLARI. MODDALARNING PLAZMA HOLATI

5.1-§. Moddalarning qattiq, suyuq, gaz holatlari

Moddalar 4 xil agregat holatda bo'ladi. Qattiq, suyuq, gaz (bug') va plazma. Qattiq moddalar 2 xil ko'rinishda bo'ladi. Kristall va amorf. Bu moddalarning o'ziga xos xususiyati bo'ladi. Kristall moddalar ma'lum yo'nalishda bir-biriga yopishgan, ulangan bo'lib ular shunday joyidan sinib tekis yoqli bo'laklarga ajraladi (5.1rasm.).



5.1.rasm. Kristallarning ko'rinishi.

Kristall moddalarda anizotroplik hodisasi uchraydi. Har qanday kristall modda o'ziga xos suyuqlanish haroratida suyuq holatga o'tadi.

Amorf moddalar singanda bo'laklarning sirti past-baland bo'ladi va hamma yo'nalishda sinadi, sinish yo'llari tekis bo'lmaydi. Amorf moddalar izotropdir.

Amorf moddalar aniq bir temperaturada suyuqlanmaydi, u qizdirilganda oldin yumshaydi, keyin suyuq holatga o'tadi.

Suyuqliklar ma'lum hajmga ega, lekin shaklga ega emas. Ular xossalari jihatidan ham gazlarga ham qattiq moddalarga o'xshaydi.

Gaz holatidagi har qanday moddaning zarrachalari bir-biri bilan bo'sh bog'langan bo'lib, gaz solingan idish ichida erkin harakat qiladi.

5.2-§. Moddalarning plazma holati va plazma xillari


Plazma gazlarni qattiq qizdirish natijasida ularning atomlari elektronlarni tamoman yo'qotadi va musbat zaraqlangan ionlar va ma'lum erkinlikka ega bo'lgan elektronlar hosil bo'ladi. Yuqori haroratda, yani million gradusda yengil elementlardan iborat gazlar ionlashadi va o'zining barcha elektronlarini yo'qotadi. Gazlaning ionlashgan holati plazma deb nomlanadi. Demak, plazma to'liq yoki qisman ionlashgan gaz, u zaryadlangan zarracha va neytral atom yoki molekuladan hosil bo'lgan. Plazmaning asosiy xususiyati uning kvazineytralligidir. Ya'ni musbat va manfiy zaryadlangan zarrachalarining hajmiy zichligi deyarli bir xil. Gazlarning atomlaridagi elektronlari qandaydir sabablarga ko'ra musbat ionlarga o'tganda gaz moddalar plazma holatga o'tadi. Gaz va plazma orasida juda katta farq yo'q. Har bir modda oldin qattiq holatda bo'lib, harorat ortganda suyuqlanadi, so'ngra bug'lanib kritik temperaturadan yuqorida gaz holatga o'tadi. Harorat yana oshirilsa, gaz molekulalari alohida atomlarga parchalanadi, ular ionlashgan holatga o'tib, musbat ionlar va erkin elektronlar hosil qiladi. Bu ionlar va erkin elektronlar elektr tokini o'tkazadi, demak plazma bu elektr tokini oson o'tkazuvchan gazdir. Plazmalarda erkin elektronlar borligi uchun ular elektrni juda yaxshi o'tkazadi. Masalan, vodorod (H_2) plazmasining 10^8 kelvindagi elektr o'tkazuvchan (EO) ligi misning xona haroratidagi EO -ligi bilan teng. Plazmalarning issiqlik o'tkazuvchanligi ham yuqori. Plazmaning xossalari neytral gazlarning xossalardan keskin farq qiladi. Plazma moddaning 4

agregat holati bo'lib, u o'zini gaz kabi tutadi va gaz qonunlariga bo'ysunadi. 1879-yilda angliyalik fizik *V.Kruks* tajribalar o'tkazib, materiya 4 holatda ham bo'ladi, deb aytib o'tgan, "Plazma" terminini (kvazineytral ionlashgan gaz) 1923-yilda amerikalik fiziklar *Lengmyur va Tonks* fanga kirdildilar. Plazmani hosil qilish uchun moddani faqat qizdirish emas, ya'ni termik usulda ionlashgan plazmani olish uchun gazni 10 yoki 100 ming kelvingacha qizdirish kerak. Yoki elektr gaz razryadidan foydalanish kerak. Oraliqda zaryadlangan zarrachalar elektr maydonda tok hosil qiladi. Tokni saqlab turish uchun manfiy elektrod, ya'ni katod plazmaga elektronlar berishi kerak.

Yerda harorat past bo'lgani uchun plazma deyarli uchramaydi, faqat atmosferaning past qismida, ya'ni chaqmoq bo'lgan paytida hosil bo'ladi. Atmosferaning yuqori qismida 100 km balandda ionosfera deb ataladigan qobiqda ionlashgan plazmalar bor, ular quyoshdan ajraladigan ultrabinafsha nurlanishdan hosil bo'ladi. Osmonda barcha moddalar 99,9% plazmadan iborat. Quyosh va yulduzlar plazmadan tashkil topgan. Quyoshning ichki qismida termoyadroviy sintez reaksiyaları sodir bo'ladi va harorat 16 mln gradusgacha bo'ladi.

5.3-§. Termoyadroviy reaksiyalar

Termoyadroviy sintez – bu juda katta haroratda yengil atom yadrosining kattaroq yadro larga aylanishi va katta miqdorda energiya ajralishi bilan boradigan reaksiyadir. Bu reaksiya atomlarning qaytar bo'linish jarayoni, ya'ni energiya og'ir atomlarning bo'linib, yengil atom yadrolariga bo'linishi natijasida hosil bo'ladi. Bunday haroratda yadrolarning kinetik energiyasi ular orasidagi elektrostatik itarilish kuchlarini yengishga yetarli bo'ladi. Bunday reaksiyalar termoyadroviy reaksiyalar deb yuritiladi. Birinchi termoyadro reaksiyasi vodorod bombasida amalga oshirilgan:









Astofiziklarning tasavvurlariga ko'ra, asosiy energiya manbayi quyosh va yulduzlarda termoyadroviy sintez reaksiyalarning sodir bo'lishi natijasida hosil bo'ladi.

Zamonaviy atom elektrostansiyalari (AES) insonlarning elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojini kamgina qismini qondiradi. Shu kunda dunyoning 16 ta mamlakatida 100 dan ortiq AES lar ishlab turibdi. Ularning umumiy elektr quvvati $4 \cdot 10^7$ kWt dan ortiq. Atom stansiyalarining asosiy yoqilg'i mahsuloti – bu tabiiy radioaktiv elementlar: uran va toriy hisoblanadi. Lekin ular tabiatda juda kam.

Termoyadroviy sintezda yoqilg'i sifatida hozirda vodorod izotopi bo'lgan deyteriy ham qo'llaniladi, u dengiz suvidan olinadi. J.Kokroft va E.Uolton 1932-yilda Kavendish (Velikobritaniyaning – Kembridj shahrida) laboratoriyasida bir qancha eksperimentlar o'tkazishgan. 1939-yilda Amerikalik fizik X.Beje Quyosh va yulduzlar energiyasining manbalaridan biri ular tarkibiga kiruvchi vodoroddan geliy hosil bo'lishi mumkin, degan gipotezani ilgari surdi. Shundan so'ng, yengil element yadrolaridan foydalanishgan. Quyida bir qancha termoyadroviy sintez reaksiyalari keltirilgan:

TERMOYADROVIY SINTEZ REAKSIYALARI:




Har bir reaksiyadan ajraladigan energiya million elektr voltlarda (MeV) berilgan. 1Mev kinetik energiyada protonning tezligi 14500km/s ga teng. Demak yer yuzida termoyadroviy sintez reaksiyalari 100 mln kelvin haroratda va faqat maxsus laboratoriyalarda olib boriladi. Yaqin kelajakda asosiy energiya manbai termoyadro reaksiyalarning energiyasi bo'lib qolishi mumkin.

5.4-§. Suyuq kristallar

Suyuq kristallar ikki xil xususiyatni namoyon qiladi, ular suyuqliklarga o'xshab oquvchan bo'lsa, ikkinchi xil xususiyati ular kristallar kabi anizotropdir. Strukturasi bo'yicha suyuq kristallar (SK) suyuq jelega o'xhash, molekulasi cho'zilgan formada bo'ladi, xarakterli xususiyati suyuq kristallarning molekulasi elektr maydon ta'sirida o'zining oriyentatsiyasini o'zgartiradi.

1888-yilda Avstriyalik botanik *F. Reynitser* suyuq kristallarni kashf etgan. U xolestirilbenzoat va xolesterilasetatda 2 ta suyuqlanish nuqtasi borligi va 2 xil tiniq va bulg'angan ko'rinishda bo'lishini aniqlagan.



Bu eftirning suyuqlanishi 2 bosqichda boradi: dastlab g'uborli suyuqlanma hosil bo'ladi, harorat ko'tarilganda (145°C dan 179°C gacha) rangsiz suyuqlikka o'tadi. Ushbu SK qizdirilganida uning rangi qizildan ko'kgacha, sovutilganida rangi teskari tartibda o'zgarishi aniqlangan. Shuningdek, uning kristall holatdan suyuq holatga o'tishida oraliq optik anizotrop xossalarga ega (yorug'likni kuchli sochuvchi) shakl hosil qilishi topilgan. O'tish oralig'i 34°C ni tashkil etadi. Keyinchalik (1963y) IQ-spektr usulida yupqa SK spektri olingan. Uzoq yillar davomida kimyogarlar va fiziklar suyuq kristallarni tan olishmadı. Suyuq kristallarni birlari kolloid moddalarga, boshqalar esa emulsiyalarga mansub deyishardi. Ko'p yillik ilmiy tadqiqotlari natijasida Karlsrue universiteti professori **Otto Leman** 1904-yilda o'zining "Suyuq kristallar" nomli kitobini yozgandan keyin, SK ilmiy tomondan tan olindi. 1963-yilda amerikalik *Djorj Feryusson* SK harorat ta'sirida o'zining rangini o'zgartirishini aniqladi va Patentini oldi. 1965-yilda AQSH da Suyuq kristallarga


bag'ishlangan birinchi xalqaro konferensiya o'tkazildi. 1968-yilda amerikalik olimlar suyuq kristallarlar asosida yangi indikatorlar yaratishdi. Uning prinsipi SK molekulasi aylanib elektr maydonda yorug'likni har xil o'tkazishi va ko'rsatishiga asoslangan edi. O'tkazgichlar ekranga ulanganda kuchlanish ta'sirida mikroskopik nuqtalardan iborat tasvir paydo bo'lган. 1973-yilda angliya kimyogarlari *Dj Grey* boshchiligidagi arzon xom ashyolardan Suyuq kristallarni sintez qilishdi. SK o'zining xossasiga qarab 2 guruhga bo'linadi; Liotrop va Termotrop.

Liotrop suyuq kristallar 2 yoki ko'proq komponentlardan iborat sistema bo'lib, maxsus molekula va suvdan (yoki qutbli erituvchidan) iborat aralashma. Molekulasi ikki uchli bo'lib, uning ko'p qismi gidrofob uglevodorod zanjiridan iborat bo'lsa, 2-uchi qutbli guruhlardan tuzilgan va ular amfifilalar deb nomlanadi (grekcha «amfi»- «ikki uchli», «filos»- «sevuvchi» degan ma'noni anglatadi). Ularga fosfolipidlar misol bo'ladi. Amfifilalar suvda yomon eriydi, past haroratda 2 jinsli sistema hosil qiladi.

Termotrop suyuq kristallar (SK) qattiq moddalarni qizdirish natijasida hosil bo'lib, aniq harorat va bosimda mavjud bo'ladi.


Ular 3 sinfga bo'linadi.

1. Nematik suyuq kristallar - N-(para-metoksibenziliden)-para-propilanilin.




Termotrop SK guruhiga kiruvchi nematik SKda qavatl tuzilish va molekula og'irlilik markazining uzoq tartibi mavjud emas. Ular suyuqliklarga o'xshaydi.

2. Smektik. Tereftal-bis(para-butylanilin).




3. Xolesterik. Amil-para-(4-sianobenzilidenamino)-sinnamat.





5.2.-a. rasm. Suyuq kristallning ko‘rinishi.




5.2.b. rasm.Nematic suyuq kristallning ko‘rinishi

Smektik SK uchun ikki o‘lchamli tartiblanganlik xos. Molekulalar o‘qlari parallel holatda joylashadi. Qatorlari smekatik tekisliklarda, eni esa nematik bo‘ladi. Ular uzoq muddatli xotiraga ega bo‘ladi. Bunday kristallga tasvir chizib, uzoq saqlash mumkin. Bu televizor va displeylar uchun qulay emas. Ulardan bosim indikatorlari sifatida foydalanish imkonи bor. Nematic kristalda tartiblanganlik smekatikka nisbatan past. Bir tomonlama tartiblangan, tashqi ta’sirga reaksiyasi tez bo‘lib, xotirasi kam. “Xolesterik suyuq kristallar” vakili xolesterindir. Xolesterin va uning analoglari molekulasi nematik tekisliklarda joylashadi. Sovunning suvdagi eritmasi juda murakkab suyuq kristall tuzilishlar, masalan, qatlamlı, disksimon va sharsimon tuzilishlar hosil qilishi mumkin. Kristall suyuqlikning katta hajmlarida domenlar hosil bo‘ladi, ularning fizik xossalari kristallarnikiga o‘xshashdir. Lekin ular odiy suyuqliklar kabi xossalarga ham ega. SKlarning domen tuzilishi segnetoelektrik va ferromagnetiklarniki kabi qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Pardalarning qalinligi suyuqlik molekulalari o‘zaro ta’siri radiusi bilan solishtiriladigan darajada

bo'ladı. SKning bunday ta'sirlari va shakl hosil qilish xossalardan foydalaniб zamonaviy elektron qurisimlar yasaladi.


Suyuq kristallarlar yuqori optik xususiyatiga ega. Ular termografiyada tranzistorlar, integral sxemalar uchun eng ko'п qo'llanildi.




5.3. rasm. Suyuq kristallarning kattalashtirilgan ko'rinishlari.

Ma'lumki suyuqlikda molekulalar erkin aylanadi va ixtiyoriy yo'nalishda ko'chib yuradi.

Hozirda yuz minglab organik SKlar ma'lum. Ular turli shakkarda bo'lishi mumkin. Sterjensimon (kalamitiklar), disklar, plastinalar va b. SK molekulalari *mezogen* deb ham ataladi. *Sterjensimon* mezogenlar:




Xolesterilbenzoat va xolesterilatsetat ham shularga kiradi.
Disksimon mezogenlar:



R= Alk-, Alk-O-, Alk-COO-, Alk-C₆H₅-COO-

Pardasimon (plenkasimon) mezogenlar:



Mezogen guruuhlar qatoriga turli kimyoviy guruuhlar vositasida bog'langan benzol halqalari (-CH=CH-, -CH=N-, -NH-CO va b.) kiradi. SK birikmalar molekulasi asimmetrik shakldagi molekulaga ega, bu esa anizotrop qutblanuvchanlikka sabab bo'ladi, natijada molekulalar parallel joylashadi.

SK molekulalarining joylanishi temperatura, bosim, elektr va magnit maydoni ta'sirida o'zgaradi. Bu esa optik (rang, shaffoflik, qutblangan nur tekisligini burish) xossalaringin o'zgarishiga olib keladi. Xolesterik-nematik SKlarda qutblangan nur tekisligini burish xossasi juda kuchli ifodalanadi. Ushbu xossalalar SKlarning ishlatalishi asosida yotadi. Masalan, rangning temperaturaga bog'liqligi tibbiyotda diagnostika maqsadlarida ishlataladi. Jihozlarning sisatini ularni parchalamagan holda, temperatura - rang o'zgarishi bog'liqligi bilan nazorat qilish mumkin. Metall buyum qizdirilganda uning ichki defekti yuzasidagi temperatura taqsimotini o'zgartiradi. Bu defektlar uning sirtiga surtilgan SK rangining o'zgarishi bilan aniqlanadi.

Meditsinada suyuq kristallar yordamida inson uchun xavfli bo'lган shishlarni (rak), yashirin shamollash borligini tez aniqlashda, bosimni o'lichash jihozlari va ultratovush detektorlari tayyorlash uchun ham qo'llaniladi. Ammo eng keng qo'llanilish sohasi bu informatsion texnikadir, ya'ni elektron soatlardan boshlab, kichik hajmli Suyuq kristalli (jidkokristall) rangli televizorlar tayyorlash hisoblanadi. Bu televizorlar kichik bo'lishiga qaramasdan, tasvirni sisatli ko'rsatib, juda kam energiya talab qiladi. Plastmassa yoki shisha qavatlari orasiga joylashgan SK yupqa pardalari indikator jihozlarida keng ishlataladi (tanlangan pardanining turli qismrlarga past

kuchlanishdag'i elektr maydoni ta'sir qilib, ko'z bilan ko'radigan shakllar hosil qilish mumkin). SK matritsalar asosida uglerod va polimer tolalar olingan. SK - tsiferblat bo'lib, soat, daqiqa, soniya va uning bo'laklarini hisoblaydi. SK-indikatorlar zamonaviy hisoblagichlar, "Notebook"lar, televizorlarning tekis ekranlari, lug'at-tarjimonlar, peydjerlar va boshqa zamonaviy elektron texnika va xizmat ko'rsatish asbob va uskunalarini demakdir. SK indikatorlar va displaylarning dunyo miqyosidagi ishlab chiqarilish soni milliardlar bilan sanaladi. Fan va texnikaning rivojini hozirda SK sohasidagi ishlanishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. SK biologiya va hayot jarayonlarida ham muhim. Hujayra membranalari va DNKning ishlashi, nerv impulslarining uzatilishi, mushaklar ishi SK fazasida sodir bo'ladi, ular o'z-o'zini tashkil etish va yuqori darajada molekulyar harakatchanlik xossalariiga ega. Tabiiy va sintetik obyektlarni qamrab olgan SKlar zamonaviy kimyo, fizika, biologiya, texnika mutaxassislarining qiziqish sohalariga kiradi.

5.5-§. Ionlanish energiyasi va elektronga moyillik. Nisbiy elektromanfiylik

Kimyoviy jarayonlarda atomdagi elektronlarning orbitallarda qanchalik mustahkam joylashganligi katta rol o'yndaydi. Buning uchun atomlarning ionlanish energiyasi tushunchasidan foydalanadilar.

Ionlanish energiyasi deb bir mol atomdan cheksiz uzoq masofaga elektronni ajratib (urib) olish uchun bajaradigan ish. Bu molekulaga ham taalluqlidir. Atom va molekula ionlanishi uchun albatta energiya sarf qilish kerak. Ionlanish potensiali – erkin elektronga atomdan elektronni siqib chiqarish uchun yetarli energiya bilan ta'minlaydigan potensiallar farqining minimal qiymati. Ionlanish potensiali elektronvoltlarda (eV) belgilanadi, bu energiya ko'pincha ionlanish potensiali (IP) deb ham yuritiladi.

Masalan, Na ning ionlanish potensiali $I=5,14\text{eV}$ bo'lsa, uning ionlanish energiyasini aniqlang. $1\text{eV} = 1,602 \cdot 10^{-19}\text{kJ/mol}$ bo'lsa,

Na ning ionlanish energiyasi $I=5,14 \cdot 1,602 \cdot 10^{-19} \cdot 6,02 \cdot 10^{23} = 495 \text{ kJ}$ bo'ladi.

Ko'p elektronga ega bo'lgan atomning bir nechta ionlanish potensiali mavjud. Masalan, Li uchun $I_1 = 5,3 \text{ eV}$, $I_2 = 75,64 \text{ eV}$, $I_3 = 122,42 \text{ eV}$. Har doim $I_1 < I_2 < I_3 < I_n$ bo'ladi.

Vodorod atomining ionlanish energiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi. $I = (m \cdot e^4 / h^2)$;

bu yerda; m- elektronning massasi, g;

e- elektronning zaryadi;

h- Plank doimiysi.

Formuladagi qiymatlarni o'rniga qo'yib hisoblash natijasida $J = 13,6 \text{ eV}$ ga ega ekanligi hisoblab topilgan. Ko'p elektronga ega bo'lgan atomning ionlanish potensialini hisoblash uchun:

$$I = 13,6 Z^{*2} / n^{*2}$$

formuladan foydalani ladi. Bu yerda: Z^{*2} - yadroning effektiv zaryadi, n^{*2} - effektiv kvant son.

Elementning ionlanish potensiali qancha kichik bo'lsa, shu element kuchli metallik xossaga ega bo'ladi. Davrda chapdan o'ngga qarab elementning ionlanish potensiali ortib boradi. Masalan Li IP 5,3 eV bo'lsa F ning IP 17,42 eV ga teng. Guruhda esa yuqorida pastga qarab kamayadi.

Element atomi bir elektronni biriktirib olganda ajralib chiqadigan energiya miqdoriga **elektronga moyillik** deyiladi. Elementning elektronga moyilliigi (EM) qancha katta bo'lsa, shu element kuchli metalmas xossaga ega bo'ladi (5.1-jadv).

5.1.-jadval

Elementlarning elektronga moyilligi

Atom	E, eV	Atom	E, eV	Atom	E, eV
C	1,27	Na	0,34	S	2,08
N	-0,21	Mg	-0,22	Cl	3,61
O	1,47	Al	0,5	Br	3,37
F	3,45	Si	1,84	I	3,08
Ne	-0,22	P	0,8	Se	2,02

Davrda chapdan o'ngga qarab elementning elektroniga moyilligi ortib boradi. Guruhda yuqorida pastga tomon kamayib boradi.

Elektromanfiylik (EM) – biror bir element atomining boshqa element atomlarining elektron bulutini o'ziga tomon tortish xususiyatiga aytildi. Bu tushuncha fanga Poling va Malliken tomonidan 1928-yilda kiritilgan bo'lib, u kimyoviy bog'lanishni o'r ganayotgan paytda bog'larning kovalent, qutbli yoki ionli bo'lishi, shu jumladan, ionlik darajasini tavsiflashda ancha qulaylik tug'diradi. Polingning fikricha, molekulada elementning elektromanfiyligi, uning atomi tomonidan elektronlarni o'z yaqinida ushlab turish qobiliyati, ushlab turishga intilish kuchidir.

Poling elektromanfiylikni topishning quydagi usulini taklif qildi. Tajribadan ma'lumki, biror murakkab birikmaning dissotsilanish energiyasi, uni hosil qiluvchi oddiy modda molekulalarining dissotsilanish energiyasining yarim yig'indisidan kattaroq bo'ladi. Buning sababi turli tabiatli atomlar o'rtasida elektronlarning delokallanishi tufayli ion holatlarining ham namoyon bo'la olishidir. Masalan, xlorning dissotsilanish energiyasi 239,7 kj/mol, florniki 154,8 kj/mol ga teng. Ayni vaqtida fтор – xlor molekulasining dissotsilanish energiyasi 248,9 kj/mol ga teng. Bu natijalardan gomoyadrola molekulalarga nisbatan ulardan hosil bo'lgan geteroyadrola molekulalar mustahkamroq ekanligi kelib chiqadi. Yana bir misol keltiramiz: $E_d(H-H)=104,18 \cdot 4,18 = 435,47 \text{ kj/mol}$ $E_d(H-F)/134,3 \cdot 4,18 = 561,37 \text{ kj/mol}$ $E_d(F_2)/=38,76 \cdot 4,18 = 162,01 \text{ kj/mol}$ $\Delta E_d(A-B) - [E_d(A-A) + E_d(B-B)]/2$ deb belgilsak, E_d noldan katta chiqadi.

Muayyan birikmalar uchun elementlarning nisbiy elektromanfiyliklari farqi $\Delta\chi = 0,102 \sqrt{\Delta}$ ga teng quydagi 5.2 - jadvalda bazi kimyoviy bog'lar uchun $0,102\sqrt{\Delta}$ ifodasining qiymatlari keltirilgan:

5.2.-jadval

Kimyoiy bog'	Si-H	Br-H	C-O	As-Cl	S-Cl	F-Cl	Br-J
Δ	8,78	52,5	96,9	99,5	22,1	65,6	7,1
$0,102\sqrt{\Delta}$	0,30	0,74	1,00	1,01	0,58	0,82	0,27
NEM farqi	0,3	0,7	1,0	1,0	0,5	0,9	0,3

NEM farqi $0,102\sqrt{\Delta}$ ning ortib borishi bog'ning ionlik darajasini ortib borishi bilan simbat ravishda bog'langan. Masalan, $(Cs)=0,75$, $(F)=3,9$ Cs - F bog'ining ionlik darajasi eng yuqori bo'lib, deyarli birga teng.

NEM ni topishning Malliken talklif qilgan usuliga binoan, element atomidan eng birinchi tashqi elektronni chiqarib yuborish uchun sarf qilinadigan ionlanish energiyasi $i(A)$ bilan neytral atom o'ziga tashqaridan bitta elektronni qabul qilib, mansiy bir zaryadli anionga aylangandagi energiya effekti $e(A)$ ning algebraik yig'indisini yarmiga aytildi.

$$X(A) = \frac{i(A)+(A)}{2}$$

Litiyning eV larda o'lchangan elektromanfiyligi nisbiy deb qabul qilinib, foydalanish qulay bo'lgan kichkina yaxlit sonlar ko'rnishida ifodalandi.

Eng elektromanfiy element Ftor, eng elektromusbat seziyidir (5.2-jadv.). Biror bir element atomining ionlanish energiyasi va elektronga moyilligi berilgan bo'lsa uning nisbiy elektromanfiyligini aniqlash mumkin. Masalan: Br ning ionlanish energiyasi $I=1140,8$ kJ, uning elektronga moyilligi $E=3,54$ eV bo'lsa, Br ning NEM quyidagicha topiladi. $E=3,54 \cdot 1,602 \cdot 10^{-19} \cdot 6,02 \cdot 10^{23} = 341,4$ kJ bo'ladi. $EM = 1140,8 + 341,4 = 1482,2$ kJ. Elektromanfiylik birligi sifatida Li ning EM qiymati (536 kJ) qabul qilingan. Demak, Br uchun NEM $1482,2/536=2,8$ ga teng.

Elementlarning nisbiy elektromanfiyligi

I	II	III a	IV a	V a	VI a	VII a		VIII a		I a	II a	III	IV	V	VI	VII	VIII
H 2,1																	He
Li 1,01	Be 1,47											B 2,02	C 2,50	N 3,07	O 3,50	F 4,10	Ne
Na 0,97	Mg 1,23											Al 1,47	Si 1,74	P 2,10	S 2,60	Cl 2,83	Ar
K 0,91	Ca 1,04	Sc 1,20	Ti 1,32	V 1,45	Sr 1,56	Mn 1,60	Fe 1,64	Co 1,75	Ni 1,75	Cu 1,76	Zn 1,66	Ga 1,82	Ge 2,02	As 2,20	Se 2,48	Br 2,80	Kr
Rb 0,89	Sr 0,99	Y 1,11	Zr 1,22	Nb 1,23	Mo 1,30	Tc 1,36	Ru 1,42	Rh 1,45	Pd 1,35	Ag 1,42	Cd 1,46	In 1,49	Sn 1,72	Sb 1,82	Te 2,01	I 2,21	Xe
Cs 0,86	Ba 0,97	La 1,08	Hf 1,23	Ta 1,33	W 1,40	Re 1,46	Os 1,52	Ir 1,55	Pt 1,44	Au 1,42	Hg 1,44	Tl 1,44	Pb 1,55	Bi 1,67	Po 1,76	At 1,96	Rn

Sendersen NEM qiymatlarini hisoblab topish uchun atomlarning molekulalardagi kovalent radiusidan foydalanishni taklif qildi. Uning fikricha, element qanchalik yuqori NEM ga ega bo'lsa, uning yaqinidagi elektron zichligi shunchalik katta bo'ladi. Ammo atomlarning kovalent radiuslarini aniq topishning qiyinligi Sendersen usulining kengroq qo'llanishiga yo'l qo'ymadidi. Hozir adabiyotlarda elementlarning NEM bo'yicha keltiriladigan qiymatlari bog'larning xili va tabiatini tushuntirishda, dastlabki sifat ahamiyatiga ega bo'lgan material sifatida keng qo'llaniladi.

NEM ni dipol momentlari, kimyoviy bog'larning kuch doimiyligi, fotoelektrik ionlanish asosida topishga urunishlar ham ma'lum. Lekin bu ko'rsatkichlar asosida olingan malumotlar juz'iy ahamiyatga ega xolos.

NEM tushunchasidan foydalanib, kimyoviy bog'larning xilini, atomning molekuladagi oksidlanish darajasini, molekulaning doimiy dipol momentiga ega bo'lish sabablarini yaxshi tushuntirish mumkin. Bu va shu kabi ma'lumotlarga ega bo'lish mazkur konsepsiyaning yetarli darajada amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Element atomining EM uning atomi o'lchamiiga bog'liq. Atom o'lchami qancha kichik bo'lsa, uning EM shuncha yuqori bo'ladi Nodir gazlarda elekromanfiylik nolga teng bo'ladi.

5.6-§. Atom, ion, kovalent va Van-der Vaals radiuslari

Elektron harakati to'lganligi uchun atom hajmi aniq kattalikga ega emas. Shunga ko'ra, atomning ion, metall, kovalent va Van der Vaals radiusi degan tushunchalar mavjud.

Molekula tarkibida bir-biri bilan yakka kovalent bog' orqali birikkan bir xil ikki atomning markazlari orasidagi masofani ikkiga bo'lish natijasida ayni element atomining kovalent radiusi topiladi. X-X birikmada X- metalmas. Agar atomlar o'zaro qo'shbog' orqali birikkan bo'lsa, ular orasidagi masofa oddiy bog'ga nisbatan 10%, uch bog' orqali birikkanda 17% a kamayadi. Masalan, C-C = 0,154 nm, C=C da 0,134 nm va C≡C da esa 0,120 nm bo'ladi. Kovalent radiuslarda additivlik (qo'shiluvchanlik) xususiyati kuzatiladi. Quyidagi 5.4.-jadvalda ba'zi element atomlarning kovalent radiulari keltirilgan.

5.4.-jadval

Element atomlaringning kovalent radiusi (nm)

Element	Kovalent radiusi	Element	Kovalent radiusi
H	0,030	F	0,064
C	0,077	Cl	0,099
S	0,104	Br	0,114
Se	0,117	I	0,133

Metall radiusi metall kristal strukturasidagi atomlar orasidagi masofaning yarmiga teng. Uning ko'rsatkichi koordinatsion songa bog'liq. Koordinatsion soni 8,6,4 ga teng metallarning atom radiusi 0,98, 0,96 va 0,88 nm bo'ladi. K va Li ning radiusi 0,236 va 0,155 nm. Metall atom radiuslari kovalent atom radiuslardan kam farq qiladi. Masalan, Na metali kristalida 0,320 nm, Naning atom radiusi 0,160 nm va kovalent radiusi esa 0,154 nm ga tengdir. Metallardagi additivlik xususiyati intermetall birikmalar kristall panjaradagi parametrlarni aniq ko'rsatadi.

Ion radiusi – ionlarning shartli xarakteristikasi, ion kristallari va yadro orasidagi masofa. Yadrolararo masofa d kristallning

konstantasi nomi bilan yuritiladi. Agar kristall panjarani tashkil qilgan modda ikki iondan iborat bo'lsa. Bir ionning radiusi ma'lum bo'lgan taqdirda $d=r_1+r_2$, formuladan foydalaniib, 2-ionning radiusini aniqlash mumkin. Optik usullar yordamida fluorioni F⁻ ning radiusi $r=0,133$ nm yopilgan

5.5.-Jadval

Turli xil zarrachalarning ion radiuslari (nm)

Element	Ion radiuslari	Element	Ion radiuslari	Element	Ion radiuslari
F	0,133	Li ⁺	0,068	Be ²⁺	0,034
Cl ⁻	0,181	Na ⁺	0,098	Mg ²⁺	0,066
Br ⁻	0,196	K ⁺	0,133	Ca ²⁺	0,099
I ⁻	0,220	Rb ⁺	0,149	Sr ²⁺	0,112
O ²⁻	0,136	Cs ⁺	0,165	Ba ²⁺	0,134

Masalan NaF kristall panjarasining konstantasi $d=0,231$ nm. Bundan Na ionining radiusini topamiz.

$$r_{\text{Na}^+} = 0,231 - 0,133 = 0,098 \text{ nm}$$

Ion radius davriy sistemadagi elementlarning joylashish qonunlari bilan bog'liq. Ion radiusi kristalokimyoda kristallarning tuzilish qonuniyatlarini aniqlashda qo'llaniladi. Quyidagi jadvalda AX ionli birikmalarda A-metall X- metalmas orasidagi ion radiusi keltirilgan.

O'zaro kimyoviy bog'lanmagan bir xil ikki atom orasida masofani ikkiga bo'lish natijasida atomlarning *Van-der Waals* radiuslari topiladi. Van-der Waals radiuslari 1939-yilda *Poling* monografiyasida birinchi marta yozildi.

5.6.-Jadval

Element atomlarining Van-der Vaals radiuslari, nm

Element	VV radiusi	Element	VV radiusi	Element	VV radiusi
N	0,15	O	0,140	F	0,135
P	0,19	S	0,185	Cl	0,180
As	0,20	Se	0,200	Br	0,195
Sb	0,22	Te	0,220	I	0,215

Van-der Vaals radiuslari kovalent radiusidan 0,08 nm ga kattaroq. Neytral atomlarning Van-der Vaals radiuslari manfiy zaryadlangan ion radiusi bilan deyarli bir xil bo'ladi. **Van-der Vaals** radiuslarini aniqlashda ko'pgina olimlar ilmiy izlanishlar olib borishdi. Ular **Poling, Bondi, Zefirov, Nayberg, Kitaygorodskiydir.**

5.7.-Jadval

Galogenlarning Van-der-Vaals radiuslari (nm)

Galogen	Poling, 1939	Bondi, 1964	Zefirov, 1974 – 1986	Nayberg, 1985	Kitaygorodskiy, 1955
F	0,135	0,147	0,140	0,130 – 0,138	—
Cl	0,180	0,175	0,190	0,158 – 0,178	0,178
Br	0,195	0,185	0,197	0,154 – 0,184	0,195
I	0,215	0,198	0,214	0,176 – 0,213	0,21

Van-der Vaals radiuslarining qiymati kovalent radius qiymatidan bir oz katta bo'ladi.

Savollar:

1. Plazma deb nimaga aytildi va uning qanday xillari bor?
2. Suyuq kristallar necha guruhga bo'linadi? Ular qayerlarda qo'llaniladi?
3. Ionlanish potensiali, elektronga moyillik va elektromanfiylik nima?

4. Elektromansiylikni aniqlashda Malliken va Poling usullarini aytib bering?

5. Atom radiuslari haqida tushuncha bering.


Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Салем Р.Р. Физическая химия. Физматлит. М., 2004
2. Минкин В.И., Симкин Б.Я., Миняев Р.М. "Теория строения молекул", учебное пособие. Ростов-Дон: Феникс, 1997, 407 с.
3. Татевский В.М. "Строение и физикохимические свойства молекул и веществ." М.: Изд-во МГУ, 1994, 463 с.
4. Де Жён П. Физика жидких кристаллов. Мир, М., 1977
5. Америк Ю.Б., Кренсель Б.А. Химия жидких кристаллов и мезоморфных полимерных систем. Наука, М., 1981.
6. Арцимович Л.А. Элементарная физика плазмы. М., Атомиздат, 1969.
7. Смирнов Б.М. Введение в физику плазмы. М., Наука, 1975.
8. Милантьев В.П., Темко С.В. Физика плазмы. М., Просвещение, 1983.
9. Чен Ф. Введение в физику плазмы. М., Мир, 1987.
10. <http://www.wikipediya.ru>.

VI BOB. MOLEKULALARNING FAZOVIY TUZILISHI VA GEOMETRIYASI. ATOM ORBITALLARNING GIBRIDLANISHI. GILLESPI NAZARIYASI

6.1-§. Polingning atom orbitallarning gibridlanish konsepsiysi

Atom orbitallarning gibridlanishi haqidagi tushunchani birinchi marta Laynus Poling fanga kiritdi. Poling turli atom orbitallar bir-biri bilan qo'shibil, ulardan oraliq orbitallar yuzaga keladi, degan fikrni aytgan. Poling uglerod birikmalarining geometriyasini tushuntirish uchun tetraedr va shar sterjenli modellardan foydalangan (6.1-rasm).



6.1.rasm. Etan, etilen, asetilenning shar sterjenli modellari

Poling gibridlanishda 3 ta qoidaga e'tibor berish kerakligini aytib o'tgan:

1. Faqat 2- davr element atomlari orbitallarining o'zaro chiziqli kombinatsiyalanishi va o'rtacha o'zgargan yangi orbitallar hosil qilishi realdir.

2. Kovalent bog'lanishning yo'naluvchanligini faqat gibridlanish orqali tasavvur qilish mumkin.

3. Real gibridlanish 2 davr elementlarida model sifatida emas, balki mexanizm sifatida sodir bo'lishi mumkin.

Gibrildanish konsepsiysi faqatgina oddiy moddalarning hosil bo'lishini tushuntirish uchun tatbiq qilinib qolmasdan, shu bilan birga, kompleks birikmalarning hosil bo'lishi va xususan, ularning fazoviy tuzilishini o'rganinish uchun ham keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, kompleks birikmalar oddiy molekulali birikmalarga nisbatan ancha murakkab kimyoviy tarkibga va fazoviy tuzulishga ega bo'lganligi uchun, ularni o'rganish va tushuntirishda gibrildanish konsepsiyasidan tashqari ayrim maxsus usullaridan ham foydalaniladi.


Kordonatsion birikmalardagi kimyoviy bog'larni tavsiflash uchun hozirgi vaqtida qo'llaniladigan umumiyl usullar quyidagilardan ibora:

1. Valent bog'lanish usuli.
2. Kristall maydon nazariyasi.
3. Molekulyar orbitallar usuli.

Bu usullar ichida valent bog'lanish usuli gibrildanish konsepsiyasiga bevosita aloqadordir. Ma'lumki, Tomson tomonidan elementlarning atomlari murakkab tarkibga ega bo'lib, ularda manfiy zaryadlangan elementlar elektr zarrachalari – elektronlar mayjudligini ko'rsatilgandan keyin, kimyoviy bog'ning hosil bo'lishini tushuntirish uchun bu zarrachalarning roldan foydalanishga keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. Bu istiqbolli yo'llardan birinchilardan bo'lib **B. Kossel** va **G. Lyuislar** foydalandilar.

B.Kossel getero polyar kimyoviy bog'larni tushuntirishda elektrostatik tushunchalardan keng foydalandi. Shuning uchun, uning nazariyasini ionli bog'lanish nazariyasi, deb qarash mumkin. B.Kosselining fikricha, kimyoviy bog'ning hosil bo'lishida, bog'lanayotgan atomlarning tashqi elektron pog'onasi davriy tizimda o'ziga eng yaqin bo'lgan nodir gazning 8 elektronli elektroneutral konfiguratsiyasiga o'xshasa-da, ammo musbat va manfiy zaryadlangan ionlarning o'zaro elektrostatik tortilishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, NaCl moddasi hosil bo'layotgan paytda natriy atomining $1s^2 - 3s^1$ elektroni xlor atomiga $1s^2 - 3p^5$ elektron sifatida o'tib, uning tashqi elektron qavatini $3s^2, 3p^5$


ko'rinishidan $3s^2, 3p^6$ ga o'tishiga olib keladi va Na^+ va Cl^- zarrachalari o'rtasida elektrostatik tortishish kuchi natijasida ionli bog' hosil bo'ladi:



Elektrostatik kuchlar to'yinmaslik xossasiga ega bo'lganligi uchun M^{n+} zaryadiga ega bo'lgan kation bilan n ta -1 zaryadli nX zarrachalaridan tashkil topgan MX_n tizimga nisbatan $\text{MX}_n + \text{X}^- = (\text{MX}_{n+1})^-$ zarracha barqarorroq bo'lar ekan. Bu Kossel fikricha, kompleks birikmalarining hosil bo'lishiga olib keladi.

AgJ_2^- dagi Ag^+ ioni bilan J^- ionining o'zaro tortilish kuchi e^2/r^2 ga, yod ionlarining o'zaro itarilishi esa $e^2/(2r)^2 = e^2/4r^2$ ga teng. Ya'ni tortishish kuchi 4 marta katta, shuning uchun $(\text{AgJ}+\text{J}^-)$ tizimning potensial energiyasiga nisbatan AgJ_2^- kompleks ionining potensial energiyasi kichikroq bo'ladi va natijada:

$\text{AgJ} + \text{KJ} \longrightarrow \text{K}[\text{AgJ}_2^-]$ birikmasi osonlik bilan paydobo'ladi.



$E(\text{AgJ}) = -e^2 r^2$; $E(\text{J}^- \dots \text{J}^-) = e^2 / 4r^2$; $-E(\text{AgJ})/E(\text{J}^- \dots \text{J}^-) = e^2/r^2$; $e^2/4r^2 = 4$ demak, $[\text{AgJ}_2^-]$ da Ag^+ va J^- larning o'zaro elektrostatik tortishish tasiri uning tarkibidagi ikkita J^- anionlarining o'zaro itarilish energiyasidan 4 marta katta, shuning uchun bunday chiziqli tuzilishga ega bo'lgan kompleks anion oson hosil bo'ladi. $[\text{AgJ}_3]^-$ zarrachasida ligantlar teng tomonli uchburchakning uchlariga joylashgan holda, ularning o'zaro itarilish kuchi har bir anionning musbat zaryadli markaziy ionga tortilishining 0,58 qismini tashkil etadi. Bu hol shunday trigonal, kvadrat tetraedrik tuzilishga ega bo'lgan zarrachalarning hosil bo'lishini ta'minlaydi.

Markaziy ionning musbat zaryadi ortib borishi bilan, tabiiyki, uning koodinatsion soni ham oshib boradi, ya'ni u o'z atrofida ko'proq teskari zaryadli zarrachalarni tortadi.

Neytral ligantlar ishtirokida komplekslarning hosil bo'lishini Kossel musbat zaryadlangan markaziy ionning ligand


molekulasining mansiy qutbi bilan tortilish natijasi, deb tushuntiradi.

Valent bog'lanish nazariyasi. 1916-yilda **G. Lyusak** kovalent bog'lar bog'lanayotgan atomlarning valent elektronlarining umumlashishi natijasida hosil bo'ladi, degan xulosaga keldi:

$$Z_{\text{C}}\text{Es}^3 - Z_{\text{O}}\text{Ees} + p^3 = -5935 - (-6555) = 620 \text{kDj/mol}$$

Bu holda gibrildanish uchun 620kDj/mol energiya tashqaridan sarflangan. Bu qiymat taxminan ikkita kimyoviy bog'ning energiyasiga teng. Bunday energiya fosfor atomi boshqa atomlar bilan bog' hosil qilayotgan paytda qayta chiqariladi. Jarayonning ekzotermikligi ortadi. Bunday jarayon termodinamik jihatdan o'z-o'zicha bora oladigan, qaytmas jarayon bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan energetik hisoblar shuni ko'rsatadiki, uglerod atomining elektronlari gibrildanganda energiya sarflanmaydi: $(\text{Es}) + 3\text{E}(p) = 4\text{E}(\text{sp}^3)$. Fosfor atomidagi $3s^2$ va $3p^3$ orbitallar gibrildanganda esa $3s$ – AO dagi elektronlarning energiyasi qisman kamayadi (sxemaga qaralsin). Umuman olganda, tizimning energiyasi 620kDj/mol ga ortadi. Misolda gibrildanish sxemasi endotermik bo'ladi.




Uglerod atomidagi $2s$ - va $2p$ -AO larning (a) va fosfor atomidagi $3s$ - va $3p$ -AO larning gibrildanishi(b).

Gibrildanishning energiyasi (fosfor atomi holida bu energiya, yuqorida qayd qilinganidek, 620kDj/mol ga teng) ning katta bo'lishi gibrildanishning amalga oshishi uchun qiyinchilik tug'diradi. Shu sababdan, Mendeleyev jadvalining VA va VIA

guruqlarida yuqorida pastga tushganimiz sari gibrildanish energiyasi ortib borgani tufayli gibrildangan AO lar o'miga toza p – orbitallarning bog' hosil qilishi osonroq bo'ladi. Buning natijasi sifatida molekulalardagi valent burchaklar azotdan surmaga, kisloroddan tellurga o'tgan sari tetraedrga xos qiymatdan toza p – AO ga xos bo'lgan 90° ga yaqinlashib boradi (jadvalga qarang), gibrildanish qiyinlashadi. Sababi – gibrildanish uchun sarflanadigan energiyaning ko'payib borishi.

Atom orbitallarning gibrildanishi haqidagi tasavvurlarga muvofiq turli orbitallarga mansub elektronlar ishtirokida kimyoviy bog'lanish hosil bo'ladi, bu elektronlarning bulutlari bir-biriga ta'sir ko'rsatib, o'z shakllarini o'zgartiradi, natijada turli orbitallarning o'zaro qo'shilishi, ya'ni gibrildangan orbitallar hosil bo'ladi. Gibrildanish so'zi – "qo'shilish", "chatishish" degan ma'noni bildiradi.

p -gibrild orbitallarda elektron bulutining zichligi yadroning bir tomonida kattaroq bo'lib, ikkinchi tomonida kichikroqdir. Gibrild orbitallar o'zining kattaroq qismi bilan boshqa atomlarning elektron bulutlarini ko'proq qoplaydi.



6.2- rasm. σ , π - bog' hosil bo'lishi-da s va p -elektron bulutlarining qoplanish sxemasi a) H_2 molekulasidagi σ -bog' b) HF molekulasidagi σ bog' v) F_2 molekulasidagi σ -bog' g) N_2 molekulasidagi π -bog'lardan bittasi.

Erkin holatdagи atomlardagi orbitallar hech qachon gibrildangan holatda bo'lmaydi. 6.3 -rasmda s-orbital bilan p -orbitalidan hosil bo'lgan ikkita sp -gibrild orbitallarning sxematik shakli keltirilgan.



a)



b)



v)

6.3- rasm. a) s va b) p –orbitallardan hosil bo‘lgan v) sp-gibrid orbitalning shakli.

Gibrildanish atomlardan molekula hosil bo‘lish vaqtidagina yuzaga chiqadi. Gibrildanish natijasida elektron bulutlar tamomila simmetrik shaklni oladi.

6.2-§. Kvant sonlar

Atomning elektron qavatining tuzilishida atom elektronlarining energetik holatini kompleks xarakterlovchi parametrlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Hozirgi vaqtida elektronning harakati to‘rtta kvant soni: bosh, orbital, magnit va spin kvant sonlari bilan ifodalanadi.

1. Bosh kvant soni (n) orbitaning energiyasi uning yadrodan uzoq yoki yaqinligiga qay tarzda bog‘liq ekanligini tavsiflaydi. Atom yadrosining elektromagnit maydonidagi energetik pog‘onalarni xarakterlaydi. Bosh kvant soni elektron energiyasining kattaligini ko‘rsatadi. 1913 yilda N.Bor buni fanga kiritdi. Bosh kvant sonlari o‘zaro teng bo‘lgan bir necha elektron atomda elektron qavatlarni yoki ma’lum energetik pog‘onani hosil qiladi. Bu energetik pog‘onalar butun sonlar, shuningdek harflar bilan ifodalanadi:

Elektron energiyasi oshadi

Bosh kvant soni qiymatlari- 1 2 3 4 5 6 7

Harf belgisi - K L M N O P Q


Atomdagи elektron qavatlarning soni D. I. Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy sistemasidagi davr raqamiga va elektron pog‘onachalar soniga to‘g‘ri keladi. Masalan, mishyak atomida 33 ta elektron bo‘lib, bu elektronlar atomdagи 4 ta energetik qavatlar (K, L, M va N) da joylashgan. Binobarin,

mishyak atomida 4 ta elektron qavat bor, mishyak elementti D.I.Mendeleyev jadvalidagi to'rtinchı davrda joylashgan.

Har bir qavatda joylashishi mumkin bo'lgan eng ko'p elektronlar soni tubandagi formuladan hisoblab topiladi:

$$N = 2n^2$$

bu erda, N – maksimum elektronlar soni; n - bosh kvant soni.



2 – qavatda (L qavatda) = $2 \cdot 2^2 = 8$ elektron

3 – qavatda (M qavatda) = $2 \cdot 3^2 = 18$ elektron va hokazo bo'ldi.

2. Orbital kvant soni (l) tushunchasi fanga 1916 yilda A.I.Zommerfeld tomonidan kiritilgan. Elektron harakat miqdori momenti yoki elektron bulut zichligini fazoviy taqsimlanishini xarakterlaydi. Ayni qavat elektronlari bir-biridan o'zlarining energiyalari bilan farq qilib, bir yoki bir necha orbital yoki pog'onachalarini hosil qilishi mumkin, bu orbitallar o'z shakllari bilan bir-biridan farq qiladi. Energetik pog'onachalar ham harflar bilan belgilanadi.

Orbital kvant soni $l = 0$ dan $n = 1$ gacha bo'lgan butun sonlar bilan ifodalanadigan qiymatlarga ega bo'ladi. Masalan, $n = 1$ bo'lsa, orbital kvant soni qiymati no'f ($l = 0$) bo'ladi; $n = 2$ bo'lsa, $l = 0$; 1ga teng, $n = 3$ bo'lsa, l ning qiymati 0, 1 va 2 ga teng bo'ladi.

l ning qiymatlari 0 1 2 3 4 5

Energetik pog'onachaning belgisi $s\ p\ d\ f\ g\ h$

Elektron harakat miqdorining orbital momenti bilan orbital kvant son orasida quyidagicha bog'lanish bor:

$$M = \frac{h}{2\pi} \sqrt{l(l+1)}$$

Orbital magnit moment ham l bilan quyidagi munosabatda bo'ladi:


$$\mu = \mu_b \sqrt{l(l+1)}$$

bu yerda, μ_b - Bor magnetoni.

$$\mu_b = \frac{e\hbar}{2mc}$$

Yuqoridagi harf belgisi keltirilgan orbitallarning shakllari 6.1-rasmda ko'rsatilgan.

s , p , d , f harflari inglizcha so'zlarning bosh harflaridan olingan. Masalan: S - significant-«bosh, muhim». P -principal-«asosiy», d -diffusion- «tarqalmoq» (yorug'lik) va f -fundamental-«asosiy qoida» degan ma'nolarni anglatadi.



6.4-rasm. s , p , d -orbitallarning fazoviy shakllari

Ayni qavatdagi elektronning orbital kvant soni qanchalik katta bo'lsa, uning energiyasi shunchalik katta qiymatga ega bo'ladi.

3. Magnit kvant soni (m_e) elektron orbitallarining fazodagi holatini, ya'ni ma'lum magnit maydoniga nisbatan qanday burchak bilan joylashganini ko'rsatadi. Magnit kvant sonning qiymatlari $-l$ dan $+l$ oralig'idagi butun sonlardan tashkil topgan, mumkin bo'lgan turlicha qiymatlar soni jami bo'lib $(2l+1)$ qiymatni qabul qilishi mumkin. Chunonchi, s - elektronlar ($l = 0$)

uchun m_e ning qiymati 1 ta ($m_e = 0$); p - elektronlar ($l = 1$) uchun m_e ning 3 xil qiymati bo'ldi (-1, 0, +1); d -elektronlar $l = 2$ uchun m_e 5 xil qiymatlarga ega bo'ldi (-2, -1, 0, +1, +2) va hokazo. Agar n va l o'zgarmasa, turli m_e ga ega bo'lgan orbitallar bir xil energiya qiymati bilan xarakterlanadi; masalan, uchinchi pog'onaning 5 ta d orbitallari bir-biridan energetik jihatdan emas, faqat fazoda joylanishi bilan farqlanadi.

4. Spin kvant soni (m_s). Zarachaning xususiy mexanik harakat miqdori spin deb atiladi. Ilgari vaqtarda uni elektronning o'z o'qi atrofida aylanishini xarakterlovchi kvant soni deb hisoblanar edi, endilikda m_s ni maxsus kvant mexanik miqdor deb qaraladi.

Elektron o'z o'qi atrofida ikki tomona aylanishi mumkin. Shuning uchun elektronning spin kvant soni faqat 2 qiymatga ega bo'ldi: $+\frac{1}{2}$ va $-\frac{1}{2}$. Bu grafik shaklda bir-biriga nisbatan qarama-qarshi tomona yo'naligan strelkalar bilan ko'rsatiladi: \uparrow yoki \downarrow . Bir xil yo'nalishdagi spinga ($\uparrow\uparrow$) ega bo'lgan elektronlar parallel, qarama-qarshi yo'nalishdagi spinga ($\uparrow\downarrow$) ega bo'lganlari antiparallel elektronlar deb hisoblanadi.

Elektronning spin momenti quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$M_s = \sqrt{s(s+1)} \frac{\hbar}{2\pi}$$


Atomdagagi elektronning n , l , m_e kvant sonlarining ma'lum qiymatlari bilan xarakterlanadigan holati atomning elektron orbitali deb ataladi. To'rtala kvant sonlari (n , l , m_e va m_s) elektronning atomdagagi holatini to'liq ifodalaydi. Ko'p elektronli atomlarda elektron holatini aniqlashda V. Pauli prinsipi muhim ahamiyatga egadir.

6.3-§. sp^3 sp^2 sp gibriddanish turlari

Bitta s-orbital bitta p-orbital bilan qo'shilganda hosil bo'ladigan ikkita gibridd orbital 6.3-rasmida ko'rsatilganidek, bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda joylashgan bo'lib, molekulaning chiziqli yo'nalishiga sabab bo'ladi, ya'ni uni hosil qiluvchi

atomlar yadrolarini ularning markazlari orqali o'tgan to'g'ri chiziqda joylashishini ta'minlaydi. Masalan, BeCl_2 molekulasining hosil bo'l shida sp -gibridlanish kuzatiladi va gibrid orbitallar orasidagi burchak 180° ga teng bo'ladi (6.4-rasm).


Bu yerda BeCl_2 molekulasi chiziqli tuzilishga ega va hosil bo'l adigan gibrid orbitallar soni doimo gibridlanishga ishtirok etadigan dastlabki gibridlanmagan orbitalarning soniga teng bo'ladi.




6.5-rasm. BeCl_2 molekulasining sp -gibrid orbital shakli

Bitta s - va ikkita p -orbitalarning gibridlanishi (sp^2 -gibridlanish) sababli uchta teng qiymatli sp^2 -orbitallar hosil bo'ladi. Bunda gibrid orbitallar bir-biriga nisbatan 120° li burchak hosil qilib joylashgan bo'ladi (6.6-rasm).



sp^2 -gibridlanish asosida hosil bo'l adigan molekulaga misol qilib, BF_3 molekulasini olish mumkin.





6.6-rasm. BF_3 molekulasining sp^2 -gibrid orbital shakli

Agar gibridlanishda 1ta s- va 3 ta p-orbital ishtirok etsa, unda sp^3 gibridlanish yuz berib, 4 ta gibridlangan sp^3 -orbitallar hosil bo'ladi, ular bir-biriga nisbatan $109^{\circ}28'$ burchak ostida joylashgan bo'ladi. Bunday gibridlanish metan CH_4 , suv H_2O , ammiak, etan C_2H_6 molekulalarida hosil bo'ladi (6.7-rasm).



6.7- rasm. Metanning sp^3 -gibrid orbital shakli.

Demak, etan, etilen va asetilen C-C va C-H bog'lar uzunligi va energiyasi taqqoslansa, quyidagi qonuniyat kuzatiladi. $sp^3 \rightarrow sp^2 \rightarrow sp$ gibridlanish qatorida C-C bog'inining uzunligi kamayib, energiyasi ortib boradi.

6.4-§. Gillespi nazariyasi

Gibrid orbitalning bir tomonida elektron bulut ko'p, ikkinchi tomonida esa kam va gibrid orbital boshqa orbitalni ana shu ko'p tomoni bilan qoplaydi. Natijada qoplanish maksimal, yadrolar o'rtasida elektron bulut zichligi ortadi va bog' barqaror bo'ladi. Orbitallarning gibridlanishiga sabab, sistema energiyasining kamayishidir. Molekulalarning fazoviy tuzilishi va geometriyasi Pauli prinsipiiga asoslanib Ronald Gillespi tomonidan mulkammal rivojlantirilgan, 1940-yilda Nevil Sidjvik va Pauell tashqi qobiqdagi taqsimlanmagan elektron juftlarning itarilishi modelini

taklif etdilar, keyinchalik bu **R.Gillespi** tomonidan chuqur o'rganildi va **Gillespi modeli** deb tan olindi. Buning qoidalari:

1. Ko'p valentli atomlarning hosil bo'lishida bo'g konfiguratsiyasi valent qobiqdagi elektron juftlar soni, ya'ni ular MO dagi ham bog'lovchi, ham bo'shashtiruvchi orbitallarga tegishli bo'ladi.

2. Bulut markazidagi elektron juftlar zichligi valent orbitallarning ko'rinishi va bir-birini maksimal itarishi bilan aniqlanadi.

Elektron juftlarning molekuladagi itarilish kuchlari asosan ikki xil deb qaraladi:

1. Bog' hosil qiluvchi juftlarning taqsimlanmagan juft yoki juftlar bilan ta'siri.

2. Bog' hosil qiluvchi juftlarning o'zaro ta'siri. Odatda taqsimlangan - taqsimlanmagan elektron juftlarning bir-biridan itarilishi, taqsimlangan juftlarning itarilish kuchidan katta bo'ladi. Bu kuchlar valent burchaklarni belgilashda katta rol o'yaydi.

Markaziy atomdagagi valent elektronlarning 2 dan 12 gacha soniga qarab molekulaning fazoviy tuzilishi bilan farq qiladi.

Gillespi nazariyasini quyidagi qoidalar mukamallashtiradi:

a) Bog' hosil qilmaydigan taqsimlanmagan elektron juft, bog' hosil qiladigan bog'ga nisbatan katta hajmni egallaydi;

b) Tashqi qobiqdagi elektron juftning orasidagi itarilish kuchi quyidagi tartibda kamayadi: E-E, E-X, X-X (E – taqsimlanmagan elektron juft, X- bog' hosil qiladigan elektron juft);

v) Ligandning EM ortishi bilan bog' hosil qiladigan elektron juftning hajmi ortadi;

g) Qo'shbog' va uch bog'ning hajmi birlamchi bog' hajmidan katta bo'ladi.


Elektron juftlarning itarilish modeli molekulalarning strukturasini, geometriyasini oldindan bashorat qila oladi. R.Gillepsi modeli molekulalardagi valent burchaklar qanday bo'lishini izohlaydi.

6. I-Jadval

<i>Elektron soni</i>	Molekula shakli	<i>Gibriddlanish Holati</i>	<i>Elektron soni</i>	Molekula shakli
2	Chiziqsimon Egilgan	sp, dp, p ² , ds,d ²	8	Kvadrat antiprizma
3	Yassi, Uchburchak, Trigonal piramida	sp ² , dp ² , ds ² ,dsp	9	Uch uchli qo'shimcha uchburchak prizma
4	Tetraedr Tetrogonal piramida	sp ³ , d ³ s, d ² sp, d ³ p,dp ³	10	Ikki uchli qo'shimcha kvadrat antiprizma
5	Trigonal bipiramida, Kvadrat piramida Yassi pentagonal	dsp ³ , d ³ sp, d ² sp ² , d ⁴ sd ³ p ²	11	Cho'qqisiz ikosaedr
6	Oktaedr	sp ³ d ² , d ³ sp ² ,d ³ p ³	12	ikosaedr
7	qo'shimcha uchli Oktaedr	sp ³ d ³		

6.5-§. Valent burchak.

Molekuladagi atomlar yadrolarini birlashtiruvchi to'g'ri chiziqlar orasidagi burchakka – valent burchak deb aytildi. Valent burchaklar 90° , 105° , 109° , 120° , 180° ga teng birikmalar ko'proq uchraydi. Masalan suvda 105° , NCl_3 da 107° CH_4 da 109° C_2H_4 da 120° , C_2H_2 da 180° va hokazo (6.8-rasm).



6.8. rasm suv, H_2O , HNO_3 , CH_4 C_2H_4 , C_2H_2 ning valent burchaklari

Markaziy atom bilan bog'langan atomning elektromanfiyligi ortishi bilan elektronlarning itarilishi kamayadi, valent burchaklar kichiklashadi. Masalan, $H_2O=104,5^{\circ}$, $F_2O=103,2^{\circ}$, $NF_3=102^{\circ}$ bo'ladi. Valent burchaklar qiymati spektroskopik va difraksiyon usullar yordamida aniqlanadi.

Savollar:

1. Atom orbitallarning gibrildanish konsepsiyasini tushuntiring
2. σ , π , δ - bog'lanishlar qanday hosil bo'ladi?
3. Gillespi nazariyasi nimani tushuntiradi?
4. $sp^3 \rightarrow sp^2 \rightarrow sp$ qatorda qutblanuvchanlik va uglerod atomining radiusi qanday o'zgaradi?
5. Valent burchak deb nimaga aytildi? U qanday usulda aniqlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Минкин В.И., Симкин Б.Я., Миняев Р.М. "Теория строения молекул", учебное пособие. Ростов-Дон: Феникс, 1997, 407 с.
2. Татевский В.М. "Строение и физикохимические свойства молекул и веществ." М.: Изд-во МГУ, 1994, 463 с.
3. Гиллеспи Р. Геометрия молекул.-Москва: «Мир», 1975,278с.
4. Пупышев В.И. Современные представления о химической связи В: Современное естествознание: Энциклопедия в 10 т. – М.: Флинта: Наука, 1999-2000., т.1.
5. Iskandarov S, Sodiqov B. Organik kimyo nazariy asoslari. Toshkent. 1987.640 b.
6. Гиллеспи Роналд, Харгиттаи Иштван. Модель отталкивания электронных пар валентной оболочки и строение молекул: Пер. с англ. – М.: Мир, 1992. – 296 с.

VII BOB. VALENT BOG'LAR NAZARIYASI. MOLEKULYAR ORBITALLAR METODI

7.1-§. Valent bog'lar va molekulyar orbitallar metodi

Valent bog'lar metodi VBM- atomlarning ma'lum sondagi kovalent bog'lar hosil qilish qobiliyati. Kovalent bog'ning yo'nalishini, molekulalarning tuzilishini (strukturasini) xossalarini qoniqarli tarzda tushuntirib beradi. Ammo ba'zi hollarda VBM hosil bo'lgan ximiyaviy bog'ning tabiatini tushuntirib berolmaydi, molekula xossasini aytishda noto'g'ri xulosaga olib keladi. MO-metodi esa molekulaning energetik holatini aniq ko'rsata oladi va VBM javob berolmagan boshqa savollarga ham javob beradi. Masalan, barcha kovalent bog'lar VBMga asosan juftlashuvchi elektronlar hisobiga hosil bo'ladi. XIX asrning oxirlarida Tomson vodorodni elektron bilan bombordimon qilib, H_2^- ionni olgan edi (tarkibida 1 ta elektroni bor) va uni bog'ining uzelish energiyasi ancha yuqori ekanligi (256 kDj/mol') aniqlangan edi. Bunda hech qanday elektron jufti hosil bo'lishi mumkin emas, chunki H_2^- ioni tarkibida faqat bitta elektron bor xolos (chunki H_2 molekulasidan bitta elektron chiqib ketgan va H_2^- ionga aylangan- H_2^+)

Boshqa misolni ko'raylik. VBM ga binoan O_2 molekulasi quyidagicha hosil bo'ladi:



Bunday yozganimizda ko'rinish turibdiki juftlashmagan elektron qolmagan. Ammo O_2 ning doimiy magnitga tortilishi (paramagnitlik xossasi) O_2 molekulasida spinlarning yo'nalishi bir xil bo'lgan ikkita elektronlar borligidan dalolat beradi (har bir elektron o'z o'qi atrofida aylanadi-spin kvant soni natijada magnit maydon hosil qiladi, har bir elektron o'z juftlashmagan xususiy mexanik momenti spiniga ega bo'ladi. Spin tufayli Bor magnetoniga teng bo'lgan magnit momenti paydo bo'ladi.

Juftlashmagan elektronlar uchun ularning yo‘nalishi bir xil bo‘ladi, elektron juftlashsa, magnit maydon yo‘qoladi, chunki har bir elektron o‘z magnit maydoni bilan ikkinchi elektronni magnit maydonini neytrallaydi “0” ga teng bo‘ladi).

Yana boshqa holni ko‘raylik. Ba’zi molekulalardan elektronni uzib olinishi o‘sha molekulani mustahkamlaydi. Masalan, F_2 molekulasini bog‘ini uzish energiyasi 155 kDj/mol’ bo‘lsa, F_2^+ niki 320 kDj/mol’, O_2 ni bog‘ini uzish energiyasi 494 kDj/mol bo‘lsa, O_2^+ niki 642 kDj/mol’. Bu holatni VBM tushuntirib bera olmaydi. Yana VBM moddalarning spektral xossalarini kompleks birikmalarning ko‘pgina xossalarini – rangli bo‘lishini ham, bog‘ hosil bo‘lishda juftlashmagan elektronlarning hissasini ham tushuntira olmaydi.

Erkin radikallar tarkibida ham toq elektronlar bo‘ladi. Benzol va boshqa aromatik birikmalarning tuzilishini ham valent bog‘lar nazariyasi asosida tushuntirib bo‘lmaydi.

Bu muammolarni MOM – molekulyar orbitallar metodi qoniqarli tushuntiradi. Bu metodni rivojlanishida **Malliken** va **Xundlarning** xizmatlari katta.

MOM – molekuladagi jami elektronlar harakat qiladigan sohalar (molekulyar orbitallar – MO) ning shaklini va ularga muvofiq keladigan energiyalar qiymatini (aniqrog‘i har bir MO dagi elektronlar energiyasini) aniqlash imkonini beradi. Demak, MOM atom tuzilishini molekulaga tatbiq etadi, deyish to‘g‘ri bo‘ladi. (AO-da elektron harakat qiladigan sohaning shakli va elektron energiyasini topiladi).

MOM ning asosiy mazmunini quyidagi uchta tushuncha bilan bayon etish mumkin.

1. Atomda har bir elektronning o‘z atom orbitali bor bo‘lgani kabi molekulada ham har bir elektronning o‘z molekulyar orbitali bo‘ladi va u orbitalarni belgilashda o‘xshashlik bo‘ladi:

AO s, p, d, f

MO σ , π , δ , ϕ

2. Molekulyar orbital atom orbitalarning chiziqli kombinatsiyasidir (ya’ni atom orbitalarni xarakterlovchi to‘lqin

funksiyasi(ψ) ni qo'shish va ayirish natijasidir). Masalan, ikki atomli molekula AB uchun molekulyar orbital (MO) ning to'lqin funksiyasi bu ψ_A va ψ_B – atomlar orbitallarining chiziqli kombinatsiyasidir.

$$\Psi_1 = C_1 \psi_A + C_2 \psi_B \text{ va } \Psi_2 = C_3 \psi_A - C_4 \psi_B$$

Bu yerda: ψ_A va ψ_B – lar ayni elektronning birinchi va ikkinchi yadroga oid funksiyalaridir. Ψ_1 -bog'lovchi yoki simmetrik funksiya, Ψ_2 - bo'shashtiruvchi yoki antisimmetrik funksiyadir. C_1 , C_2 , C_3 , C_4 lar MO ni hosil bo'lishida ishtirot etuvchi tegishli AO larning hissasi ya'ni koeffitsientlaridir. Demak, ikkita AO ning kombinatsiyalanishidan ikkita MO hosil bo'ladi. Har bir birinchi MO AO ning qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib u yadrolar orasidagi bo'shliqda yoki fazoda elektron zichligining kattaligini xarakterlaydi va atomlarni bir-biriga bog'laydi, shu sababdan bog'lovchi MO deyiladi. Ikkinchi MO – esa funksiyalarning ayirmasidan hosil bo'lgan bo'lib yadrolar orasidagi fazoda elektronlar zichligining uzilishi bilan xarakterlanadi. Ya'ni yadrolar orasida elektron bo'lmaydi, yadrolar bir-birini itaradi. Bundan MO – bo'shashtiruvchi MO – deyiladi.

Shuning uchun 3 – tushuncha bu MO AOChK (molekulyar orbital atom orbitalning chiziqli kombinatsiyasi) dir.

Bog'lovchi MO energiyasi dastlabki atom orbitallari energiyasidan kichik bo'ladi. Bo'shashtiruvchi molekulyar orbitallar energiyalari esa aksincha, dastlabki atom orbitallar energiyasidan yuqori ($ko'p$) bo'ladi.


Molekulalar tarkibidagi bitta bo'shashtiruvchi orbital bitta bog'lovchi orbitalning ta'sirini yo'q qilib yuboradi.

Tashqi magnit maydoni yo'q bo'lgan hollarda atomdagи elektron energiyasi faqat n-bosh va l-orbital kvant sonlariga bog'liq bo'lib m-magnit kvant soniga bog'liq emas. M.O.dagi elektronning energiyasi esa ayni orbitalning yo'naliishiga, ya'ni molekula o'qiga proyeksiyasining qiyamatiga magnit kvant soniga ham bog'liq bo'ladi. Chunki, molekulada yadrolarni bir-biri bilan bog'lab turgan yo'naliish molekula o'qi deyiladi va u boshqa

barcha yo'nalishlardan farq qiladi. Molekulada elektronning harakat miqdori momenti proyeksiyasining atom yadrolarini birlashtiruvchi o'qqa nisbatan kattaligini xarakterlash uchun xuddi magnit kvant soni – m ga o'xshash molekulyar kvant soni λ kiritilgan. $\lambda=0$ bo'lsa, uni σ -holat deyiladi. Bu holatni qabul qiladigan elektronlarning maksimal soni 2 ga teng. $\lambda=\pm 1$ bo'lganida, π (pi) holatga ega bo'lamiz, bunday holatda ko'pi bilan 4 elektron bo'la oladi.

Mayjud tanlangan atom orbitallardan MO ni hosil qilish energetik diagramma ko'rinishida yoziladi, ya'ni energiyasining ortib borishi tartibida joylashtiriladi.

Elektronlar taqsimoti MO da xuddi AO dagidek bo'ladi, ya'ni eng avval energiyasi kichik pastki orbitallar (MO) elektronlar bilan to'ladi, keyin energiyasi ortib borish tartibida MO-lar to'lib boradi. Har bir MO da ikkitadan ortiq elektron joylasha olmaydi, ya'ni **Pauli** prinsipi MO-da ham to'liq kuchga ega bo'ladi. Bir tipdagi orbitallar bo'lsa ularni to'lish tartibi **Xund** qoidasiga asoslanadi. H_2 molekulasining hosil bo'lishini rasmida ko'rib chiqaylik.



H_2 molekulasining hosil bo'lishi


Agar birikayotgan vodorod atomi elektronlarining spinlari antiparalel bo'lsa bog'lovchi MO ni egallaydi va ikkala atomni molekula qilib bog'laydi. Bog' hosil bo'lganda energiya chiqadi (436 kDj/mol). Agar vodorod atomi spinlari parallel bo'lsa **Pauli** prinsipiiga muvofiq, ular bitta molekulyar orbitalda joylasha olmaydi: ulardan biri bog'lovchi MO da ikkinchisi ajratuvchi MO da joylashadi. Demak, ximiyaviy bog' hosil bo'lmaydi.

MO metodiga binoan, bog'lovchi orbitalda elektron bo'shashtiruvchi orbitaldagidan ko'p bo'lsa ximiyaviy bog'lanish sodir bo'ladi va molekula hosil bo'ladi. Agar teng bo'lsa,


molekula hosil bo'lmaydi He_2 molekulasi bo'lishi mumkin emas, chunki bunda 2-ta elektron bog'lovchi orbitalda va 2 tasi bo'shashtiruvchi orbitalda joylashgan bo'lardi. Bog' soni (tartibi) bog'lovchi elektronlardan bo'shashtiruvchi elektronlarni olib qolgan. N son ikkiga bo'linganda chiqqan songa teng.

$$N = \frac{n_{\text{bog}'} - n_{\text{bo'sh}}}{2}$$

Elektronlarning atom va MO -larda joylashuvini ifodalovchi simvollar yordamida H_2 ni hosil bo'lishini quyidagi sxema shaklida yozish mumkin:





VBM – da bog'larning soni umumlashgan elektron juftlar soni bilan aniqlanadi. Masalan, oddiy bog' bir juft elektronidan hosil bo'ladi, ikki juft umumlashgan elektronidan bog' hosil bo'lgan bo'lsa, qo'shbog' va hokazo deyiladi. Xuddi shunda u MOM-da ham bog' tartibi bog'lovchi elektronlar soni bilan aniqlanadi. Ikkita bog'lovchi elektron bo'lsa, oddiy bog', to'rtta bog'lovchi elektron bo'lsa, qo'sh bog' va hokazo bo'ladi. Bo'shashtiruvchi orbitallardagi elektronlar bog'lovchi MOlardan elektronlarning ta'sirini neytrallagani uchun. Agar molekulada 6 ta bog'lovchi va 2 ta bo'shashtiruvchi elektron bo'lsa, 4 ta bog'lovchi elektron ortiq bo'ladi. Demak, qo'sh bog'ga to'g'ri keladi. MOM formuladan foydalansak, $N = \frac{6-2}{2} = \frac{4}{2} = 2$ asosida demak H_2 dagi ximiyaviy bog' 2 ta bog'lovchi elektronidan hosil bo'lganligi uchun uning, bog'i birlamchi σ bog' hisoblanadi. Vodorodning molekulyar ioni (H_2^+) hosil bo'lishini quyidagicha tushunish mumkin. H_2^+ ni hosil bo'lishida mavjud 1S elektron bog'lovchi orbitalni egallaydi. Bu protsess energiya yo'qotish bilan boradi. Uni sxema tarzida ko'rsatish mumkin:



Ne_2^+ ionida esa hammasi bo'lib uchta elektron bor. $\sigma^{\text{bog}'} 1S$ molekulyar orbitalda **Pauli** prinsipiiga binoan 2 ta elektron joylasha oladi. Shuning uchun, uchinchi elektron ajratuvchi $\sigma^{ap} 1S$ orbitalni egallaydi. Shunday qilib, bog'lovchi elektron ajratuvchi

elektronidan bitta ko'p. Demak, Ne_2^+ barqaror bo'lishi kerak. Haqiqatan ham shunday, chunki bunda energiya ajraladi.




Vodorodning molekulyar ioni H_2^+ Gelyi molekulyar ionini He_2^+

hosil bo'lishining energetik sxemasi hosil bo'lishining energetik sxemasi

MO nazariyasini yaratishda atomning elektron tuzilishi haqidagi kvant-mexanik tasavvurlarni molekula tuzilishi uchun ham qo'llash mumkin hisoblanadi. Faqat farq shundaki, atom bir markazli (bir yadroli) sistema bo'lsa, molekula ko'p markazli sistemadir.


Demak, bu nazariyaga ko'ra har bir elektron molekuladagi barcha yadro va ko'p markazli orbitallar ta'sirida hosil bo'lishi e'tiborga olinadi.

N_2 - molekulasining hosil bo'lishida elektron konfiguratsiyasi quyidagicha bo'ladi:




Demak, azot molekulasida ortiqcha bog'lovchi elektronlar soni 6 ga teng, ammo 4 ta σ - bog'lovchi elektron ta'sirini 4 ta σ bo'shashtiruvchi elektron yo'q qilib yuboradi. Azot molekulasi mavjud va u nihoyatda mustahkam molekuladir. Bog'lanish tartibi $10-4/2=3$, bog'lanish energiyasi 941 kJ.


O_2 - molekulasining hosil bo'lishi:



O_2 molekulasiда 2 та тоq eletkron bor, u suyuq va qattiq holatlarda magnitga tortilishini (paramagnitligini) MOM yaxshi tushuntira oldi. O_2 molekulasi mavjud va unda 4 ta bog'lovchi elektronlar bor. Bog'lanish tartibi $10-6/2=2$, bog'lanish energiyasi 494 kJ.







Bu Mendeleev davriy sistemasiдagi davr boshida joylashgan elementlar uchun, 8 tadan ko'п elektron saqlasa, bunday elementlar uchun 8 tadan ortiqcha elektronlar quyidagicha joylashadi.



Bu davriy sistemada davr oxirida joylashgan elementlarda bo'ladi.

Masalan:



MO nazariyasi molekulalarning asosiy xossalari bo'lmish molekulalarning ionlanish energiyasi, molekulalarning magnit xossalari, moddalarning rangga ega bo'lish yoki bo'lmashlik kabi xossalarni to'g'ri izohlay oladi.

7.2-§. Molekulalarning simmetriyasi. Simmetriya tekisligi, simmetriya o'qi

Molekulalardagi atom yadrolarining joylashishi ma'lum simmetriyaga ega. Mazkur sistemaning simmetriya xilini bilish molekulaning fazoviy tuzilishini, turli (optik, elektrik va boshqalar) xossalarni aniqlash, analiz qilish va oldindan aytib

berish uchun xizmat qiladi. Simmetriya elementlarini aniqlash to'g'risida gap yuritilayotgan paytda molekulani nuqtaviy kattaliklarga ega bo'lgan sistema deb qaralishi mumkin.


Simmetriya operatsiyasi deb, shunday matematik operatsiyaga aytildiki, uni amalga oshirish natijasida molekulaning na konfiguratsiyasi va na xususiyatlari o'zgaradi, simmetriya operatsiyalariga aylantirish, aks ettirish, burilish va boshqalar kiradi.

Simmetriya tekisligi deb, molekula bu tekislikda aks ettirilganda uning holati o'zgarmay qoladigan tekislikka aytildi. Masalan, suv molekulasi ikkita simmetriya teksiligiga ega. Etilen molekulasi esa bir-biriga perpendikulyar bo'lgan uchta simmetriya tekisligiga ega. Simmetriya tekisligi σ - orqali belgilanadi.


Simmetriya elementining ikkinchi xili aylanish o'qidir. Aylanishning simmetriya o'qi deb molekulani φ -burchakka burganda u o'zining dastlabki holatiga qaytishini ta'minlovchi chiziqli aytildi. Simmetriya o'qi har xil tartibli bo'ladi. O'qining tartibi molekulani 360° ga aylantirganda u necha marta o'z dastlabki holatiga oniy holatga o'tishini ko'rsatadi. Suv molekulasi ikkinchi tartibli simmetriya o'qiga ega. Simmetriya o'qi C harfi bilan ifodalanadi, indeks sifatida uning tartibi ko'rsatiladi. C_n - n- chi tartibli simmetriya o'qi. Suv uchun $n = 360/180=2$, ammiak molekulasi uchun $n = 3$ ga teng: $360/120=3$ va h.k. NH_3 molekulasida C_3 dan tashqari yana 3 ta simmetriya tekisligi bo'lib, ular NH bog'lari va qarama-qarshi tomondagи katetning yarmi orqali o'tadi.

Uchinchchi xil simmetriya elementi simmetriya markazidir. Material nuqtalar sistemasining **simmetriya markazi** deb uning barcha nuqtalarini shu nuqta orqali aks ettirgan paytda sistemaning holati dastlabki holatga o'xshash bo'lishini ta'minlaydigan nuqtaga aytildi.

Trans-1,2-dixloretilenning simmetriya markazi bor, tsis-1,2-dixloretilen esa simmetriya markaziga ega emas.




I va II holatda turgan molekulalar o'zaro aynidir



Bu molekula simmetriya markaziga ega emas.

Simmetriya markazi i harfi bilan ko'rsatiladi. Molekulada bo'lishi mumkin bo'lgan simmetriya elementlaridan yana biri «burib aks ettirish» simmetriya elementidir. Buning uchun molekulani avval ma'lum φ- burchagiga buramiz va so'ngra struktura elementlarini ma'lum tekislikda aks ettiramiz.




CCl_4 , CH_4 molekulalari o'z holiga qaytdi.

7. 3-§. Ichki aylanish va burilish izomerlari

Ichki aylanish molekulalar ichida ro'y beradigan hodisalardan bittasidir. Ichki aylanish deb molekulaning ayrim bo'laklarini, ya'ni atomlar guruhlarini ichki kinetik energiya hisobiga guruhlarni o'zaro bog'lab turuvchi kimyoviy bog'lar (bular albatta δ-bog'lar bo'lishi kerak) atrofida bir-biriga nisbatan aylanishiga aytildi. Aylanish davomida bu guruhlar ma'lum qiymatga ega bo'lgan potensial to'siqni yengib o'tishi kerak. Agar potensial to'siqning energiyasi 3 kkal yaqin bo'lsa, aylanish ozod kechadi. Bunga etan molekulasidagi metil guruhlarining bir-biriga nisbatan aylanishi misol bo'ladi.

Agar potensial to'siqning qiymati 3 kkaldan katta bo'lsa, aylanish tormozlangan bo'ladi. Buni 1,2- dixloretan molekulasi misolida ko'rish mumkin (7.1.rasm). Agar potensial baryer 5 dan katta bo'lsa, aylanayotgan guruhlarda fazoviy to'siqlar mavjud bo'ladi va natijada, hatto birlamchi bog' atrofida ham aylanish

taqiqlangan bo'ldi. Bunday hollarda guruhlar bog'lar atrofida 5-20° ga buriladilar xolos. Molekulaning bunday konformatsiyasi barqaror bo'lib, molekula «qattiq» sistema deb qaralishi mumkin.



Ichki aylanish ayniqsa polimerlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lган hodisadir. Poliakrilonitril, polikarbonatlar, polivinilklorid kabi polimerlar qattiq zanjirli polimerlar bo'lib, ular plastifikatsiyalangan holda ekspluatatsiya qilinishi talab qilinadi.

Savollar:

1. Molekulyar orbitallar hosil bo'lishida qanday faktorlar ahamiyatga ega?
2. F₂, C₂, CO larning molekulyar orbitallar nazariyasi asosida tuzilish formulalarini yozing.
3. Simmetriya tekisligi va simmetriya o'qi nima? Misollar keltiring.
4. Komformatsiya nima?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Степанов Н. Ф. "Квантовая механика и квантовая химия." М.: Мир, 2001, 519 с.
2. Минкин В.И., Симкин Б.Я., Миняев Р.М. "Теория строения молекул", учебное пособие. Ростов-Дон: Феникс, 1997, 407 с.
3. Татевский В.М. "Строение и физикохимические свойства молекул и веществ." М.: Изд-во МГУ, 1994, 463 с.
4. Болотин А.Б., Степанов Н.Ф. "Теория групп и её применения в квантовой механике молекул." Вильнюс: Изд-во "Элком", 1999, 246 с.
5. Вилов Л.В., Пентин Ю.А. "Физические методы исследования в химии. Структурные методы и оптическая спектроскопия". М.: Высш. шк., 1987. 366 с.

6. Симкин Б.Я., Клецкий М.Е., Глуховцев М.Н. "Задачи по теории строения молекул." Ростов-Дон: Феникс. 1997 г.
7. Новаковская Ю.В. "Молекулярные системы. Теория строения и взаимодействия с излучением", части I, II, III. Москва: УРСС, 2004, 2005.
8. Iskandarov S, Sodiqov B. Organik kimyo nazariy asoslari. Toshkent. 1987.640 b.
9. Харгиттаи И., Харгиттаи М. Симметрия глазами химика. М.:Мир, 1989.
10. Асланов Л.А. Структуры веществ. М.: Изд-во Моск. Ун-та, 1989.
- 11.Фларри Р. Группы симметрии. Теория и химические приложения. М.:Мир, 1983.

VIII BOB. MOLEKULALARNING ELEKTR XUSUSIYATLARI. QUTBLANUVCHANLIK. MOLYAR REFRAKSIYA

8.1-§. Elektr tabiatini va kashf qilinishi tarixidan ayrim lavhalar. Dipol momenti va uning temperaturaga bog'liqligi

Moddalarning elektr xususiyatlari to'grisida gap borganda, ularning elektr zaryadiga ega bo'lgan zarrachalardan tashkil topganligini hisobga olish kerak. Bir xil zaryadlangan zarrachalarning o'zaro itarilishi, har xil zaryadlangan zarrachalarning esa bir-biriga tortilishi mumkin. Ularning paydo bo'lish yo'sinaga qarab "shisha" va "saqich elektr" deb yuritiladi (*Sh. F. Dyufe, 1733*). Ishqalanish natijasida hosil bo'layotgan elektr zaryadlari bir xil materiallarda (quruq shisha, matolar) saqlanib turishi, boshqa jismlar tomonidan esa o'tkazib yuborilishi aniqlandi. Ingliz olimi Stiven Grey tomonidan o'tkazilgan bu tajribalar asosida, fanga birinchi marta elektr o'tkazgich va izolyator tushunchalari kiritildi.

Leyden bankasining kashf qilinishi elektr kondesator (zaryad to'plovchi, yig'uvchi) ning yaratilishiga olib keldi. Havo ham shisha kabi izolyator rolini o'ynashi, chaqmoqning paydo bo'lishi bilan Leyden bankasi vositasida uchqun hosil qilinishi fizikaviy asosi bir xil, ya'ni musbat va manfiy elektr zaryadlarini miqdor jihatdan o'zaro tenglashishi ekanligi ko'rsatildi. Franklend elektr zaryadlari o'tkir uchli jismlarda yig'ilishini o'rganib, uning amaliy tatbig'i sifatida momaqaldiroqni uzatuvchi (gromootvod) larni kashf qildi va baland binolarni chaqmoq xafidan asrash uchun ularga yer bilan tutashtirilgan uzun metall tayoqchalar o'rnatish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi, hamda uning amalga oshirilishiga erishdi. Elektr toki o'tkazgichlardan o'tayotganda ularni isitishi, hatto eritib yuborishga qodir ekanligi kashf qilindi. Genri Kavendish tomonidan turli materiallar har xil qarshilikka ega ekanligi aniqlandi. Bekkaria degan olim o'tkazgichlar o'rtasida elektr uchquni paydo bo'layotgan paytda,

ularda magnit xossalari paydo bo'lishi yoki o'zgarishhini kuzatdi. Bu bilan u elektr va magnit hodisalari o'ttasida o'zaro bog'liqlik bor bo'lsa kerak, degan juda muhim taxminiy fikri aytdi. Bu taxmin keyinchalik tog'ri bo'lib chiqdi. Bunday taxminga **Bekkaria** *Franklinning* 1791-yilda o'tkazgan tajribasi vaqtida, elektr batareyasi temir sim orqali zaryadsizlanayotgan vaqtida sinning magnitlanishi yoki magnit qutblarining o'zaro almashinishi hodisalarni ko'rsatganligini hisobga olgan holda kelgan edi. Bu ishlar va bildirilgan fikrlar naqadar muhimligini anglab yetgan Jozef Pristli o'zining 1767-yilda Londonda nasr qilingan "Elektr tarixi va hozirgi zamон holati, original tajribalar" degan asarida agar bu fikrlar tasdiqlansa, ular bizning tabiat qonunlari to'g'risidagi tushunchalarimizni soddalashtiradi, deb karomat qilgan edi. Darhaqiqat, hozirgi zamonda moddalarning tuzilishi va xususiyatlari ayni elektr va magnit kuchlari asosida batatsil va izchil tushuntirib kelinmoqda.

Elektr kondensatori yasash uchun shisha o'miga havo ham juda o'rini izolyator bo'lishi mumkinligini Peterburglik fizik **Frans Epinus** (1724 – 1802 yy.) 1756-yilda taklif qilgan. Bu bilan u havoning ham muhim dielektrik ekanligini tasdiqladi. Epinusgacha shisha o'zining alohida ichki tuzilish tufayli o'z ichida zaryad yig'adi, deb faraz qilinar edi. Epinus esa zaryad kondensator plastinkalarda yig'lishini, shisha, havo yoki xohlagan boshqa elektr o'tkazmaydigan material zaryadning plastinkalarda saqlanishida va kuzatilishi to'g'risidagi fikri oydinlashtirdi. **Bekkaria** ham, **Epinus** kabi 1754-yilda shisha o'rniga izolyatsiyalovchi qavat sifatida saqichdan, oltingugurt saqichi, saqich va kanifol aralashmasidan foydalanish mumkinligini va har xil material turlicha izolyatsiyalash xossasiga ega ekanligini ko'rsatdi, dielektrik doimiyligi to'g'risidagi ilk fikr edi.

Elektrga tegishli muhim hodisalardan yana biri Kulon qonuning kashf qilinishidir. Fanlar va bilimlar tarixini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ko'p hollarda ayrim hodisalarni tushuntirish uchun o'tkazilgan tekshirishlar va tajribalar asosida ayrim qonuniyatlarni keltirib chiqarish uchun o'xshashliklardan unumli

foydalaniлади. Shunday holni biz Kulon qonuni kashf qilinishi misolida yaqqoi ko'ramiz. Zaryadlangan zarrachalar o'rtasida tortilish yoki itarilish kuchining ular orasidagi masofaga qanday bog'langanligini aniqlash ustida fikr yuritgan olimlar, dastavval Nyutonning butun olam tortilish qoonuniga binoan o'zaro tortilayotgan jismlar, obyektlar o'tasidagi tortilish kuchi ularning massalariga to'g'ri proporsional, og'irlik markazlari orasidagi masofaga teskari proporsional ekanligini nazarda tutgan bo'lislari kerak. *Fizikada bunday ta'sirlar masofaning kvadratiga teskari proporsional bo'lgan kuchlar vositasida ro'y beradigan ta'sirlar deyiladi.* Ular qatoriga gravitatsion ta'sir ham kiradi.

Elektr zaryadlari ustida ish olib borgan Epinus, Kavendish, Pristli, Bekkariyalar elektr zaryadlarining o'zaro ta'sir kuchini ifodalovchi qonunni taxmin qilgan bo'lsalar ham, uni aniq holda ta'riflay olmadilar.

Bunga fransuz harbiy muhandisi Sharl Ogyusten Kulon tuyassar bo'ldi. U matematik mayatnikning tebranish chastotasi og'irlik kuchining Yer sharining har bir nuqtasida o'ziga xos ekanligi bilan bog'liqligini hisobga olgan holda, elektrlangan strelkaning gorizontaf tekislikda tebranish chastotasi unga ta'sir qiluvchi elektr kuchining miqdoriga bog'liq, degan fikrga asoslanib, o'zi kashf qilgan burilma tarozilar vositasida tajribalar o'tkazdi va juda kichik kuchlarni ham o'chay olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu ishlar natijasida o'z nomini abadiylashtirgan olim **Kulon** qonunini (1789y.) kashf qildi. Bu qonunning formulasi quyidagicha:

$$F_{kul} = \frac{e_1 e_2}{4\pi\epsilon r^2}$$

Bu yerda; e_1 va e_2 o'zaro tasirlashuvchi elektr zaryadlarining miqdori;

ϵ – muhitning dielektirk doimiyligi;

r – o'zaro tasirlashaytgan elektr zaryadlarining og'irlik markazlari orasidagi masofa;

F ning noldan katta yoki kichik bo'lishi, ya'ni ishorasi e₁ va e₂ larning zaryad ishoralariga bog'liq.

Atomlar qutbli bog' bilan birikkan bo'lsa, molekula ham qutblangan bo'ladi. Molekulaning qutblanganlik darajasini aniqlash uchun dipol momentidan foydalaniadi. Miqdorlari bir-biriga teng ikkita qarama-qarshi zaryaddan hosil bo'lgan sistema "dipol" deyiladi. "Dipol" so'zining ma'nosi "di" – ikki, "polyar" – qutb. Qutbli molekuladagi ortiqcha mansiy va musbat zaryadlar miqdori teng bo'ladi. Dipolning zaryadlar yig'indisi nolga teng bo'lsa ham, uni o'rabi turgan fazodagi elektr maydoni hosil bo'ladi. Zaryadlar orasidagi masofa *l* ga zaryadlar miqdori (*q*) ning ko'paytmasiga **dipol moment** deyiladi.

$$\mu = q \cdot l$$

bu yerda; *q*- elekrostatik zaryad birligi;

l- molekuladagi musbat va manfiy zaryadlar markazlari orasidagi masofa.

8.1-jadval

Molekulalarning dipol momenti, D

Molekula	μ	Molekula	μ	Molekula	μ	Molekula	μ	Molekula	μ
H ₂	0	HF	1,82	NO	0,13	CO ₂	0	CH ₄ ;CCl ₄	0
O ₂	0	HCl	1,07	H ₂ S	0,93	SO ₂	1,61	CH ₃ Cl	1,86
N ₂	0	HBr	0,79	NH ₃	1,46	SO ₃	0	CH ₂ Cl ₂	1,57
Cl ₂	0	HI	0,38	PH ₃	0,55	SF ₆	0	CHCl ₃	1,15
J ₂	0	H ₂ O	1,84	AsH ₃	0,15	CS ₂	0	C ₆ H ₆	0

Molekulalarning dipol momenti, odatda, debay (*D*) bilan o'chanadi:

$$1D = 3,33 \cdot 10^{-30} KI \cdot m$$

Masalan, suv uchun $l=0,384 \cdot 10^{-8}$ sm

$$q=4,8 \cdot 10^{-10} \text{ elek.st.bir. } \mu=4,8 \cdot 10^{-10} \cdot 0,384 \cdot 10^{-8}=1,84 \cdot 10^{-18} \text{ esb.}$$

Molekulaning dipol momentini tegishli moddalarning ba'zi bir xossalari o'chanash orqali aniqlash mumkin. Shunday qilib, topilgan dipol momentining qiymati molekularning geometrik tuzilishi to'g'risida muhim ma'lumot, ya'ni informatsiya beradi.

Molekulaning dipol momenti undagi barcha kimyoviy bog'lar

dipol momentlarining geometrik (vektor) qo'shilish natijasida topilgan natijaviy vektor uzunligi bilan ifodalanadi. Molekula dipol momenti mikroto'lqin spektroskopiya bilan aniqlanadi. Molekulaning dipol momenti ma'lum bo'lsa, valent burchaklarni hisoblash mumkin. Valent burchaklarni bilgan holda, molekulaning fazoviy shakli aniqlanadi.

8.2-§. Molekulalarning oriyentatsion, atom va elektron qutblanuvchanligi

Har qanday kimyoviy zarracha uchun qutblanuvchanlik xususiyati xos. Biror qutbli molekula elektr maydoniga kiritilsa, molekuladagi musbat zaryadlar elektr maydonining manfiy qutbiga, manfiy zaryadlar elektr maydonining musbat qutbiga baravariga tartibli joylashadi. Natijada molekulaning dipol momenti ortadi. Chunki doimiy dipol uzunligi ortib, molekula bir oz cho'ziladi. Molekula qutbliligining bu xilda o'zgarishi **oriyentatsion qutblanish** deyiladi.

Elektr maydonini ayni molekuladagi boshqa atomlarning yadro va elektronlari hosil qilishi mumkin. Bunda molekula ichida qutblanish sodir bo'ladi. Elektr maydoni boshqa molekulalardagi atomlar hisobiga ham yuzaga kelishi mumkin. Natijada oriyentatsion qutblanish sodir bo'ladi. U temperaturaga bog'liq. Temperatura ortganda oriyentatsion qutblanish kamayadi. Chunki temperatura molekulalarning harakatlanishini kuchaytirib, ularning elektr maydoni mos holda joylashishini qiyinlashtiradi va buzadi.

Qutbsiz kovalent bog'li molekula elektr maydoniga kiritilganda ham molekula qutblanishi mumkin. Bunda qutbsiz molekuladagi elektronlar EM musbat qutbiga, yadrolar manfiy qutbiga tomon yo'naladi va siljiydi, dipol hosil bo'ladi. Elektronlarning siljishidan vujudga keladigan qutblanish elektron qutblanish (P_{el}), yadrolarning siljishidan yoki atomlarning tebranishidan hosil bo'ladi qutblanish atom qutblanish (P_{at}) deyiladi. Umuman bunday qutblanish turi **deformatsion yoki induksion qutblanish** deyiladi.

Induksion qutblanish molekuladagi doimiy dipoldan farq qilib tashqi elektr maydoni olinganda tezlik bilan yo'qoladi. Induksion qutblanish molekuladagi atomlarning o'chami hamda elektronlar soni ortishi bilan kuchayadi. Induksion (P_i) va oriyentatsion qutblanishlar (P_o) yig'indisi molekulyar qutblanuvchanlik (P_m) ni hosil qiladi:

$$P_m = P_o + P_{el} + P_{at}$$

Molekulaning qutblanuvchanligi tashqaridan ta'sir etuvchi elektr maydonning chastotasiga bog'liq. Pastroq chastotalarda 10^{12} gsdan kichik molekulalar, ulardagi atom va elektronlar tashqi maydon yo'nalishining o'zgarishiga mos yo'nalishda joylashadi. Ya'ni har uchala qutblanish mavjud bo'ladi. Yuqori chastotalarda (10^{12} - 10^{14} gs) molekulalar tashqi maydon yo'nalishiga qarab joylasha olmaydi va oriyentatsion qutblanuvchanlik yo'qoladi. Yanada yuqori chastotalarda atom qutblanish ham nolga teng bo'ladi. Molekulalarning qutblanuvchanligi elektron qutblanishdan iborat bo'lib qoladi. 1850-yilda italyan olimi O.F.Mosotti molekulyar qutblanuvchanlikni aniqlagan:

$$\frac{\varepsilon - 1}{\varepsilon + 2} = \frac{4\pi}{3} N_a \quad (8.1)$$

$$P_m = \frac{\varepsilon - 1}{\varepsilon + 2} \cdot \frac{M}{d} \quad (8.2)$$

bu yerda; M - moddaning molekulyar massasi;
 d -moddaning zichligi;

ε - dielektrik singdiruvchanlik; $\varepsilon = \frac{1}{\mu_0 c^2}$; $\varepsilon = 8,854 \cdot 10^{-12} \text{ F} \cdot \text{m}^{-1}$;

Keyinchalik Debay oriyentatsion qutblanishni hisoblash formulasini topdi:

$$P_o = \frac{4}{3} \pi \cdot N_a (\mu^2 / 3KT) \quad (8.3)$$

bu yerda; N_a -Avogadro soni;

K-Bolsman konstantasi $K = 5,67 \cdot 10^{-8}$;

T-absolyut temperatura;

μ -molekulaning dipol momenti.

Induksion qutblanish P_i bo'lsa

$$P_t = \frac{4\pi N_a}{3} \cdot \alpha \quad (8.4)$$

α -qutblanuvchanlik.

Keyinchalik 1879 yilda fizik R.Klauzius va O.Mosotti 8.2 va 8.4 formulalarni umumlashtiradilar:

$$\frac{\epsilon - 1}{\epsilon + 2} \cdot \frac{M}{\rho} = \frac{4\pi}{3} N_A \alpha \quad (8.5)$$

Demak. bu 8.2., 8.3. va 8.4. formulalarni umumlashtirsak, quyidagi holatga keladi:

$$P = P_a + P_{ap} = \frac{\epsilon - 1}{\epsilon + 2} \frac{M}{d} = \frac{4}{3} \pi N_A (\alpha + \mu^2 / 3 kT), \quad (8.6)$$

Bu formula *Klauzius - Mosotti* tenglamasi deyiladi. Demak, temperatura ortgan sari moddaning qutblanuvchanligi P kamayadi. Klauzius-Mosotti nomi bilan aytildigan bu formulaga binoan moddalarning elektr xossalari ularning tashqi elektr maydonidagi holatini tekshirish, tahlil qilish yo'li bilan aniqlanadi.

8.3-§. Lorens-Lorens tenglamasi

Yorug'lik nazariyasidan ma'lumki, yuqori chastotalarda dielektrik singdiruvchanlik sindirish ko'rsatkichining (SK) kvadratiga $\epsilon = n^2$ (Maksvell formuulasi) ga teng. Dielektrik sindiruvchanlik va elektron qutblanuvchanlik orasidagi bog'liqlik *Lorens-Lorens* formuulasi bilan ifodalanadi. Bu formuladan moddaning sindirish ko'rsatkichi n tarkibidagi zarrachaning elektron qutblanuvchanligiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Uni 1880-yilda *X.A.Lorens* va undan bexabar holda daniyalik fizik *L.Lorens* tuzdilar.

$$\frac{n^2 - 1}{n^2 + 2} = \frac{4}{3} \pi N_A \alpha$$

bu yerda: n - muhitning sindirish ko'rsatkichi (SK) bo'lib, yorug'likning vakuumdagi tezligini uning muhiddagi tezligiga nisbatidir. $n = \frac{c}{v}$ Sindirish ko'rsatkichi ko'pincha yorug'likning tushish burchagi sinusining sinish burchagi sinusiga nisbati bilan

ifodalanadi. Sindirish ko'rsatkichi berilgan temperaturada tushayotgan nurning to'lqin uzunligiga bog'liq, tushish burchagiga esa bog'liq emas. Shuning uchun sindirish ko'rsatkichi nur to'lqin uzunligi va temperatura bilan birga ko'rsatiladi. Yorug'lik nuri bir muhitdan boshqasiga o'tganda uning tezligi va yo'nalishi o'zgaradi. Bu hodisaga nur sindirish yoki refraksiya deyiladi. Refraktometriya lotincha so'zdan olingen bo'lib, "refractus"- sindirish va "metriya" -o'lchash, degan ma'noni bildiradi. Gaz suyuq va qattiq moddalarning sindirish ko'rsatkichini aniqlash mumkin. Suyuqliklarning tozaligi refraksiya bo'yicha aniqlanadi. Ular ma'lum spravochniklarda (8.2jadval) beriladi. Nur sindirish ko'rsatkichi haroratga bog'liq bo'ladi. Harorat 1°C ga ortganda sindirish ko'rsatkichi 0,04 ga kamayadi. Suyuqliklarning sindirish ko'rsatkichi laboratoriyada IRF-22 refraktometr asbobida aniqlanadi. Refraksiyadan foydalanib, organik moddalarni ta'riflash va tozaligini aniqlash mumkin.

$$P_m = \frac{n^2 - 1}{n^2 + 2} \cdot \frac{M}{d} \quad (8.6)$$

Yuqori chastotalarda atom va oriyentatsion qutblanish amalga oshmaydi, deb aytgan edik. Demak, molekulyar qutblanuvchanlik faqat elektron qutblanishdan iborat bo'lib qoladi. 8.6. formuladan sindirish ko'rsatkichi (n) va zichlik (d) ni aniqlab molekulaning qutblanuvchanligini hisoblash mumkin.

8.4-§. Molyar refraksiya va uni hisoblash usullari

Molekulalarning elektron qutblanuvchanligi P_m molekulyar refraksiya (MR) ham deyiladi. Molekulyar refraksiya muayyan modda uchun o'zgarmas kattalik bo'lib, temperaturaga bog'liq emas. Temperatura o'zgarganda n va d kattaliklarining biri oshsa, ikkinchisi kamayadi. MR moddaning tabiatи (tarkibi va tuzilishi) ga va atom radiusiga bog'liq. MRni eksperimental va nazariy 8.6 formuladan aniqlash mumkin. Nazariy hisoblash metodi refraksiyaning additiv kattalik ekanligiga asoslanadi. Molekula tarkibiga kiruvchi atom, guruh va bog'lar refraksiyalari asosida molekulyar refraksiya hisoblanadi.

Turli element atomlarining, shuningdek, bog'larning refraksiyaları quyidagi 8.2-jadvalda keltirilgan.

Masalan: Etil spirti yoki dietilefirining molekulyar refraksiyaları nazariy quyidagicha hisoblanishi mumkin.

1) Alovida atomlar refraksiyaları yig'indisi $R_{C_2H_5OH} = 2r_c + 6r_H + r_o$

2) Alovida guruhlar refraksiyaları yig'indisi $R_{C_2H_5OH} = rCH_3 + rCH_2 + rOH$

3) Alovida bog'lar refraksiyaları yig'indisi $R_{C_2H_5OH} = 5rC-H + rC-C + rO-H$ aniqlanadi.

Bu uch usul bilan ayni birikmalar uchun hisoblab topilgan natijalar har xil. Bu usullardan hech biri ko'p sonli atomli molekulalarga tadbiq etilmaydi, ya'ni additiv natijalar olinmaydi.

Masalan, to'yinmagan birikmalarning tajribada topilgan MR nazariy hisoblangan atom refraksiya yig'indisidan katta. Misol C_5H_{10} uchun $R_{taj} = 24,83$ $R_{naz} = 23,09$; Farq $24,83 - 23,09 = 1,74$.

8.2-jadval

No	Element	Refraksiya	No	Element	Refraksiya
1.	C	2,418	6	Cl	5,967
2.	H	1,1	7	Br	8,865
3.	O (aldegid va ketonlar)	2,21	8.	J	13,9
4.	O (OH guruhidagi)	1,643	9.	C=C	1,733
5.	O (efirlardagi)	1,525	10.	C≡C	2,393
No	Bog'	Refraksiya	No	Bog'	Refraksiya
1.	C-H	1,676	11.	S-H	4,8
2.	C-C	1,296	12.	N-H	1,76
3.	C-Cl	6,51	13.	N-N	1,99
4.	C-Br	9,39	14.	C=C	4,17
5.	C-J	14,61	15.	C≡C	5,87
6.	C-O	1,54	16.	C=O	3,32
7.	C-S	4,16	17.	C=S	11,91
8.	C-N	1,57	18.	C=N	3,76
9.	O-H (spirtardagi)	1,66	19.	C≡N	4,82
10.	O-H (kisiotafardagi)	1,80	20.	N≡N	4,12

Molekuladagi qo'shbog' tufayli molekulyar refraksiyaning bunday ortishi qo'shbo'g inkrementi (incrementum- ortish) yoki **refraksiya ekzaltasiyasi** deyiladi. Bu chetlanish 1 % dan oshmaydi.

8.2-jadvaldan ko'rindik, davriy sistemadagi bitta guruhga mansub elementlar hosil qilgan bog'larning refraksiyaları

atomining o'lchamiga bog'liqdir. Atom o'lchami katta bo'lsa, bog' refraksiyasi ham katta bo'ladi va aksincha, atom o'lchami kichik bo'lsa, bog' refraksiyasi kichik bo'ladi. Qo'shbog' va uchbog' refraksiyasi ham oddiy bog'nikidan katta, chunki π bog' elektronlari σ bog'nikidan harakatchanroq bo'Iganligidan π bog'lar oson qutblanadi. C=C, C=N, C=O da refraksiya kamayib boradi. O, N ning elektromansiylik qiymati (EM) katta bo'Iganligi uchun elektronlarni C ga nisbatan mustahkam ushlab turadi. Bu esa, qutblanish vaqtida elektronlarning siljishini qiyinlashtiradi. Demak, molekulyar refraksiya (MR) molekulaning qutblanuvchanligi bilan bog'liq kattalik. Turli moddalarning refraksiyasini topish ular molekulalarining elektron qobig'inining tuzilishini va o'ziga xos tomonlarini chuqurroq o'rghanishga yordam beradi. Molekulyar refraksiya yordamida moddalarning struktura formulalarning to'g'riligini ham tekshirishi mumkin.

Savollar:

1. Dipol momenti nima va u qanday aniqlanadi?
2. Qutblanuvchanlik va uning turlarini tushuntiring.
3. Dielektrik singdiruvchanlik deb nimaga aytildi?
4. Lorens-Lorens formulasini tushuntirib bering.
5. Molyar refraksiya va uning inkrementi nima?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ландау Л. Д., Лифшиц Е. М. Теория поля. — Издание 7-е, исправленное. — М.: Наука, 1988. — 512 с.
2. Минкин В. И., Осипов О. А., Жданов Ю. А., Дипольные моменты в органической химии. Л., 1988; 178с.
3. Осипов О. А., Минкин В. И., Гарновский А. Д., Справочник по дипольным моментам, 3 изд. М.: 1971; 85с.
4. Вилков Л.В., Пентин Ю.А. Физические методы исследования в химии. Структурные методы и оптическая спектроскопия. М: Высшая школа, 1987.
5. Бацанов С. С. Структурная рефрактометрия, М., 1979;
6. Иоффе Б. В. Рефрактометрические методы химии, 2 изд., Л., 1978.

IX BOB. MOLEKULALARNING MAGNIT MOMENTI. MULTIPLETLIK. SPIN-SPIN TA'SIR. YADRO MAGNIT VA ELEKTRON PARAMAGNIT REZONANS

9.1-§. Molekulalarning magnit momenti va magnitlanuvchanlik

Magnetizm – birikmalarning magnit maydondagi magnit qutblanuvchanligini tadqiq qiladi. Magnitlanuvchanlik molekulalarning elektronlariga tegishli bo'lib elektronning magnit momenti protonning magnit momentidan 2000 marta katta bo'ladi.

Magnetizmning 4 ta turi mavjud:

- 1.Diamagnetizm
- 2.Paramagnetizm
- 3.Ferromagnetizm
- 4.Antiferromagnetizm

Diamagnetik moddalar magnit maydon sust bo'ladi. Fosfor, otingugurt, surma, simob, oltin, kumush, mis suv va organik moddalar misol bo'ladi.

Paramagnetiklarda magnit maydon biroz kuchayadi. Kislorod, azot, alyuminiy, platina, volfram kabi moddalar misol bo'ladi.

Ferromagnetiklarda magnit maydon juda kuchayib ketadi. Temir, nikel, kobalt, kabi metallar va ularning qotishmalari kiradi.

Multipletlik. Atom yoki molekulaning spin kvant sonini xarakterlaydigan kattalik. Quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$M = 2 \sum_{n=1}^N S + 1$$

bu yerda: M-multipletlik; N- elektron soni; S- spin kvant soni.

Ko'pgina molekulalardagi elektronlar juftlashgan bo'ladi, shuning uchun ularning asosiy holatida spin yig'indisi nolga teng bo'ladi, ya'ni $M=1$ (singlet holatida) bo'ladi. $M=2$ bo'lsa dublet, $M=3$ triplet, $M=4$ kvadruptet, $M=5$ kvintet, $M=6$ sekstet, $M=7$ septet, $M=8$ oktet va ko'p bo'lsa multiplet deyiladi.

9.2-§. Yadro magnit rezonans

Yadro magnit rezonans (YaMR) usuli 1950-yillardan boshlab organik moddalarning tuzilishini (strukturasini) o'rganishda qo'llanila boshlandi. Bu usulni 1945-1946-yillarda bir-biridan bexabar holda ikkita olimlar F. Blox va E. Pyorsell kashf qilishgan. Hozirgi paytda bu usul juda keng foydalanib kelinmoqda va juda samarali hisoblanadi. YaMR spektroskopiyada ham boshqa spektroskopiya turlaridagiday Plank nazariyasi $\Delta E = h\nu$ ga asoslanadi. YAMRda energiyaning o'zgarishi yadroning magnit xossasi bilan bog'liq bo'ladi.

Har bir yadro I-spin kvant soni bilan xarakterlanadi. U 0, $1/2, 1, 3/2, 2, \dots$ va hokazo qiymatlarga ega bo'lishi mumkin.

Juft massa soni va juft atom nomeriga ega bo'lgan yadrolar uchun spinlari nolga teng bo'ladi (misol C^{12} , O^{16}) juft massa soniga va toq atom nomeriga ega bo'lgan yadrolar uchun spin birga teng bo'ladi (misol N^{14} , H^2), agar atom massasi va atom nomeri toq bo'lsa, spinlari kasr songa teng bo'ladi. ($I=1/2$: H^1 , F^9 , C^{13} , P^{31} ; $J=3/2$: B^{11} , Cl^{35} , Cl^{37} , Br^{81} ; $J=5/2$: O^{17} , J^{127} uchun) va hokazo.

Yadro I spini bilan magnit maydonida $2I+1$ holatda bo'lishi mumkin.

Spini 0 ga teng bo'lgan yadro magnit maydonida faqat bitta energetik holatda [2 0+1] bo'ladi. Bunday yadrolar YAMRni o'rganish obyekti hisoblanmaydi. Spini 1 va undan katta bo'lgan yadrolar magnit momentidan tashqari ular elektrik kvadrupol momentiga ham ega bo'ladilar (masalan N^{14} , H^2 , Cl^{35} , Br^{81}). Bularning xossalari yadro kvadrupol rezonans yordamida o'rganilishi mumkin. $1/2$ spinga ega bo'lgan yadrolar (H^1 , F^9 , C^{13} , P^{31}) tashqaridan berilgan magnit maydonida ikki xil energetik holatda (2 · $1/2+1$) bo'lishi mumkin. Birinchisi tashqaridan berilgan magnit maydoniga H_0 yadroning magnit momenti μ ga parallel yo'nalishda [magnit kvant soni $m=+1/2$] va ikkinchisi H_0 ga antiparallel [magnit kvant soni $m=-1/2$] 9.1-rasmga qarang.

Tashqi Magnit maydoni
bo'rnaganda yadro enerqiyasi

$m = +1/2 (\mu H_0 \text{ ga antiparallel yonalgan})$

$m = +1/2 (\mu H_0 \text{ ga parallel yonalgan})$

9.1-rasm. Spini I=1/2 bolgan yadroning energetik pog'onasining (magnit maydonida) ajralishi.

Energetik pog'onalar orasidagi masofa yadroning magnit momentining kattaligiga va tashqi doimiy magnit maydonining kuchlanishiga bog'liq bo'ladi. $\Delta E = 2\mu H_0 = \gamma \frac{\hbar}{2\pi} \cdot H_0$

bu yerda; γ - ayni yadroni xarakterlovchi giromagnit nisbat.

Bu quyidagi tenglamadan topiladi; $\gamma = \frac{2\pi\mu}{hJ}$; Bor qoidasiga asosan $E = hv$ ga. Demak, $v = \frac{\gamma}{2\pi} H_0$ ga. Bu formula yadro magnit rezonans-ning asosiy tenglamasi hisoblanadi. Shunday qilib, yadro magnit rezonansni ko'rish, kuzatish uchun namunani kuchli bir jinsli magnit maydoni H_0 ga qo'yish kerak va asosiy tenglamani qanoatlantiradigan v chastotali nurlanish bilan unga ta'sir qilish lozim. Shunday sharoitdagina yadro bir gorizontal o'zgaruvchan H magnit pog'onadan ikkinchi pog'onaga ko'chib o'tishlar kuzatiladi. (Yuqori yoki pastki pog'onaga o'tish ehtimoli bir xil, deyarli teng) ammo, har bir pog'onada joylashgan magnitlangan yadrolar soni qisman har xil bo'ladi; pastki pog'onada joylashgan magnitli yadrolar soni biroz ko'proq bo'ladi, chunki sistema har doim ham energiyasini kamaytirishga intiladi. Odatdagi normal haroratda ($20-25^{\circ}\text{C}$) yuqori va pastki pog'onalarda joylashgan magnitli yadrolar farqi son jihatdan magnitli yadrolarning umumiyligi sonining 10^{-5} tasidan ortmaydi. Aynan ana shu ozgina farq yadro magnit rezonansini hosil bo'lishini ta'minlaydi, ya'ni radiochastotali nurlanishni yutilishi asosiy tenglamaga mos holda bo'ladi.

Rezonans chastota v bir xil kuchlanishli berilgan magnit maydonida yadroning magnit momentining kattaligi bilan aniqlanadi.

9.1-jadval

Yadro konstantasi I=1/2

Izotop	Tabiiy foiz miqdori, %	Magnit momenti, μ	Chastota MGs va maydon 10000 gs
^1H (Vodorod)	99,98	2,79270	42,577
^9F (Ftor)	100	2,6273	10,705
^{13}C (Uglerod)	1,1	0,70216	40,055
^{31}P (Fosfor)	100	11,26	17,235

Hozirgi vaqtida organik kimyoda yadro magnit rezonansi protonda -protonli magnit rezonans -PMR keng qo'llanilmoqda. Shu sababli, PMR qo'llashning asosiy prinsiplari bilan tanishamiz.

PMR spektrlari 2 xil parametr bilan xarakterlanadi.

1) Kimyoviy siljish; 2) spin-spinli o'zaro ta'sir konstantasi.

Qaysikim ular organik birikmalarning tuzilishi va molekulasida elektron zichligining taqsimlanishi bilan xarakterlanadi.


Kimyoviy siljish. YaMRning asosiy tenglamasiga binoan protonning rezonans siljishi berilgan maydonning kuchlanishi uchun faqat bitta xarakterli chastota [vaqt birligi ichida tebranishlar soni] berishi kerak edi. Biroq amalda esa protonning rezonans signali u proton qanday kimyoviy qurshovdaligiga qarab turli chastotalarda kuzatiladi. Rezonans signallarning siljishi diamagnitli ekranlanishi (elektronlar) bilan to'silishiga bog'liq bo'ladi. Chunki berilgan magnit maydoni H_0 ta'sirida ular (elektronlar) o'zining magnit maydonini hosil qiladi va bu berilgan magnit maydonni $-H_0$ ni kamaytiradi. Natijada, yadroning rezonans sharoiti asosiy tenglama bilan emas, balki $v = \frac{\gamma}{2\pi} H_0(1-\delta)$ formula bilan ifodalanadi. bunda; δ –o'lchamsiz son bo'lib ekranlash konstantasi deyiladi. Turli protonlarning rezonans signallari oraliq'idagi masofa kimyoviy siljish deyiladi. Absolyut kimyoviy siljishni (yani ekranlanmagan, to'silmagan protonning signaliga nisbatan, signalning siljishini) eksperimental yo'l bilan aniqlab bo'lmaydi, shuning uchun kimyoviy siljish etalon modda signaliga nisbatan o'lchanadi. Etalon sifatida bitta

yoki ekvivalent protonlar gruppasi bo'lsa, ko'p moddalardan foydalaniлади. Masalan, suv, dioksan, xloroform, siklogeksan, benzol, geksametildi-siklogeksan va boshqalar xalqaro etalon sifatida tetrametilsilan $(CH_3)_4Si$ (TMS) qabul qilingan. Buning signali ko'pchilik moddalar protonning signalidan ko'ra kuchli maydonda kuzatiladi. Etalon va namuna signallari oralig'idagi masofa berilgan maydonning kuchlanishiga (yoki chastotasiga) bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun kimyoviy siljish nisbiy birlisklarda maydonning milliondan qandaydir ulushlari bilan yoki rezonans chastotasi -gers (Hz), million hissa (m.h.) bilan o'lchanadi. (chet el adabiyotlarida ppm- parts per millions deyiladi).

$$Kim\ silj = \frac{H_{nam} - H_{et}}{H_0} \cdot 10^6 \text{ yoki } Kim\ silj = \frac{V_{nam} - V_{et}}{V_0} \cdot 10^6$$

Bunda H_{nam} - H_{et} yoki V_{nam} - V_{et} namuna va etalon kimyoviy siljishlarining farqi (gers Hz da ifodalanadi).




Proton magnit rezonansida kimyoviy siljishning 2 ta shkalasi; δ va τ qo'llaniladi. δ -shkalada tetrametilsilanning signali no'l deb qabul qilinadi va kimyoviy siljish kuchsiz maydonga tomon ortib boradi. τ -shkalasida esa tetrametilsilanning signali 10 deb

olinadi. $\tau = 10 - \delta$. Bunda kimyoviy siljish kuchli maydonga tomon ortib boradi.

Kimyoviy siljish proton magnit rezonansida asosiy xarakteristika hisoblanadi va molekula tuzilishiga bog'liq bo'ladi.

Kimyoviy siljishga bir tomondan proton atrofidagi elektronlar zichligi, ikkinchi tomondan qo'shni atomdagi va bog'lardagi elektronlarning aylanishi ta'sir ko'rsatadi. Har ikkala faktor ham molekulaning bevosita tuzilishi bilan bog'liq. Kimyoviy siljish tashqi faktorlar ta'sirida ham o'zgarishi mumkin. Masalan, eritma konsentratsiyasi, harorat, moddaning agregat holati. Moddalarning tuzilishini o'rGANISHDA tashqi faktorlarni yo'qotib, standart sharoitda o'chov ishlari olib boriladi. Metil gruppalarining C=O va C-O larga birikkanlarida protonlarning signallari bir-biridan farq qiladi.



Metil guruhining ham kimyoviy siljishlari ma'lum ahamiyat kasb etadi. Masalan, dimetilefirda ($\delta = 2.7$ m.h.) yod metilda ($\delta = 4.30$ m.h.). Agar ekranlashuv (pardalanish) faqat proton atrofidagi (uni o'rab turgan) elektronlar zichligiga bog'liq bo'lganda edi, u holda ekranlash konstantasi va protonning kislotaliligi bevosita bir-biriga bog'liq bo'lar edi. Haqiqatda esa bunaqa bog'liqlik juda ko'pehilik holatlarda kuzatilmaydi. Masalan asetilenning kislotali protoni kuchli maydonda joylashadi. ($\delta = 2-3$ m.h.). Aldegid protonining signali esa, aksincha, kuchsiz maydonda joylashadi. ($\delta = 9-10$ m.h.). Bu holat qo'shni atomning elektronlar toki va atomlararo (ichki molekulyar) tok ta'siridan kelib chiqadi. Ular berilgan magnit maydorini yadroni ekransizlash tufayli oshirishi va uning signalini kuchsiz maydonga siljishi yoki aksincha magnit

maydoniga qarshi yo'naladi, demak, ekranlashuvni ko'paytiradi va proton signalini kuchli maydonga siljitishti mumkin.

H-C-R	0,9-1,8	H-C-N R	2,2-2,9
H-C-C=C	1,6-2,6	H-C-Cl	3,1-4,1
H-C-C=O	2,1-2,5	H-C-Br	2,7-4,1
H-C≡C-	2,5	H-C-O	3,3-3,7
H-C-Ar	2,3-2,8	H-NR	1-3*
H-C=C-	4,5-6,5	H-OR	0,5-5*
H-Ar	6,5-8,5	H-OAr	6-8*
H-C-O	9-10	H-O-C-O	10-13**


Ekranlanish konstantasiga bo'lgan bunaqa hissalar molekulaning magnitli anizatropiyasi bilan belgilanadi. Masalan, galogenlar, uch bog', karbonil guruhi, uch a'zoli va aromatik halqalar anchagini katta magnit anizotropiyaga ega bo'ladi.

Kimyoviy siljishga yana gidroksil va boshqa guruhlarning vodorod bog'lanishi ham ta'sir ko'rsatadi.

9.3-§. Spin-spinli o'zaro ta'sirlashuv

Organik moddalarning tuzilishi haqida qimmatli ma'lumot faqat kimyoviy siljish orqali emas, balki spin-spinli bo'linish-ajralish xarakteri haqidagi bilim va ma'lumotlarga qarab ham olish mumkin. Qaysikim, noekvivalent protonlar spinlarining valent elektronlari orqali o'zaro ta'sirlashuvi natijasida spin-spinli parchalanish sodir bo'ladi. Agar ikki noekvivalent proton H_a va H_b dan iborat sistema bolsa, H_a protonning holati haqida ma'lumot va axborotni H_b protonning valent elektronlari orqali olinadi va aksincha beriladi. Yuqorida aytganimizdek, $\frac{1}{2}$ spinli yadro magnit momenti magnit maydonida ikki holatda bo'ladi; ta'sir qilayotgan magnit maydoniga mos va teskari yo'naligan. Berilgan magnit maydoniga bu holatlarning har biri o'zining hisasini qo'shadi. Demak, biz kuzatayotgan yadro ikki ma'lum

joyga xos bo'lgan maydon ta'sirida bo'ladi. Bulardan biri magnit maydonni ta'sirini Ho ga nisbatan kamaytirsa, ikkinchisi shuncha miqdor ko'paytiradi. Natijada H_b protoning kimyoviy siljishidan hosil bo'ladigan bitta signal o'rniiga ikkita signal hosil bo'ladi. Ular orasidagi masofa gers bilan ifodalanib, spin-spinli o'zaro ta'sir energiyasini I A B xarakterlaydi yoki ko'rsatadi, xuddi shunday holat H_a proton uchun ham kuzatiladi. Har ikkala yadro uchun spin-spinli parchalanish bir xil bo'ladi (9.2 rasm).



9.2 rasm Ikki noekvivalent protonlarning o'zaro spin-spinli ta'siri

Kimyoviy siljishlar bilan farq qiladigan protonlar saqllovchi CH-CH₂- sistemada C-H gruppasi protoni CH₂ gruppasining ikkita ekvivalent protonlari bilan o'zaro ta'sirlashadi. CH₂ gruppasidagi har bir proton ikki xil holatda bo'lishi mumkin va spinlari kombinatsiyasi to'rtga teng bo'ladi. O'zining protonining magnit maydoniga ko'rsatadigan ta'sir hissasi jihatdan ikkinchi va uchinchi kombinatsiya ekvivalentli, ya'ni teng va komponentlarning nisbiy intensivligi 1:2:1 ga teng. Bundan tashqari, CH₂ gruppasining protonlarini signali spektrda dublet shaklida kuzatiladi, tripletning integral intensivligi dubletning integral intensivligining protonlar soniga qarab 1 : 2 nisbatga teng bo'ladi.

'CH-CH₃ sistema uchun (ularning protonlari kimyoviy siljishi bilan farq qiladi) spektrda CH₃ gruppasi protonlarining kvadrurleti paydo bo'ladi CH₃ gruppasining 3 protoni uchun ular spinlarining 8 ta kombinatsiyasi bo'ladi. 2-4 va 5-7 kombinatsiyalar magnit maydoniga ta'sir hissasi jihatdan bir xil bo'ladi. Turli kombinatsiyalarning ta'sir hissasiga binoan kvadrurletning

intensivligi 1:3 :3:1 nisbatda bo'ladi. Umuman, proton yoki ekvivalent protonlar gruppasi n ekvivalent magnit yadro bilan o'zaro ta'sirlashganda u protoning signali n+1 komponentga ajraladi. Agar spin-spinli o'zaro ta'sirning konstantasini kattaligi bilan berilgan magnit maydoning H_0 kuchlanishiga bog'liq emas, u o'zaro ta'sirlanadigan yadrolarning tabiatini, ular orasidagi bog'xarakteri va soni hamda molekulaning geometriyasi bilan aniqlanadi. Agar protonlar to'rt yoki undan ortiq bog'lar bilan ajralgan bo'lsa (masalan, H-C-C-C-H), u holda bog' tabiatini muhim ahamiyat kasb etadi. Buning spin-spinli konstantasi 0,2 gs bo'ladi. Agar allil bog'i bo'lsa (qo'sh bog' saqlasa) u 2-3 gs bo'ladi. Agar molekulada amin va gidroksil gruppasi bo'lsa, ularning protonlarida odatdagidek o'zaro spin-spinli ta'sir kuzatilmaydi. Amino gruppasi va gidroksil gruppasi protonlari tez almashinib turganligi sababli ajralmasdan, ko'pincha, surkalgan signal hosil bo'ladi.

9.4-§. Elektron paramagnit rezonans (EPR spektri)

Elektron paramagnit rezonans usuli radikallarni aniqlashning fizik usullaridan biri bo'lib, elektron spektroskopiyani o'rganish usulidir. Odatda, radikal hosil bo'lganda modda spektridagi yutilish maksimumi to'ljin uzunligi katta soha tomon siljiydi. (bataxrom siljish). Bunga toq elektron sababchi bo'ladi. Toq elektron va magnit maydoni ta'sirlanishidan foydalanib radikallarning paramagnit spektrlari olinadi. Keyingi yillarda radikallarni, ularning tuzilishini aniqlashda EPR spektroskopiya usuli qo'llaniladi. EPR vositasida 10^{-2} molgacha radikalni aniqlash mumkin, ularning YAMR spektroskopiyasi usulidan farqi, YAMR spektrlarni olishda radiochastotali nurlarning yutilishidan hosil bo'lsa, EPR spektrlarni olishda mikro to'ljinli nurdan foydalananiladi. Elektr magnit momenti protondan ancha katta va elektronda hosil bo'ladigan magnit maydon kuchlanishi ancha yuqori. Shunga ko'ra, maydon yo'nalishini teskarisiga o'zgartirish uchun nisbatan ko'proq energiya talab qilinadi. Radikaldagi yagona elektron magnit maydonidan va doimiy magnit maydoniga

bu maydon yo'nalishi tashqaridan qo'yiladigan maydon yo'nalishiga parallel yoki antiparallel bo'lishi mumkin. Parallel bo'lganda elektron kam va barqaror bo'ladi, antiparallel bo'lganda, aksincha, elektronlarni barqaror holatdan energiyasi ko'p holatga o'tkazish (elektron hosil qiladigan magnit maydoni yo'nalishini teskarisiga almashtirish) uchun tashqaridan mikroto'lqin chastotali generator yordamida hosil qilinadi va moddaga ta'sir ettiriladi. EPR spektroskopiya 1944-yilda **B.K.Zavoyskiy** tomonidan kashf qilingan, ammo 50-yillarda niderland fizigi **K.Gorter** tomonidan tajribada qo'llanilgan.

$$2rV = dN$$

bu yerda: d – giromagnit; V – chastota; N – vektor.

Radikal tarkibida proton bo'lmasa, EPR spektr sodda ko'rinishda bo'ladi, agar radikalda proton, ya'ni vodorod bo'lsa, ular ham mitti magnitchalar kabi magnit maydoni hosil qiladi. Bu maydonlar ham tashqi maydonni kuchaytiradi yoki susaytiradi.

Umuman, EPR spektroskopiya yordamida radikallarni bilib olishdan tashqari, ularning konsentratsiyasi, delokallanish zarrachasini aniqlash mumkin.

EPR spektri radiasion kimyoda, fotokimyoda, katalizda, yarim o'tkazgichlarni aniqlashda, biokimyo, kristallo kimyoda qo'llaniladi.

Savollar:

1. Molekulyar spektroskopiya turlari qanday nazariyaga asoslanadi?
2. J- spin kvant soni nima va u qanday qiymatlarga ega?
3. Kimyoviy siljish va multipletlik nima?
4. Garmonik va angarmonik ostsilyator nima?
5. YaMR va EPR spektrlarni kim kashf qilgan va qayerda qollaniladi?

Foydalaniňgan adabiyotlar:

1. Элементарный учебник физики. т.2. Электричество и магнетизм / Под ред. Г.С.Ландсберга , 7-е изд. - М.: "Наука", 1971. - 527 с., с.37
2. Абрагам А. Магнетизм, М.: Издательство иностр. лит., 1983.
3. Сликтер Ч. Основы теории магнитного резонанса, М.: Мир, 1981.
4. Эрнст Р., Боденхаузен Дж., Вокаун А. ЯМР в одном и двух измерениях: Пер. с англ. под ред. К. М. Салихова, М.: Мир, 1990.
5. Гюнтер Х. Введение в курс спектроскопии ЯМР: Пер. с англ. — М.: Мир, 1984. — 478 с.
6. Дероум А. Современные методы ЯМР для химических исследований.
7. Калабин. Природная спектроскопия ЯМР природного органического сырья. М.: Мир, 1998. — 248 с.
8. Вилков Л.В., Пентин Ю.А. "Физические методы исследования в химии. Резонансные и электрооптические методы". М.: Вышш. шк., 1989, 288 с.
9. Борн М., Вольф Э., Основы оптики, пер. с англ., 2 изд., М., 1973:
10. Асланов Л.А. Структуры веществ. М.: Изд-во Моск. Ун-та, 1989.
11. Iskandarov S, Sodiqov B. Organik kimyo nazariy asoslari. Toshkent. 1987.640 b.
12. <http://www.cultinfo.ru/fultex/>
13. <http://www.ru.wikipedia.org>

X BOB. MOLEKULARARO TA'SIR. VAN-DER VAALS KUCHLARI. π -KOMPLEKSLAR. SOLVATLANISH

10.1-§. Molekulalararo kuchlar. Van-der Vaals kuchlari


Molekulalar elektroneytral hamda valentliklari to'yingan bo'lsada, ular bir-birini tortadi. Ayniqsa gaz molekulalarining o'rtaida boshqa bir tabiatli tortishish kuchlari mavjud. Bu kuchlar nisbatan zaif bo'lib, ular **molekulalararo kuchlar** yoki bu kuchlarni birinchi marta aniqlagan olim sharafiga **Van-der-Vaals kuchlari** deyiladi. Bu tortilish kuchlari molekula va undagi atomlarning elektr zaryadlaridan kelib chiqadi va elektr qonuniga bo'y sunadi, ya'ni zaryadli zarrachalarning o'zaro tortishuv kuchi zaryadlar miqdoriga to'g'ri proporsional va zaryadlarning markazlari orasidagi masofaga teskari proporsionaldir.

Molekulalar, atomlar va ionlar hamisha harakatda bo'ladi. Ular bu harakatlarda bib-biriga yaqin kelganda ularning elektr maydonlari o'zaro ta'sir etadi. Ayni modda molekulalari (ionlari yoki atomlari) orasida o'zaro tortishish kuchlarining namoyon bo'lishi – kogeziya, turli xil moddalarning molekulalari orasidagi tortishish kuchlarining namoyon bo'lishi esa – adgeziya deb ataladi. Zarrachalarning zaryadi qancha katta bo'lsa va ular o'rtaida masofa qancha kichik bo'lsa, ularning o'zaro ta'siri shuncha kuchli bo'ladi. Molekulalararo tortishuv (Van-der-Vaals) kuchlari 3 xil b'ladi:

1. Oriyentatsion;
2. Induksion;
3. Dispersion kuchlar.

Oriyentatsion kuch – qutbli (polyar) molekulaning doimiy dipol momentiga ega bo'lishi, ya'ni molekulalar dipollarining qarama-qarshi tomoni bilan bir-birini elektrostatik tortib turishi dipol-dipol yoki oriyentatsion ta'sir kuchlari deyiladi.

Polyar molekulalar hamisha o'zaro ta'sir etadi (rasm). ular bir-biriga nisbatan qarama-qarshi qutblari bilan joylashishga intiladi.



Dipollik qancha kuchli bo'lsa, oriyentatsiya shuncha oson bo'ladi. Faqat qutbli zarrachalar orasida sodir bo'ladi. Masalan, H_2O , NH_3 , spirtlar, karbon va aminokislotalarda bo'ladi.

Oriyentatsion kuch ayni moddaning qutblanuvchanligiga va molekulalararo masofaga teskari proporsional bo'ladi. Harorat ko'tarilganda oriyentatsion kuch kamayadi. Keezom 1921-yilda oriyentatsion kuch energiyasini hisoblash uchun quyidagi formulani taklif qildi:

$$U_{\text{ort}} = -\frac{2\mu_0^4 N_a}{3kTr^6} = -\frac{A}{r^6}; \quad (10.1)$$

bu yerda; μ - molekulaning dipol momenti;

U_{ort} - oriyentasion ta'sir energiyasi;

N_a -Avogadro soni;

k-Bolsman konstantasi;

T-absolyut temperatura;

r- markazlararo masoфа.

Oriyentatsion ta'sir energiyasi katta dipol momentli moddalar suv, ammiak orasida kuchli namoyon bo'lib, ba'zi modda, masalan uglerod (II) oksidi orasida kuchsiz namoyon bo'ladi.

Induksion kuchlar qutbli va qutbsiz zarrachalar orasida vujudga keladi. Qutbsiz molekula yaqiniga qutbli molekula kelganida qutbsiz zarracha qutblanadi. Uning qutbli zarrachaga yaqin qismida qarama-qarshi ishorali uzoq qismida esa bir ishorali zaryadlar hosil bo'ladi. Natijada qutbsiz molekula induksion dipolga ega bo'lgan zarrachaga aylanadi. Ikkita qutbli molekula orasida ham induksion ta'sir vujudga kelishi mumkin, chunki ular bir-biriga yaqinlashganda o'zaro induksiyalanish tufayli ularning qutbliligi ortadi. Qutbliligi o'zaro teng bo'lgan ikki zarracha orasida vujudga keladigan induksion ta'sir energiyasi Debay taklif etgan quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$U_{ind} = -\sqrt{\frac{2\alpha\mu_0^2}{r_0}} = -\sqrt{\frac{B}{r^6}}; \quad (10.2)$$


bu yerda; α - molekula elektron qobig'ining qutblanuvchanligi (deformasiyalanuvchanligi);

U_{ind} - induksion ta'sir energiyasi;

μ - molekulaning dipol momenti; r - markazlararo masofa.

Induksion ta'sir energiyasi oriyentatsion ta'sir energiyasidan 10-20 marta kichik.

Dispersion kuchlar. Qutbsiz, kam qutbli va qutbli moddalar molekulalari orasida yana dispersion kuchlar vujudga keladi. H_2 , N_2 , Cl_2 , CH_4 molekulalari qutbli emas. Demak, bu gazlarda yuqoridagi har ikkala ta'sir kuchlari mavjud emas. Shu tufayli qutbsiz molekulalar, hatto inert gazlarning atomlari ham o'zaro tortishadi, bu kuchlarning tabiatini 1930-yilda F. London aniqladi. Uning fikricha, molekula yoki boshqa zarrachalar tarkibidagi har qaysi atom yadrosi atrofida elektronlar borligi uchun molekulani bir lahzada (**onyi-** bir lahzalik, daqiqalik) o'zining kattalik va yo'nalishini o'zgaririb turadigan mikrodipol, deb tasavvur qilish mumkin.



Elektronlarning atomlardagi harakati hech qachon simmetrik bo'lmaydi. Qandaydir bir lahzada elektron yadroning bir chetida, keyingi daqiqada ikkinchi tomonida bo'ladi. Sodda qilib tushuntirilganda molekula va atomlar yo'nalishi bir lahzada o'zgarib turadigan oniyi dipollar majmuasidir.

Dispersion o'zaro ta'sir energiyasini hisoblash uchun quyidagi formulani London taklif etgan:

$$U_{dis} = -\frac{3\alpha^2 h v_0}{4r^6} = -\frac{C}{r^6}; \quad (10.3)$$

bu yerda; h - plank doimiysi;

v_0 - nolinchı energiyaga muvofiq keladigan tebranish chastotasi. Agar $hv_0 = J$ ekanligini nazarga olsak, bu yerda J =zarrachaning ionlanish potensiali.

$$U_{dn} = \frac{3\alpha^2 J}{4r^6} = -\frac{C}{r^6}; \quad (10.4)$$

Moddaning molekulyar massasi ortib borishi bilan dispersion ta'sir kuchayadi. Masalan, fтор va xlor odatdagи sharoitda gaz, brom suyuqlik, yod qattiq modda.

Agar oriyentatsion, induksion va dispersion kuchlarni bir-biriga qo'shsak, ikki zarracha orasidagi tortishish kuchlari energiyasi U uchun quyidagi tenglama kelib chiqadi:

$$U = -\frac{2\mu^4 N}{3RT r^4} - \frac{2\mu^2 \alpha}{r^6} - \frac{3\alpha^2 J}{4r^6} = -\frac{D}{r^6} \text{ yoki}$$


$$U_{un} = -\frac{A}{r^6} - \frac{B}{r^8} - \frac{C}{r^6} = -\sqrt{\frac{D}{r^6}}, \quad (10.5)$$

bu yerda; $D=A+B+C$

Molekulalararo kuchlar kimyoda katta ahamiyatga ega, chunki moddalarning fizik xossalari (suyuqlanish harorati, eruvchanligi, agregat holatlari, issiqlikda kengayish koefisienti, pishiqligi, moddalarni o'zida eritish qobiliyati va hokazolar) ayni shu kuchlarga bog'liq. Molekulalararo kuchlar bir-biriga juda yaqin ($5-10^{-10}$ m) masofadagina namoyon bo'ladi. Ularning energiyasi ($0,1-8,0$ kjmol $^{-1}$), kimyoviy bog'lanish energiyasi ($80-1500$ kj mol $^{-1}$) dan iborat bo'lib, kimyoviy ta'sir kuchlaridan keskin farq qiladi.

10.2-§. Molekulyar yoki π -komplekslar

Elektronoakseptor guruhlar elektron juftlarini kuchli tortishi sababli ular bilan bog'langan uglerod atomi elektrofil tabiatli bo'lib qoladi. Elektron juftini nisbatan bo'shqor tutib turadigan yoki elektron buluti katta hajmda joylashgan qo'shbog'li birikmalar elektronodonor molekulasiga ta'sir qiladi. Masalan: tetrasianetilen va benzol orasida quyidagicha reaksiya boradi.



Benzolning bitta elektroni tetrasianetilen molekulasiga o'tadi va ion bog'ga o'xshash, lekin kuchsiz bog'langan 2 ta




molekuladan iborat sistema vujudga keladi. U molekulyar yoki π -kompleks deyiladi.

Molekulyar kompleks hosil bo'lishida 1 ta molekula donor 2-chisi akseptor rolini o'ynaydi. Donorlar π sistemalar – aromatik halqali birikmalar, spitrlar, azotli asoslar, Lyuis asoslari.

Akseptorlarga esa elektronga moyil va o'zida bo'sh orbitalli atom tutuvchi birikmalar (SO_2 , NO_2 , nitrobirikmalar, xinon va hok). Masalan

Donorlar Akseptorlar Molekulyar komplekslar

Gidroxinon Xinon Xingidron



π -komplekslarning eng muhim xarakterli xususiyati ularning rangi alohida komponentlarnikidan farq qiladi. Ms: Xinon sariq rangli, xingidron yaltiroq ko'k rangli, gidroxinon esa rangsiz yoki tetravian va benzol rangsiz, ularning molekulyar kompleksi to'q sariq tusga egadir.

π -komplekslardagi bog' juda zaif bo'ladi, bog' energiyasi 2-10 kkal/molga teng. π -komplekslarga metalloesen birikmalar tarkibida metall kationi tutuvchi π -komplekslarga tipik misol bo'ladi. Demak, π -komplekslar hosil bo'lishi va tuzilishi jihatdan anorganik kompleks birikmalarga o'xshash bo'ladi.

π -komplekslarning hosil bo'lishini M.Dyuar molekulyar orbitallar metodi MOM ga asoslanib isbotladi. Qo'sh bog'ga va aromatik halqaga elektrofil birikish reaksiyatari π -komplekslarning hosil bo'lishi bilan borgani uchun ularni o'tkazish shart-sharoitlari va reaksiya yo'nalishini, mexanizmini aniqlashda π -komplekslarning tuzilishi va xossalari bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

10.3-§. Solvatlanish

Erituvchining reaksiyaga kirishuvchi moddalar bilan turlicha ta'sirlashishiga **solvatlanish** deyiladi. Solvatlanish 2 xil bo'ladi: noxususiy va xususiy. *Noxususiy solvatlanish* barcha eritmalarda mavjud va erigan modda bilan erituvchi molekulalari hosil qiluvchi maydonning ta'sirlashuvidan paydo bo'ladi. Noxususiy solvatlanish 2 xil: Qutbli va qutbsiz bo'lishi kuzatilgan. Qutbsiz solvatlanish juda yaqin masofalarda ta'sir qiluvchi molekulalarda bo'lib. Van-der Waals kuchlari ta'sirida hosil bo'ladi. Qutbli solvatlanish elektrostatik tabiatga ega molekulalar o'tasidagi uzoq masofalarda ham o'z ta'sirini ko'rsatadi va ion birikmalarda boradigan reaksiyalarda sodir bo'ladi.

Xususiy solvatlanish erigan moddalar va erituvchi o'tasida donor-akseptor tipidagi komplekslarning vujudga kelishi bilan bog'liq. Vodorod bog'lanishli moddalar, π -komplekslar ularga misol bo'ladi.

Savollar:

1. Van-der Waals kuchlari necha turga bo'lib o'rGANILADI?
2. Oniy dipollar nima?
3. π -komplekslarga misollar keltiring ularning barqarorligini tushuntiring
4. Solvat komplekslar va klatrat birikmalar deb nimaga aytiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каплан И.Г. Введение в теорию межмолекулярных взаимодействий. М.: Наука, 1982.
2. Степанов Н.Ф. Квантовая механика и квантовая химия. М.: Мир, 2001, 519 с.
3. Минкин В.И., Симкин Б.Я., Миняев Р.М. Теория строения молекул. Учебное пособие. Ростов-на-Дону: Феникс, 1997.
4. Волькенштейн М.В. Строение и физические свойства молекул. М., 1985.
5. Iskandarov S, Sodiqov B. Organik kimyo nazariy asoslari. Toshkent, 1987.640 b.
6. <http://www.edu.ru> Образовательный сайт. Книги и учебные пособия.

XI BOB. MOLEKULALARNING ELEKTRON, TEBRANMA VA AYLANMA SPEKTRLARI

11.1-§. Molekulyar spektrlarning xillari

Molekulalar atomlarga qarama-qarshi o'laroq, ikki yoki undan ortiq atomlardan tashkil topganligi uchun ularning harakati atomlardagidan murakkabroq bo'ladi.

Kvant mexanikasi asosida bu 3 xil xarakat energiyasi kvantlangan bo'ladi va umumiy energiya

$$E = E_{el} + E_{teb} + E_{ayl} \quad (11.1)$$

Elektron spektr energiyasi bir necha eV (bir necha yuz kdj/mol) ga, tebranmaning energiyasi 10^{-2} - 10^{-1} eV, aylanmada 10^{-5} ... 10^{-3} eV ga teng bo'ladi


$$E_{el} \gg E_{teb} \gg E_{ayl} \quad (11.2)$$

1. Elektronlarning molekuladagi holatini o'zgarishiga olib keluvchi elektron o'tishlar.

2. Yadrolarning nisbiy joylashishining davriy o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan tebranma harakat.

3. Fazoviy yo'nalish (orientatsiya) ning davriy o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan tebranma harakat.


Kvant mexanikada atom holatining bir energetik sathi E_i dan nisbatan ikkinchi energetik sath E_f ga o'tishda chiqaradigan nurlanish chastotasi $v = (E_i - E_f)/\hbar$ ga teng degan Bor postulatidan foydalaniлади. Asosiy holatdagi atomda elektronlar eng past energetik sathni egallagan bo'ladi. Atomning qo'zg'atilgan holatida esa bitta yoki bir necha elektronga nisbatan yuqori energetik sathda bo'ladi va shuning uchun undan past sathlar shuncha elektronlarga to'ldirilmagan bo'ladi. Elektronlarning past sathlarga qaytib o'tishi nurlanish chiqarish bilan yuz beradi.



Kvant mexanikasida yorug'lik «sekin-asta» nurlanishi mumkin emas.

Nurlanish to'la holda bir zumda yuz beradi. Boshlang'ich va so'nggi kvant holatlari o'rtasida hech qanday oraliq holatga o'rinn yo'q. Shu sababdan ham uning nurlanish spektri chiziqli bo'ladi.

Molekulaning nurlanish spektri butunlay boshqacha ko'rinishga ega. Molekula tashkil topganda atomlarning tashqi elektronlarini energetik sathlari o'zgarib ketadi, chunki molekulada atomlar bir-biri bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bundan tashqari qo'shimcha energetik sathlar paydo bo'ladi.




11.1-rasm. Ikki atomli molekulalarning energetik sathi. a va b – elektron sathlari; v' va v'' – tebranma sathning kvant sonlari; J' va J'' – aylanma energetik sathning kvant sonlari.

Bunga sabab, birinchidan, atomlarni bir-biriga nisbatan tebranishi bo'lsa, ikkinchi sabab molekulani yaxlit formada aylanishidir. Tebranish va aylanish harakatining energetik sathlari kvantlangan. Biroq bu energetik sathlar orasidagi masofa juda yaqin, ayniqsa, aylanish sathlari orasidagi masofa juda kichik ~ 10^{-3} эВ. Natijada atomning har bir sathi tebranish va aylanish

xarakterlariga mos keluvchi bir qancha sathlarga ajraladi (11.1-b rasm).

Shunday qilib, molekulaning energetik sathini uch turga: 1. elektronlar energetik sathlarga. 2.tebranish. 3.aylanish energetik sathlarga ajratish mumkin. (11.2-rasm).



11.2-rasm. Ikki atomli molekulaning aylanma sathlari

Bir-biriga juda yaqin joylashgan bunday energetik sathlar orasida o'tishlar jarayoni bo'lganda bir-biriga juda yaqin bo'lgan juda ko'p spektral chiziqlar hosil bo'ladi. Haqiqatan bu chiziqlarni bir-biridan ajratish qiyin, shuning uchun ham ular **yo'l-yo'l spektrlar** deyiladi. Har bir molekula faqat o'ziga xos bo'lgan ana shunday spektrga ega. Agar modda qattiq (yoki suyuq) holatda yotgan bo'lsa u holda, ularni tashqi elektronlari yoki molekulalari bir-birlarini qoplaydilar. Ularni energetik sathlari o'zgaradi va o'zaro ta'sir tufayli yoyilib, energetik zonalar hosil qiladi (11.1-v rasm). Qattiq jismarda atomlar soni juda ko'p, shu sababli zonalarda joylashgan chiziqlar ham juda zinch va deyarli uzlusiz. Bu esa ularni spektri tutash ekanligidan dalolat beradi. Kristall zonalarida ushbu sathlar orasidagi masofa juda kichik. Masalan, zona kengligi 1 eV mashtabida 1 eV ga teng desak, zona sathlari orasidagi masofa taxminan 10^{-4} eV ga teng bo'ladi. Chunki 1 moldagi atomlar soni $N=6 \cdot 10^{23}$ ta desak, u holda sathlar orasidagi masofa $\sim 10^{-10}$ ga teng bo'ladi.

11.2-§. Lyuminessensiya spektri

Nokogerent sochilishga misol tariqasida, energetik sathlar va elektron o'tishlarni yaxshi tushunish maqsadida lyuminessensiya hodisasini ko'rish mumkin.

Nima uchun turli jismlar va muhitlar nur chiqaradi? Bunga sabablar ko'p. Birinchidan, yorug'likning jism yoki muhitda qaytishi va sochilishi tufayli ushbu jism va muhit yorug'likni aks ettirib turishi mumkin. Masalan, Oy yoki kunduzgi osmon. Ikkinchidan, yuqori temperaturalarda jism yoki muhit o'zidan nur chiqarishi mumkin. Masalan, Quyosh, elektr lampochkasining qizdirilgan tolasi, gulxan alangasi va hokazo. Uchinchidan, qizdirish bilan bog'liq bo'limgan holda jism yoki muhit o'zidan "sovuj nur" chiqarishi mumkin. Jism yoki muhitni "sovuj nur" chiqarishiga *lyuminessensiya* deyiladi. Kunduzgi yorug'lik manbai yordamida televizorni nurlayotgan ekraniga qaraganimizda, dengizning shu'lalanishi lyuminessensiya-misol bo'lishi mumkin. Qutb yog'dusi ham lyuminessensiya hodisasiidir.

Lyuminessensiya nurlanishi bilan issiqlik nurlanishining tabiatи bir xil – ikkalasi ham bir xil elektromagnit tabiatga ega. Lekin lyuminessensiya nurlanish issiqlik nurlanishidan keskin farq qiladi. Issiqlik nurlanishi muvozanatli nurlanish bo'lsa, lyuminessensiya nurlanishi nomuvozanatli nurlanishdir. Lyuminessensiya bo'lishi uchun jism (muhit) dastlab vaqt davomida energiya yig'ishi kerak bo'ladi. G'amlangan ushbu energiyani *uyg'onish energiyasi* deyiladi. So'ng bu energiyani jism (muhit) qayta nurlaydi, ya'ni lyuminessensiya nuri vujudga keladi. Lyuminessensiyalaruvchi moddaning atom yoki molekulasi xuddi issiqlik manbaining nurlanishiga o'xshab, tashqaridan olgan energiyani o'zida yutib, uyg'ongan energetik holatlariiga o'tadi. Biroq, ushbu yutilgan energiya molekulalarning faqat bir qismini uyg'otadi va yutilgan energiya boshqa molekulalarga uzatilmaydi. Shu sababdan ham, bu hodisa muvozanatli issiqlik nurlanishidan farq qilib *nomuvozanatli nurlanish* deb ataladi. Uyg'ongan jism (muhit) shu zahotiyoyq 10^{-8} ... 10^{-6} vaqt ichida nurlanishi mumkin. Jismning energetik


uyg'onishi bilan nurlanishi bir vaqt ichida ro'y bersa, bunday nurlanishni *fluoresensiya* deyiladi. Lyuminessensiya uyg'onish energiyasiga tashqi energiya berishdan to'xtalgandan so'ng ham davom etsa *fosforessensiya* deyiladi. Televizor ekranida biz fluoresensiya, soat siferblatini nurlanishi yoki yo'l ko'rsatkichlarini nurlanishi fosforessensiyaga misol bo'la oladi. Qutb yog'dusining lyuminessensiyasi ham fluoresensiyasidir. Lyuminessensiyani turli yo'llar bilan hosil qilish mumkin. Ulardan ayrimlarini ko'ramiz: fotolyuminessensiya (yorug'lik ta'sirida modda zarralarini uyg'otilishi), xemilyuminessensiya (ayrim kimyoviy reaksiyalarni energetik uyg'otish hisobiga), elektrolyuminessensiya (gazlarda elektr maydon ta'sirida elektr razryadini hosil bo'lishi hisobiga), katodolyuminessensiya (lyuminessensiyaga moyil moddani elektron dasta yordamida bombardimon qilishdagi energiya hisobiga). Masałan, televizor trubkasidagi lyuminessensiya katoddan chiqayotgan elektronlar dastasi yordamida ekranga surtilgan modda zarralarini uyg'otishi tufayli yuz beradi. Qutb yog'dusi lyuminessensiyasi ham katodolyuminessensiyaga misol bo'ladi. Ushbu lyuminessensiya bizni atmosferamizga kirib kelayotgan elektron oqimi tufayli yuzaga keladi, chunki bizning atmosferamiz atom, molekula va ionlardan tashkil topgan bo'lib, bu holda ular ekran vazifasini bajaradi.

Lyuminessensiyalanuvchi modda ham biror temperaturaga ega. U ham atrofdagi moddalar kabi nurlaydi. Lyuminessensiya – jismning issiqlik nurlanishi tepasidagi ortiqcha nurlanishdir. Lyuminessensiya nurlanishi to'xtaganda faqat issiqlik nurlanishi qoladi. Lyuminessensiya hodisasi uyg'ongan holatdan asosiy holatga o'tish jarayonida yuz beradi va bu paytda u qo'shni molekulalardan energiya olmaydi. Lyuminessensiya to'xtagandan so'ng sistema muvozanat holatga o'tadi va shu temperaturaga mos issiqlik nurlanishi vujudga keladi.

Lyuminessensiya hodisasi – kvant hodisa. Lyuminessensiya o'zining davomiyligi bilan boshqa optik hodisalardan farq qiladi.

Lyuminessensiya lotincha lumen (limints – yorug'lik) so'zidan olingan bo'lib, yorug'likni xarakterlaydi.

Lyuminessensiya fizikasi kvant fizika yaratilishi tufayli tushunarli bo'ladi. Tashqi energiya ta'sirida lyuminessensiyanuvchi moddalarning uyg'ongan mikrozarralari (atom, ion, molekula) energiyasi kvantlanadi va aniq bir diskret qiymatlarga ega bo'ladi. Mikrozarralarning turiga qarab ushbu energiyalarni qiymatlari ham turlicha bo'ladi. Mikrozarralar energiyasi eng kichik bo'lqandagi sathni *asosisy sath* deyiladi. Uyg'onish energiyasi esa mikrozarralarni uyg'ongan holatlaridan biriga o'tishida ro'y beradi. Bu sathdan sakrash yoki bir qancha sakrash orqali mikrozarra asosiy holatiga o'tadi va natijada lyuminessensiya nurlanishiga mos keluvchi foton chiqaradi (11.3-rasm). Lyuminessensiya hodisasiga bir misol keltiramiz. Yer atmosferasining yuqori qatlamlarida ham kislород atomlar mavjud bo'lib, ularni quyosh shamolining elektronlari bombardimon qiladilar.



11.3-rasm. Lyuminessensiya nurlanishiga mos keluvchi foton.

Oqibatda kislород atomlari uyg'onadi. So'ng 1S_0 satxdan 1D_2 sathga o'tish orqali lyuminessensiyanadi. Shu hodisa uchun energetik sathlar va elektron o'tishlar yuqoridagi rasmda keltrilgan.

11.3 rasmida 1S_0 sathdan 1D_2 sathga o'tish va keyingi sathdan asosiy sathga o'tish tasvirlangan. 1S_0 sath energiyasi 4,17 eV ga, 1D_2 sathning energiyasi esa 1,96 eV ga teng. Birinchi o'tishda (1S_0

$\rightarrow ^1D_2$) kislorod atomi 0,56 mkm to'lqin uzunligidagi yashil nur chiqaradi, 1D_2 sathdan asosiy sathga o'tishda u 0,63 mkm dagi qizil nur chiqaradi. Uncha qiyin bo'lmagan shu hisobni ko'raylik. Borning chastotalar qoidasi deb atalgan postulatiga ko'ra nurlanish chastotasi

$$\nu = \frac{\epsilon}{\hbar} = \frac{E_2 - E_1}{\hbar}, \quad (11.3)$$

bunda ϵ - foton energiyasi, bundan

$$\lambda = \frac{c}{\nu} = \frac{ch}{E_2 - E_1} \quad (11.4) \text{ kelib chiqadi.}$$

(11.3) formulaga 11.3-rasmdagi energetik sathlar energiyasini son qiymatlarini qo'yamiz.

$$\lambda_1 = \frac{3 \cdot 10^8 \text{ м/с} \cdot 6,62 \cdot 10^{-34} \text{ кг·с}}{(4,17 - 1,96) \text{эВ} \cdot 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ эВ/эВ}} \approx \frac{1,98 \cdot 10^{-25}}{3,54 \cdot 10^{-19}} \text{ м} = 0,56 \cdot 10^{-6} \text{ м} = 0,56 \text{ мкм}$$

Ikkinchchi o'tish ($E_1 \rightarrow E_0$):

$$\lambda_2 = \frac{ch}{E_1 - E_0} = \frac{1,98 \cdot 10^{-25} \text{ эВ}}{1,96 \text{эВ} \cdot 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ эВ/эВ}} = 0,63 \text{ мкм}$$

Lyuminessensiya nurining to'lqin uzunligi yutilgan yorug'likni (Stoks qonuni) to'lqin uzunligidan katta. Bu xulosa lyuminessensiyaning har bir akti uchun yozilgan energiyaning saqlanish qonundan kelib chiqadi. Lyuminessensiyalanuvchi molekulaning yutgan foton energiyasini

$$\epsilon_1 = h\nu_1 = \frac{hc}{\lambda_1} \quad (11.5)$$

desak, u holda molekula chiqargan fotonning energiyasi

$$\epsilon_2 = h\nu_2 = \frac{hc}{\lambda_2}. \quad (11.6)$$

Ularga mos kelgan to'lqin uzunliklar $\lambda_1 = \frac{hc}{\epsilon_1}$ va $\lambda_2 = \frac{hc}{\epsilon_2}$ formulalar yordamida topiladi. Yutilgan foton energiyasining bir qismi lyuminessensiya moyil moddani molekulasini uyg'otishga sarflanadi. Qolgan qismi esa jismning ichki energiyasini (molekulalarning tartibsiz kinetik energiyasini) o'zgartirishga sarflanadi. Shuning uchun

$$\varepsilon_1 = \varepsilon_2 + E$$

Bo'ladi. $\varepsilon_1 > \varepsilon_2$, bo'lgani uchun $v_1 > v_2$ yoki $\lambda_2 > \lambda_1$. Bu esa stoks qonunidir. $E=0$ da yutilgan va chiqarilgan fotonlarning energiyasi teng, ya'ni $\varepsilon_1 = \varepsilon_2$. Shuning uchun $\lambda_2 = \lambda_1$. Bu holni rezonans nurlanish deyiladi. Rezonans nurlanish natriy lampasi yordamida natriy bug'larini lyuminessensiyanishida kuzatish mumkin. Agar lyuminessensiya energiyasini E_1 , yutilgan energiyani E_0 desak, u holda ularning nisbatini lyuminessensiyaning energetik chiqishi deyiladi.

$$\Pi = \frac{E_1}{E_0} < 1$$

Agar chiqarilgan fotonlar sonini n_1 , yutilgan fotonlar sonini n_0 desak, u holda,


$$\eta = \frac{n_1 \varepsilon_1}{n_0 \varepsilon_0}$$

nisbatni olamiz. Bunda $E_1 = n_1 \varepsilon_1$, $E_0 = n_0 \varepsilon_0$ bo'lgani uchun lyuminessensiyaning kvant chiqishi

$$B = \frac{n_1}{n_0}$$

Bu formulaga lyuminessensiya kvant chiqishi deyiladi.

Qutb yog'dularini paydo bo'lishida kosmos elektronlarini *kislород* va *azot* molekulalari bilan to'qnashishi rol o'ynaydi. To'qnashish atom va molekulalar uyg'onadilar yoki ionlashadilar. Birinchi holda atom (molekula) ni uyg'ongan holatga o'tishi natijasida mikrozarralar (atom, molekula, ion) ning elektron qobig'ida o'zgarishlar ro'y beradi. Ikkinci holda esa mikrozarralarning elektron qobig'i qisman buziladi; mikrozarra elektronini yo'qotadi va atomar yoki molekulyar ionga aylanadi. Uyg'ongan mikrozarra asosiy holatga o'tadi. ion esa elektron bilan rekombinasiyalanadi. Ikkala holda ham uyg'onish energiyasini olib ketuvchi foton hosil bo'ladi va bu nurlash lyuminessensiyali nurlanish bo'ladi. Qutblarda kuzatiladigan qutb yog'dusi jarayoni ana shundaydir (11.4. rasm).



11.4-rasm Qutb yog'dusi spektri.

Ionlashgan azot molekulalari rekombinatsiya spektrning zangori va binafsha tasmalarini nurlaydi. Uyg'ongan kislorod atomlari esa yashil ($\lambda=0,56 \text{ mkm}$) va qizil (0,63 mkm) chiziqlarni chiqaradi. Uyg'ongan azot molekulalari qizil nurlarni chiqaradi. Azotning zangori chizig'i va kislorodning yashil chizig'i juda intensiv nurlanish hosil qilgani uchun qutb yog'dusi asosan zangori – yashil rangda tovlanadi.

Nima uchun kislorod spektridagi qizil chiziqning intensivligi zangori chiziq intensivligiga nisbatan kuchsiz? Esingizda bo'lsa kerak, 11.4-rasmida kislorodning energetik sathlari va o'tishlarini ko'rsatgan edik. Hamma gap shundaki kislorod atomining 1S_0 va 1D_2 sathlarida atomning yashash vaqt turlichadir. Berilgan holatda bir atom «uzoqroq», ikkinchisi «qisqaroq» yashashi mumkin. Bir xil atomlardan tashkil topgan sistema uchun – yashash vaqt o'rtacha kattalikdir. Kislorodni 1S_0 sathida atomning yashash vaqt 0,7 s bo'lsa, 1D_2 sathida atomning yashash vaqt 100 s dir. Ko'rib turibsizki farq ancha katta. 1D_2 holatda bo'lgan kislorod atomi asosiy holatga o'tguncha uzoq «yashaydi». Atom ushbu holatdan asosiy holatga o'tguncha bo'lgan vaqt oralig'ida unga boshqa biror atom yoki biror erkin elektron kelib urilishi mumkin; bu to'qnashish tufayli bizning atom zarraning ortiqcha energiyasini olib asosiy holatga o'tishi mumkin. Natijada bu holda 0,63 mkm to'lqin uzunlikka ega bo'lgan foton chiqmasligi mumkin. 1S_0 sathdan 1D_2 sathga o'tishda kislorodning barcha atomlari ishtirok etishi mumkin, aksincha 1D_2 sathdan asosiy sathga o'tishda esa faqat ayrim atomlargina rol o'yashni mumkin. Shuning uchun ham qizil nurlanish intensivligi yashil nuring intensivligiga nisbatan ancha kamdir.

Hozirgi kunda qutb yog'dusining ko'p mexanizmlari tushunarli. Shunga qaramay biz bilmagan sirlar ham ko'p.

Masalan, nima uchun magnitosferaning dumi elektronlarni tezlanadiradi va fokuslaydi? Nima uchun tovlanish zonasiga oval shaklda, nima uchun qutb yog'dusi ayrim hollarda qasir-qusir shovqinlar bilan bo'ladi? Dengizlarining shu'lalanishi, tirik organizmlarning shu'lalanishi ham lyuminessensiya hodisasi bilan tushuntiriladi. Dengizning shu'lalanishi tirik organizmlarning nurlanishidir. Hozirgi paytda nurlovchi tirik organizmlarni 800 dan ko'p holi aniqlangan. Bakteriyalardan tortib to ayrim baliqlargacha o'zidan nur chiqaradi. Quruqlikda esa har xil hasharotlardan (qo'ng'iz, chivin va b.) tortib to ayrim qushlargacha o'zidan nur chiqaradi. Bu nurlanishning mexanizmlari ham lyuminessensiya hodisasi bilan tushuntiriladi.

Savollar:

1. Molekulyar spektrlarning turlari necha xil bo'ladi?
2. Qattiq va noqattiq rotator nima?
3. Garmonik va angarmonik ossilyator tushunchalarini tushuntiring
4. Lyuminessensiya hodisasini tushuntiring.
5. Stoks va antistoks chiziqlari haqida ma'lumot bering.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ельяшевич М.А., Атомная и молекулярная спектроскопия, М., 1969;
2. Вилков Л. В., Пентин Ю. А., Физические методы исследования в химии.
3. Минкин В.И., Симкин Б.Я., Миняев Р.М. Теория строения молекул. Учебное пособие. Ростов-на-Дону: Феникс, 1997.
4. Степанов Н.Ф. Квантовая механика и квантовая химия. М.: Мир, 2001, 519 с.
5. М.В. Волкенштейн Строение и физические свойства молекул. М., 1985
6. <http://www.cultinfo.ru/fultex/>
7. <http://www.ru.wikipedia.org>
8. www.ihtik.lib.ru/books.htm Библиотека Ихтика. Литература по химии.

XII BOB. MOLEKULALARNING TO'LIQ SPEKTRLARI

12.1-§. Molekulalarning elektron spektrlari

Molekulalarning to'liq spektrini ba'zan elektron spektr deb ham yuritiladi, chunki bu spektr molekuladagi elektronlar atomlardagi kabi bir energetik pog'onadan o'tganda paydo bo'ladi. Qo'shni elektron pog'onalarining orasi nisbatan uzoq, shuning uchun unga to'g'ri kelgan kvantning chastotasi ultrabinafsha sohada bo'ladi. Elektron o'tish ro'y bergan paytda u bilan birligida aylanma va tebranma o'tishlar ham paydo bo'ladi. Elektron o'tish vaqtida molekulaning deyarli hamma parametrlari ψ , We, Xe, Ve lar o'zgaradi. Agar uchala o'tishning o'zaro ta'sir qilishini hisobga olsak V_{vm} ni topish ancha qiyin bo'ladi. Shuning uchun ayrim chastotalarning additiv yig'indisi olinadi.

$$V = \frac{E_e + E_t + E_a}{h} - \frac{E_e + E_t + E_a}{h} = \frac{E_e - E_e}{h} + \frac{E_t - E_t}{h} + \frac{E_a - E_a}{h} = v_e + v_t + v_a$$

Bu takrorliklar o'zaro v_e , v_t , v_a ko'rinishida bog'langan. Agar elektron o'tish ma'lum pog'onalar orasida ro'y bersa $v_e = \text{const}$ deb hisoblash mumkin.


Elektron o'tish bo'lgan hol uchun v_t bunday o'tish bo'ligan holdan farq qiladi, chunki We, Xe lar o'zgaradi.

$V_a = B_0 I' (I' + 1) - B_0 I (I + 1)$ Va << Ve bo'lgan uchun uni tushirib qoldirsak.

$$V \text{ to'liq} = V_e + W_e (V+1/2) - W_e X_e (V+1/2) - W_e (V+1/2) + W_e X_e (V+1/2)^2$$

Elektron o'tish vaqtida V istalgancha o'zgarishi mumkin tanlash qoidasi aniq emas. Molekula istalgan pastki tebranma pog'onadan istalgan yuqorigi pog'onaga o'tishi mumkin. To'liq spektrni tahlil qilish uchun uni seriyalarga ajratiladi. Seriyalarga ajratish uchun Delandr sistemasidan foydalaniladi (12.1 rasm). Bu sistemaga asos qilib pastki va yuqorigi energetik pog'onalaridagi tebranish kvant sonlarining qiymati e'tiborga olinadi.

Ko'ndalang seriyalar chastotalari:
 yutilish spektririga xos $V=const$: $V = \text{const}$ - o'zgaradi. Start-finish misoliga o'xshaydi. Bu seriyalar chiziqlari yutilish spektrida ravshanroq bo'ladi.
 Bo'yylanma seriyalar $V=const$: chastotalari $V = \text{const}$ - o'zgaradi chiqarish spektrida ravshanroq bo'ladi.




12.1.-rasm Delandr sistemasi

Ko'ndalang seriya chiziqlari molekulalar bir xil pastki tebranma energetik pog'onadan har xil yuqorigi pog'onaga ko'tarilganda paydo bo'ladi.

Bo'yylanma seriyalar molekulalar bir xil yuqorigi tebranma energetik pog'onadan har xil pastki pog'onalarga o'tgan paytda hosil bo'ladi.

Diagonal seriyalar chiziqlari uchun pastki pog'onaning ham, yuqoridagi tebranma energetik pog'onaning ham tebranish kvant sonlari istalgancha bo'lishi mumkin. Bo'yylanma seriyalar chiziqlari uchun binafsha soha va qizil yo'ldosh (kombinasion sochilish spektridagi chastotasi moddaga tushayotgan yorug'lik chastotasidan kichik bo'lgan chiziqlar) xarakterlidir. Ko'ndalang seriya chiziqlari to'plami uchun qizil soha va binafsha yo'ldosh (chastotasi katta bo'lgan chiziqlar) xarakterlidir.

Qizil soha binafsha yo'ldosh binafsha soha Qizil yo'ldosh



Ko'ndalang seriyalar chiziqlari Bo'yylanma seriyalar chiziqlari

12.2.-rasm. Ko'ndalang va bo'yylanma seriya chiziqlari


Atomlardagiga o'xhash molekulalardagi elektron o'tishlar ultrabinafsha sohada ro'y beradi. O'tish chastotasi atomlar

chastotasiga yaqin. Energiyasi 1 eV dan 20 eV gacha bo'lgan interval oraliqda bo'ladi. Mazkur elektron holat uchun molekulaning to'liq energiyasi atomlar orasidagi masofa, ya'ni molekula qanday tebranma va qanday aylanma energetik pog'onada turganligiga bog'liq.

12.2-§. Nurning sochilishi. Raman effekti

Qattiq, suyuq, gaz agregat holatdagi moddalarga monoxromatik nur bilan yorug'lik tushirilsa, bu moddalar bilan nurlanish maxsus usul yordamida ta'sir qiladi, ya'ni u yutilishi, sochilishi yoki yoyilishi va sinishi mumkin. Shu nurlanishning sochilishi xohlagan agregat holatdagi moddaning molekulyar strukturasi haqida ma'lumot beradi. Agar nurning sochilish chastotasi(ν)ni tahlil qiladigan bo'lsak, unda faqat tushayotgan nurning ν uzunligi (Releychasiga sochilishi)ni emas, balki biroz nurlanish qismini boshqa ν uzunligidagi sochilishi (Raman sochilish-Stoks va antistoks chiziqlar) ni ko'rish mumkin. Molekulyar sistemada bu chastotalar asosiy sohada joylashadi va energiyaning aylanma, elektron va tebranma pog'onalariga tegishli bo'ladi. Chastotaning o'zgarmasligi bilan boradigan sochilish jarayoniga Releychasiga sochilish deyilib, Lord Reley tomonidan aniqlangan.

Molekuladan shochiladigan yorug'lik bir necha komponentdan iborat: Releychasiga sochilish, Raman sochilish (Stoks va antistoks komponentlar)



Yorug'likning chastotasining o'zgarishiaga esa **Raman sochilish** deyiladi Raman yorug'lik fotonlarining yoyilishi ko'p energiyaga yoki kam energiyaga ega bo'lib, molekulaning tebranma holatiga bog'liqdir. Hindistonlik fiziklar Ch.B.Raman va Krishian 1930 yilda Kalkuta universitetida nurning kombinatsion sochilishini o'zining tajrabalarida aniqlaydilar va shu yili Ramanga Nobel mukofoti beriladi. Nurning kombinatsion sochilishi esa- **Raman effekti** deb

nom oladi. Kombinatsion sochilish hodisasi ko'p atomli murakkab molekulalardagi tebranma va aylanma energetik sanhlarni, molekulalarning tuzilishini o'rghanishda keng qo'llaniladi.

12.3-§. Ultrabinafsha (UB) spektroskopiya usuli

UB spektroskopiya moddalarni fizikaviy tadqiq qilish uchun keng imkoniyatlar beradi. Ultrabinafsha va ko'rindigan sohada organik moddalarning elektromagnit tebranishlarni yutilishiga asoslangan bo'lib, bunda elektronlar bog'lovchi orbitaldan bo'shashiruvchi orbitalga o'tadi. Molekulaning bu holati qo'zg'algan holat deyiladi. Kvantning yorug'lik bilan ta'sirlanishida energiya yutiladi va elektron pastki pog'onadan yuqori orbitaga o'tadi. Molekulalarda elektronlar yadro bilan mustahkam bog'langan bo'ladi, ularni qo'zg'algan holatga o'tkazish uchun ko'p energiya kerak va kichik to'ljin uzunligiga (120-800nm) ega bo'lgan elektromagnit nurlanishdan foydalilaniladi. Ultrabinafsha sohada barcha organik moddalar yutadi. Ultrabinafsha nurlanish chastotasi $8 \cdot 10^{14}$ - $6 \cdot 10^{16} \text{ s}^{-1}$ ga teng..

Ultrabinafsha sohadagi elektromagnit tebranishlarni yutilishiga sabablilarga xromoforlar deyiladi. Siljish uzun to'lqinlar tomoniga borsa **batoxrom**, qisqa to'lqinlar tomoniga borsa **gipsoxrom** siljish deyiladi. Asosy xromoforlar 200-800 nm oraligi'da yutadi.

Ultrabinafsha spektrlar spektometrlarda aniqlanadi. Erituvchi sifatida toza geksan, geptan, suv etanol, dioksan kabi erituvchilar qo'llaniladi.

Savollar:

1. Molekulalarning elektron spektrlari deb nimaga aytildi?
2. Ko'ndalang va bo'ylanma seriya chiziqlari qachon paydo bo'ladi?
3. Delandr sistemasini tushuntiring.
4. Ultrabinafsha spektroskopiya qayerda qo'llaniladi?
5. Raman effekti deb nimaga aytildi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Минкин В.И., Симкин Б.Я., Миняев Р.М. Теория строения молекул. Учебное пособие. Ростов-на-Дону: Феникс, 1997.
2. Степанов И.Ф.Квантовая механика и квантовая химия. М.: Мир, 2001, 519 с.
3. Волькенштейн М.В.Строение и физические свойства молекул. М., 1985.
4. Фабелинский И. Л. Комбинационному рассеянию света - 70 лет (Из истории физики) // Успехи физических наук.- 1998.- Т. 168, №12.- С. 1342-1360.
5. www.ihtik.lib.ru/books.htm Библиотека Ихтика. Литература по химии.
6. <http://www.ru.wikipedia.org>.

Mustaqil ishlash uchun testlar

1. Spektr deb nimaga aytildi?

A. Prizmadan o'tgan yorug'lik oqimining aniq to'lqin uzunligiga ega bo'lgan qismi.

B. Prizmadan o'tgan yorug'lik oqimining aniq to'lqin soniga ega bo'lgan qismi.

C. Prizmadan o'tmagan yorug'lik oqimining aniq to'lqin chastotasiga ega bo'lgan qismi.

D. Prizmadan o'tgan yorug'lik oqimining aniq to'lqin uzunligiga ega bo'lmasagan qismi.

2. Protonning massasini kim aniqladi?

A. Malliken B. Zommerfel'd C. Gol'shteyn D. Shedvig

3. Balmer serisida elektronlar qaysi orbitadan qaysi biriga ko'shadi?

A. 4,5,6 – orbitadan 2 orbitaga B. 3,4,5 – orbitadan 2 orbitaga

C. 4,5,6 – orbitadan 3 orbitaga D. 4,5,6 – orbitadan 1 orbitaga

4. Ridberg konstantasi va uning formulasini ko'rsating.

$$A. 1,096775 \text{ sm}^{-1} R = \frac{2\pi^2 me^4}{h^3 C} \quad B. 109,6775 \text{ sm}^{-1} R = \frac{2\pi^2 me^4}{h^3 C}$$

$$C. 1096775 \text{ sm}^{-1} R = \frac{2\pi^2 me^4}{h^3 C} \quad D. 2,096775 \text{ sm}^{-1} R = \frac{2\pi^2 me^4}{h^3 C}$$

5. Leptonlar sinfiga qaysi oilalar kiradi?

A. mezon va bariyon B. elektron

C. elektron va myuon D. myuon va pion

6. M. Plank tenglamasini belgilang.

$$A. E = \lambda \cdot h \cdot v \quad B. E = h \cdot C \quad C. E = h \cdot v \quad D. v = \frac{c}{\lambda}$$

7. Elektronning antizarrachasi qaysi?

A. elektron neytrino B. Antizarrachasi yo'q

C. pozitron D. proton

8. Massa deffekti deb nimaga aytildi?

A. Massaning o'zgarmasligi.

B. Yadroning bog'lanish energiyasiga ekvivalent bo'lgan massa miqdoriga. C. Massaning kamayib ko'payishi.

D. To'g'ri javob yo'q.

9. Litiy molekulاسининг (Li_2) molekulyar orbitalini aniqlang?

A. $(\sigma 1s)^2 (\sigma^* 1s)^2 (\sigma 2s)^2$ C. $(\sigma 1s)^2 (\sigma^* 1s)^2 (\sigma 2s)$

B. $(\sigma 1s)^2 (\sigma^* 1s) (\sigma 2s)^2$ D. $(\sigma 1s)^2 (\sigma^* 1s)^2 (\sigma^* 2s)^2$

10. Infragizil sohada qaysi seriyadagi spektrlar topilgan?

A. Brekket B. Pashen va Pfunda

